

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

Abduxalilova Aziza Erkinovna

**XIVA XONLIGIDA SOLIQ TIZIMI
TARIXI VA TARIXSHUNOSLIGI**

Monografiya

TOSHKENT–2025

UO‘K: 94(5)(575.1)

KBK: 63.3(5O‘zb)

A12

Abduxalilova A.E.

Xiva xonligida soliq tizimi tarixi va tarixshunosligi [Monografiya] / Mas’ul muharrir: Doniyorov A.X. – Toshkent: “TDSHU” davlat muassasasi 2025. – B.148.

Mazkur monografiyada Xiva xonligi Qo‘ng‘irotlar davri soliq tizimi tarixiy hujjatlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, soliq tizimining tarixshunosligi va manbashunosligi yoritib berilgan.

Mazkur monografiyadan bakalavr bosqichi talabalari, magistr, o‘qituvchi va ilmiy izlanuvchilar, qolaversa, boshqa ushbu sohaga qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

UO‘K: 94(5)(575.1)

KBK: 63.3(5O‘zb)

Mas’ul muharrir:

Doniyorov A.X.

tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

I.M. Haydarov	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, DSc.
X.T. Fayziyev	Temuriylar tarixi muzeyi direktori, tarix fanlari nomzodi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ilmiy Kengashining 2025 yil 1-martdagi 7-sonli bayonnomasiga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8777-3-5

© Abduxalilova A.E., 2025

© “TDSHU” nashriyoti, 2025

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. XIVA XONLIGI SOLIQ TIZIMI TARIXSHUNOSLIGI VA MANBASHUNOSLIGI.....	6
1.1. Xiva xonligida soliq boshqaruviga doir tarixiy manbalar tasnifi va tahlili.....	6
1.2 Xiva xonligi soliq tizimi tarixshunosligi.	16
II BOB. SOLIQ SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI VA UNING MANBALARDA AKS ETISHI	36
2.1 Yerdan olinadigan daromad solig‘i	36
2.2 Zakot undirish tartiblari va uning amaliyoti.	58
2.3 To‘lovlar va yig‘imlar.....	72
III BOB. MANBALARDA XIVA XONLIGI SOLIQ TIZIMI O‘ZGARISHLARI VA ISLOHOTLARI BAYONI.....	87
3.1. Xonlikda yangicha soliq munosabatlarining shakllanishi.	87
3.2. XX asr boshlari Xiva xonligi soliq tizimi islohotlari, tamoyillari va sarf etilishi.....	103
XULOSA.....	126
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	128
ILOVALAR.....	136
ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI.....	144

KIRISH

Globallashuv natijasida jahon mamlakatlarida kechayotgan iqtisodiy integratsiya jarayonlari soliq tizimiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Dunyodagi ko'pgina yirik inqirozlar davlatlarning noto'g'ri makroiqtisodiy siyosatlari yoki iqtisodiyotni yetarli darajada nazorat qilmasliklari oqibatida sodir bo'lgan. Shu sababli makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tez o'zgaruvchan davrda fiskal siyosatni to'g'ri yo'lga qo'yish davlatning rivoji uchun muhimdir. Chunki davlat iqtisodiyotni tartibga solishda fiskal va monetar siyosatdan foydalanadi. Shu jihatdan, soliq siyosatining tarixiy asoslari, tarixiy manbalarda aks etishi, fiskal siyosat hujjatshunosligi va uning o'ziga xos jihatlari aniqlash, fiskal tizimga oid manbalarni ilmiy tadqiq qilish orqali ehtimoliy muammolarni oldini olish imkoniyati shakllanadi.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlari yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalarida¹ Markaziy Osiyo o'rta asr davlatlari, ularning iqtisodiy tarixi, fiskal va monetar siyosati, ularning manbalarda qayd qilinishiga qiziqish ortib bormoqda. Jumladan, Avstriya Fanlar Akademiyasi Eronshunoslik instituti tomonidan qozilik va arzdosht hujjatlari, soliq va yig'implarda yasovulboshi ishtiroki, shuningdek, Rossiya imperiyasi bosqinidan keyingi davrlarda shariat tartiblarining o'zgarishi masalalari tadqiq etilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarni rivojlantirish, manbalar bilan ishlash orqali hududga oid ma'lumotlarni yanada boyitish va aniqlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida mamlakatning butun soliq tizimini keng ko'lamli isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bir davrda, davlat soliq siyosati samaradorligini oshirish, bu boradagi soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq barqarorligini ta'minlash masalasi jamiyatdagi muhim vazifaga aylanmoqda.² Ushbu vazifani samarali amalga oshirish, bu jarayonda nafaqat jahon tajribasi, balki mintaqa soliq tizimining tarixiy ildizlariga tayanish, tarixiy tajribani tadqiq etish va uning samarali jihatlari sohaga tatbiq etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Chunki soliq siyosati davlatning barqarorligi va uzluksiz rivojlanib borish

¹ Research Institute for inner Asian Studies Bloomington, Indiana University, United States; Cambridge University, Oxford University, United Kingdom; Высшая школа экономики, Москва, Rossiya; Institute of Iranian Studies, Austrian Academy of Science; Kyoto University of Foreign Studies, Japan, Area Studies Tsukuba, Japan.

² 2020-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi yangi tahririda soliq turlari soni 13 tadan 9 taga qisqartirildi.

asosi hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, dunyodagi tez o‘zgaruvchan, murakkab vaziyatda soliq tushumlari barqarorligini ta’minlash³, “Soliqchi – ko‘makchi” tamoyili asosida ishlash tartibiga o‘tish⁴, soliq solish tizimini va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish⁵ kabi dolzarb vazifalar mavjudligi, ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning muhimligini asoslaydi.

³ 2022 yil 16 mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning Davlat soliq qo‘mitasiga tashrif buyurib, soliq ma‘murchiligini isloh qilish va sohaga axborot texnologiyalarini keng joriy etish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda so‘zlagan nutqi. <https://review.uz/uz/post/xalqimiz-qachon-rozi-boladi-soliq-kam-bolib-daromadi-oshsa-shavkat-mirziyoyev>

⁴ 2022 yil 16 mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning Davlat soliq qo‘mitasiga tashrif buyurib, soliq ma‘murchiligini isloh qilish va sohaga axborot texnologiyalarini keng joriy etish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda so‘zlagan nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/5060>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6591947>

I BOB. XIVA XONLIGI SOLIQ TIZIMI TARIXSHUNOSLIGI VA MANBASHUNOSLIGI

1.1. Xiva xonligida soliq boshqaruviga doir tarixiy manbalar tasnifi va tahlili

Har qanday davlatning iqtisodiy-ijtimoiy holatini va aholining muayyan iqtisodiy tizim sharoitidagi yashash tarzini aks ettiruvchi sohalardan biri soliq tizimi hisoblanadi. Soliq tizimini tarixiylik nuqtai nazaridan o'rganish orqali hukmron sulolaning iqtisodiy siyosatini aniqlash va aholining moddiy ahvol darajasini tahlil qilish mumkin bo'ladi. Shu jihatdan, O'zbekiston tarixining ajralmas qismi bo'lgan Xiva xonligi Qo'ng'irotlar sulolasi davri soliq tizimini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xiva xonligi soliq tizimiga doir turli harakterdagi tarixiy manbalarini mazmun-mohiyatiga ko'ra 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Xiva xonligi mahalliy muarrixlari tomonidan yozilgan tarixiy asarlar;
2. Xiva xonlari arxivi va devonxonasi hujjatlari;
3. Rus sharqshunoslari, elchi va sayyyohlar esdaliklari, statistik to'plamlar.

Avvalo, birinchi guruhga oid manbalarni tahlil qilinadigan bo'lsa, Qo'ng'irotlar sulolasi (1763-1920) hukmronlik qilgan davrda yaratilgan qo'lyozma asarlarda Xiva xonligining iqtisodiy hayoti, xususan, soliq tizimiga doir ayrim ma'lumotlar uchraydi. Ayniqsa, bu davrda ijod qilgan saroy muarrixlari – Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlarida Xiva xonligining iqtisodiy hayotiga, shu jumladan, soliq tizimiga oid ko'p qimmatli, faktlarga boy materiallar mavjud. Mazkur muarrixlar xonlikning boshqa davlatlar bilan bo'lgan savdo-iqtisodiy aloqalari, Rossiya bilan bo'lgan savdo-diplomatik munosabatlar kabi masalalarni yoritish bilan bir-qatorda, xonlikdagi yer egaligi va soliq turlari, o'lpon yig'uvchilar va soliq imtiyozlari, Xiva xonligida yashovchi aholi toifasi va ulardan yig'ib olinadigan soliq, dehqonchilik va sug'orishishlari

hamda boshqa ko‘pgina masalalar haqida ham muhim ma’lumotlar yozib qoldirgan⁶.

Jumladan, “Firdavs ul iqbol” asarida xonning qoraqalpoqlar ustiga yurish tafsilotlarini yoritish jarayonida ularga mas’ul etib belgilangan amaldorlar to‘g‘risida ma’lumot keltiradi. Qoraqalpoq eli bo‘ysundirilgandan so‘ng, Yangidaryo axliga Yusuf mehtarning inisi Niyozmuhammadboy va Muhammadqulbeklar tayin etilganligi, ularning vazifasiga qoraqalpoq zakotini olish ham yuklatilgan ta’kidlanmoqda⁷.

Yana bir muarrix Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy” asarida Rossiya imperiyasi tomonidan Xorazm diyorini egallanishi, jang tavsilotlari va muzokaralar masalalariga oid ma’lumotlarni keltirish jarayonida: “... Xorazm aholisiga solingan ikki millionikki yuz manot soliqning uch yuz ming manoti yovmutlar hissasiga tushadi...”⁸. Muallif tomonidan keltirilgan Xiva xonligi devonxonasida ish yuritish masalalariga oid ma’lumoti ham muhim hisoblanadi. Xususan, muarrix saroyda arxiv hujjatlari xazina bilan birgalikda, alohida binoda, maxsus ajratilgan kishilarning nazorati ostida tartib bilan juda puxta saqlab kelingani, har qaysi daftarning alohida raqami bo‘lganligini qayd etadi⁹. Bu esa muarrixlar tomonidan berilgan ma’lumotlar nafaqat soliq tizimi, balki o‘sha davrdagi hujjat yozish, rasmiylashtirish, saqlash ishlari haqida ham axborot berganligi bilan ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.

Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti to‘g‘risida Munis, Ogahiy va Bayoniy tarixiy asarlari qatorida, Xamid Tura Kamyobning “Tavarix ul-xavanin” va Jumaniyoz Xoja Xorazmiy al-Xivaqiyning “Isfandiyor davrining vokealari” asarlari ham muhim manbalardan hisoblanadi. Bundan tashqari, xonlikning so‘nggi yillari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi A.Boltayev, B.Safarov, M.Otajonov, H.Madaminovlarning qo‘lyozma xotira asarlarida ham xonlikda mavjud soliq turlari to‘g‘risida ma’lumot keltiriladi.

A.Boltayev Xiva xonligidagi me’moriy inshootlar tarixini yoritish jarayonida Xivadagi chorsular va soliqlar to‘g‘risida ma’lumot beradi.

⁶ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). – Тошкент, 2002. – Б. 118

⁷ Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 29

⁸ Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Қўлёзма манбалар асосида нашрга тайёрловчи Иқболой Адизова. — Тошкент, 1991. – Б. 177

⁹ Ўша жойда – Б. 19

Chorsular tarixi, joylashuvi, ulardagi do‘konlar, hunarmadlar, shuningdek, uning qaysilari vaqf mulklariga qarashi alohida ajratiladi. Masalan, Olloqulixon madrasasi kun chiqish tomonida, Oq masjidning orqa qismida joylashgan chorsu Olloqulixon madrasasiga vaqf qilib berilgan. Muallif ma’lumotlariga asosan, u yerdagi hunarmandlar ikki turdagi soliq to‘laydi, biri vaqfga, ikkinchisi podsholiqqa. 1832 yilda qurdirgan saroy (karvonsaroy) 130 nafar savdogar boyning do‘koni bor. U ham vaqf qilib berilgan. Savdogarlar 2 turdagi noluq to‘laydi”¹⁰. Muallif asarda hunarmandlardan olingan soliq miqdorini keltirmasa-da, ularning 2 ta majburiyati ya’ni ham vaqfga ijara haqi, ham podsholiqqa davlat soliqlarini umumiy yangi kirib kelgan atama *noluq* bilan izohlab qo‘yadi. Bundan tashqari, asarda xonlikdagi mehnat majburiyati *begar* va soliqlarning sarf etilishiga doir bir qancha ma’lumotlar ham mavjud.

Xiva xonligining so‘nggi yillari tarixini yorituvchi qo‘lyozma asar B.Safarovning “Xorazm tarixi”¹¹ bo‘lib, unda xonlikning XIX asr ikkinchi yarmi siyosiy jarayonlari bayon etilishi jarayonida aholining iqtisodiy-ijtimoiy hayoti to‘g‘risida ham ayrim ma’lumotlar berib o‘tiladi.

Hasanxon Madaminovning “Xorazm tarixiga oid materiallar” asarida 599 yildan 1918-yilgacha bo‘lgan Xorazm tarixi bayon etiladi. Berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Muhammad Rahimxon davridan boshlab yerlar uch toifaga ajratilib, soliq ham shu holatni inobatga olingan tarzda undirilganligini yozadi. Birinchi xo‘jalik yeri 15 tanob, uning solg‘uti podsholikka 54 tanga olinar, ikkinchi xo‘jalik qo‘lida 10 tanob yeri bo‘lib, 36 tanga, uchinchi xo‘jalik 5 tanob yeri uchun 18 tanga soliq olingan. Agar mulkdorning yeri 5 tanobdan ham oz bo‘lsa ham 18 tanga olishtartibi belgilangan¹². Muallif asarida xonlikdagi *bevatan solg‘uti*, yangi vatanli bo‘lgan dehqonlar uchun *solg‘ut* miqdori, islohotlar dasturi haqida aniq dalillangan ma’lumotlar keltiradi.

Birinchi guruh manbalari asosan saroy tarixchilari va o‘sha davrni bevosita ko‘rgan shaxslar tomonidan yozilgan bo‘lib, undagi ma’lumotlar birlamchi bo‘lgani, o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotini aniq dallillar

¹⁰ Boltayev A. Xiva esdaliklari. O‘zR FA ShI № 11645 raqamli qo‘lyozma

¹¹ Safarov B. Xorazm xonligiga tegishli tarixiy materiallar. O‘zR FA ShI № 11645 raqamli qo‘lyozma

¹² Madaminov H. Xorazm tarixiga oid materiallar O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 609-yig‘ma jild.

asosida ochib berishi, soliqlar va ularning miqdori, yig'ish holatlari haqida to'liq tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Ikkinchi guruhni tashkil etuvchi manbalar – O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivida (keyingi o'rinlarda O'zR MA) Xiva xonlari arxivi I-125 fondida saqlanayotgan hujjatlar to'plami bo'lib, ular davriy jihatdan XIX asrning 30-yillaridan – 1920-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ikki ro'yxatdan iborat bu fond, soliq tizimiga oid hukmdor tarxon yorliqlari, muboraknomalar, soliq qaydnomalari, sanoq daftarlari, amaldorlarning soliq yig'ish jarayoni to'g'risidagi axborotlari, arzdosht hujjatlari, soliq pattalari kabi hujjatlardan tashkil topgan.

“Rasmiy hujjat” turiga kiruvchi, xon tomonidan berilgan va soliq daxlsizligiga ega *tarxon yorliqlari* xonlik soliq tizimini o'rganishda birlamchi manbalardan sanaladi. Mavzu doirasida o'rganilgan O'zR MA fondida saqlanayotgan tarxon yorliqlari¹³ matni mazmunidan ma'lum bo'ladiki, yorliq barcha soliq va majburiyatlardan, xususan, qozu, qochu, begar, divon puli, qozon xarji, ipaklaridin mol, ilchi, ulog', darvozabon pulidan ozod qilish, shuningdek, boshqa yig'imlar uchun yorliq olgan shaxsdan to'lov talab qilmasliklari uchun berilgan¹⁴. Odatda bunday yorliqlar sulola vakillariga, sayyidlar avlodiga va saroy yuqori amaldorlariga ma'lum xizmatlari evaziga berilgan. Bu arxiv hujjatlarini tahlil qilish orqali xonlikda mavjud bo'lgan soliq, to'lov va turli yig'imlarning nomlari, turlari, sonini tadqiq etish ahamiyatlidir. Jumladan, Xiva xonligi tarxon yorliqlarda quyidagi soliq, to'lov va majburiyatlarning turlari uchraydi: *jarib*, *tanobona*, *ipaklarindin mol*, *ilchi yoki yo'lchi* (ulov tutuv, qo'nolg'a to'lovlari bilan birga keladi), *qo'nolg'a*, *ulog'*, *so'ysun*, *borsbon*, *kashtibon*, *qo'ruqbol yoki qo'ruqbon* (“qo'ruq” qabriston, xonning ov joyi va “mol”, “bon”, “chi” shaklida uchraydi, nima maqsadda olinganligi aniq emas), *darvozabon*, *qozu*, *qochu*, *bigar*, *hashar*, *boj*, *tamg'a*, *chahol yek*, *rohdorliq*, *xazinachiliq*, *amalat*, *olg'ot*, *dud*, *ravonot* (forscha “bormok”, qanday soliq yoki to'lovligi aniq emas), *qazon xarji*, *sari-mard* (“sar” bosh va “mard” kishi),

¹³ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 10-12-14-16-yig'ma jildlar.

¹⁴ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 16-yig'ma jild, 1-varaq

*bilejat*¹⁵. Ushbu ma'lumotlardan aniq bo'ladiki, yorliqlar muarrixlar tomonidan keltirilgan ma'lumotlarni aniqlashtirish, tasdiqlash yoki inkor qilish uchun foydali va muhimdir.

Xiva xonligi soliq tizimi tarixini o'rganishda yana bir muhim manba xonlik devonxonasida yuritilgan soliq tushumi va sarfi qayd etib borilgan *sanoq daftari* – deb nomlanuvchi hujjat hisoblanadi. Bunday turdagi hujjat *avorija daftari*¹⁶ va *tavjiha*¹⁷ daftaridan iborat bo'lgan.

Avorija daftari – mavzelar kesimida soliq to'lovchi ob'ektlar va ulardan keluvchi pul va mahsulot ko'rinishidagi tushumlar ro'yxati¹⁸ hisoblanadi. Odatda bunday daftarlarda soliq to'lovchi mansub masjid qavmi, soliq to'lovi ism-sharifi, yer miqdori va jamisi qayd qilib boriladi.

Avorija sanoq daftarlari quyidagi tartibda yozilgan:

1. Daftarning qaysi viloyat va amaldor tomonidan yuritilishi (Xiva xonligida soliq ishlari bilan devonbegi, qo'shbegi va mehtar shug'ullangan);

2. Kun, oy, yil;

3. Soliq yig'ilgan hudud, masjid qavmining nomi va ho'jaliklar soni;

4. Soliq to'lovchilar ro'yxati;

5. Ularning yer miqdori va olingan soliq miqdori;

6. Ba'zi hollarda *kesir* miqdori va imtiyozga ega bo'lsa u ham ko'rsatilgan (yangi o'zlashtirilgan yer ma'nosida);

7. So'nggida yig'ilgan umumiy summa qayd etilgan¹⁹.

Tavjiha daftari – davlat g'aznasidan sarflangan mablag'lar, oylik maoshlar, don mahsulotlari tushumi va boshqa sarf harajatlardan iborat²⁰. Bu turdagi daftarlar tadqiqi mahsulot ko'rinishida topshirilgan soliqning miqdorini aniqlash imkonini beradi. Xiva xonlari arxivi hujjatlarini o'rgangan P.Ivanov keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, xonlikda yer solig'i solg'utdan tashqari, mahsulot bilan to'langan ushr ham olingan, yig'ilgan donning miqdori va sarflanishi devonxonada qayd etib borilgan.

¹⁵ Wood W. A collection of tarkhan from the Khanate of Khiva. – Bloomington IN, 2005. Pappers on Inner Asia. No. 38. – P. 39-49

¹⁶ Xiva xonligida soliq tushumi daftari

¹⁷ Xiva xonligida soliqdan tushgan mablag'larning chiqim daftari

¹⁸ Султонов Ў. Мусулмон мамлакатлари дипломатикаси. – Тошкент: Наврӯз нашриёти, 2019. – Б. 82

¹⁹ Tadqiqot doirasida 86 ta sanoq daftari o'rganildi.

²⁰ Султонов Ў. Мусулмон мамлакатлари дипломатикаси. – Тошкент: Наврӯз нашриёти, 2019. – Б. 82

Jumladan, ushr daftarida “*Qūy yīlī 1263 (1847) rajab āyīnīng 15 dan Khān ḥazratlārīnīng Rāfānīqdāgī ḥavliṣīdān ‘ushr 1 ḥīsābī*”²¹ daftarida xon yerlaridan 3547 botmon bug‘doy, Sulton Maxmud to‘radan 453 botmon, jami 4000 botmon yig‘ilgan.²² Yuqoridagi hujjat matnidan ma‘lum bo‘ladiki, davlat yerlaridan *ushr* olingan va turli amaldorlar, ulamolar, mudarrislar va boshqa toifadagi shaxslarga undan oylik maosh va rag‘bat sifatida tarqatilgan.

Avorija va tavhija daftarlaridan tashqari xonlikda *g‘alla daftarlari* ham yuritilgan. Bu turdagi daftarlar tadqiqi xonlikda yer solig‘i solg‘utdan tashqari, mahsulot bilan to‘langan ushr ham olinganligi, yig‘ilgan donning miqdori va sarflanishi devonxonada qayd etib borilganligi, mahsulot ko‘rinishida topshirilgan soliqning miqdorini aniqlash imkonini beradi. Jumladan, ushr daftarida xijriy 1263. Qo‘y yili, rajab oyining o‘n beshinchisidan xonning Rafaniqdagi hovlisidan yig‘ilgan ushr Polvon Niz Mahramga 160 botmon, Qubo shayxga 40 botmon, Qul Murod sardorga 60 botmon berilgan²³ kabi ma‘lumotlar keltiriladi. Bu ma‘lumotlardan nafaqat soliq turi, miqdori, davri haqida, balki qadimiy o‘lchov birliklari va ularning hududlarda ishlatilishi haqida ham axborot olish imkonini beradi.

Saroy tarixchisi Bayoniyni keltirgan ma‘lumotlariga ko‘ra, soliq daftariga devonbegi va qo‘shbegi mas‘ul etib tayinlangan va ushbu daftarlar saroyda xazina bilan birgalikda, maxsus ajratilgan kishilarning nazorati ostida saqlanib kelgan²⁴. Bu esa ushbu hujjatlarning ahamiyatini belgilab beradi.

Ish yuritish hujjatlari turkumiga kiruvchi *‘arz-dāsh*t hujjatlari ham Xiva xonligi Qo‘ng‘irotlar sulolasi davri soliq tarixini o‘rganishda muhim manbalar sirasiga kiradi. Ular mazmunan, xon yoki uning yuqori amaldorlariga aholi tomonidan biror masala yuzasidan iltimos, shikoyat va xabar berishdan iborat bo‘lgan.

²¹ Monografiyada IJMES transliteratsiya tizimidan foydalanildi.

²² Иванов П. Архив хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. – Ленинград, 1940. – С. 94

²³ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 94-yig‘ma jild, 1-10- varaqlar

²⁴ Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. Qo‘lyozma manbalar asosida nashrga tayyorlovchi Iqboloy Adizova. –Toshkent, 1991. – B. 29

Mavzu yuzasidan o'rganilgan O'zR MA fondida saqlanayotgan arzdosht hujjatlaridan birining mazmuni interpretatsiya qilish bu hujjatlarning soliq tizimi tamoyillarini aniqlashdagi o'rnini belgilaydi. Misol uchun, "... vizārat-panāh davlat va īqbāl va 'ūmlārīnī mūstadām qīlghay āmīn va Rabbul 'ālamīn, 'arzīmiz bū ki Īsh Nīyāznīng ūghlī Khudāy Birgān tūrūmīz ātāmīzdin Manāq tavābi' Qataghān mavḍi'ida īkkī yārīm ṭanāb yīr qālīb yīrdī ānīng qāzū va sālgūtīdin ājiz tūrūrmiz ūzlarī ālīb īgalik qīlsālār dīb 'umīdvār tūrūrmīz va dāma 'izzatuhu īqbālkim šāhib-i ikhtiyār tūrūr al-salām a al-salām 'alaykum al-taqṣīr al-taqṣīr". Hujjat matnida 2,5 tanob yeri bo'lgan Eshniyoz o'g'li Xudoybergon ismi shaxsdan xon nomiga murojaatnoma yo'llangan. Bundan yer egasi solg'ut to'lashga va mexnat majburiyatini (kozu) bajarishga imkoni yo'qligini bildirmoqda. Demak, bu turdagi davlat ish yuritish hujjati xonlik soliq ma'muriyatchiligini va uning ijtimoiy tamoyillarini tadqiq etishda nihoyatda muhim ahamiyaga ega. Tadqiqot doirasida o'rganilgan bu turdagi hujjatlar mazmunidan anglashiladiki, arzdosht soliq to'lashga qiynalgan yoki imkoni mavjud bo'lmagan hollarda yuborilgan va aksariyat hollarda ijobiy hal etilgan²⁵. Bu turdagi arxiv manbalarining mavjudligi xonlikdagi aholi vakillarini arzlarini ham e'tiborga olinganligi, ijtimoiy muloqot yo'lga qo'yilganligini ko'rsatib berishda ahamiyatli hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zR MA "Xiva xonligi devonxona hujjatlari" fondida 100 dan ortiq *zakot pattasi* deb nomlanuvchi hujjat uchraydi. Patta zakotning har qanday turidan soliq to'laganlik to'g'risida ma'lumotnoma vazifasini bajargan va tizimda adolat tamoyillarini amal qilishini ta'minlagan. Hujjat odatda berilgan sana, oy, yil, undan so'ng zakotning qaysi turidan qancha miqdorda va zakot beruvchining ism-sharifi va hujjat rasmiylashtirilganligini anglatuvchi muhr va bojmonning ism-sharifi keltirilgan. Masalan, bu turdagi hujjatlarning birida zakoti savoim uchun, "... *Tā'rikh-i māhī Jumādī al-Avvalnīng sakkīzīda yuz qūy ūchūn zakātīn Muḥammad Khwāja Niyāzdan āldūq. Dakhil qilmāsūnlār dīb āngha khaṭṭ bītīldī. 1383*"²⁶, deb ma'lumot beriladi. Mazkur hujjatda

²⁵ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 489-yig'ma jild, 1-varaq

²⁶ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 455- yig'ma jild, 3-4-varaqlar.

solliq yig'ish jarayoni shaffofligini ta'minlash va boshqa zakotsaroylarda bojmonlar tomonidan qayta solliq talab qilmasligining oldini olish maqsadida kvitansiya (hujjat) berilganligini ko'rish mumkin.

Ma'lumot uchun, Xiva xonligi solliq tizimida xonlikning ko'plab amaldorlari ishtirok etgan. Solliq yig'ish jarayoni uchun maxsus lavozim va shaxs ta'yin etilmagan, xonlikning yuqori amaldorlari o'zlarining asosiy vazifasini bajarish barobarida solliq yig'ish jarayonini ham ishtirok etgan. Solliqlar nazorati xon va yuqori mansabdorlar zimmasida bo'lgan. Solliq yig'ishning boshlanishidan to yig'ib g'aznaga topshirilgunga qadar bo'lgan jarayon to'g'risida xonga hisobot yuborilgan.

Xiva xonligi solliq tizimini tadqiq etishda biror-bir shaxsning "ma'lum muddatga solliq yoki majburiyatdan ozod qilinganligi"ni tasdiqlovchi *inoyatnoma*, *nishona*²⁷ kabi hujjatlar ham muhim o'rin tutadi.

Fuqarolik, notarial va nikoh, vasiqa va vasiyatlarni qayd etish bilan shug'ullangan xonlik qozixonalarida fuqarolarning kundalik turmushi bilan bog'liq hujjatlar qayd etilgan. Shunday hujjat turlarida fuqarolarining solliq majburiyatlarini qonuniylashtirish masalasi ham ko'rilgan²⁸. Qozilik hujjatlarida solliq bilan bog'liq qaydlar ko'plab uchramasa-da, Xiva xonligi solliq tizimini o'rganishda bu tur manbalarning o'ri ahamiyatlidir. 1326 (1908) yil mohi rajabda Xazorasp qozixonasida tuzilgan shartnomada Ernazar so'fi masjid qavmida yashovchi 20 yoshli Rahmon Berdi Xoja Niyoz o'g'li amakisi Ro'zmuhammad Qurbon Niyoz o'g'lidan mush'a – taqsimlanmagan chehel yek tanob yurtgohning barcha muanati podshohisining solg'ut va qozu va qochu, begor va hashori Rahmon Berdi Ho'ja Niyoz o'g'li zimmasiga yuklatilganligi, xon ma'murlari Ro'zmuhammad Qurbon Niyoz o'g'lidan muanati podshohi – davlat solliqlari talab qilmasligi uchun tuzilgan. Qozilar: Muhammad Sharif xo'ja ibn Muhammad Solih ho'ja, Ish Muhammad ibn Sayid Muhammad, Muhammad Qosim xo'ja, ibn mulla Ahmad Niyoz"²⁹. Bu kabi hujjatlar yuqorida keltirilgan boshqa

²⁷ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 409, 412, 444, 449, 452-yig'ma jildlar

²⁸ Уринбаев А., Хорикава Т., Файзиёв Т., Джураева Г., Исогай К. Каталог Хивинский казийских документов XIX – начала XX вв. – Ташкент-Киото, 2001. – 729 с.

²⁹ Уринбаев А., Хорикава Т., Файзиёв Т., Джураева Г., Исогай К. Каталог Хивинский казийских документов XIX – начала XX вв. – Ташкент-Киото, 2001. – С. 370

manbaviy hujjatlarni to'ldirish, aniqlashtirish, asoslash va qiyosiy o'rganish uchun muhim hisoblanadi.

Xullas, ikkinchi turdagi manbalar tarixiy asarlarda keltirilgan ma'lumotlarni to'ldirib, boyitish, ma'lum o'rinlarda aniqlashtirish, mustahkamlash, shuningdek, soliq tizimidan tashqari vaqt, og'irlik, uzunlik o'lchovlari, lavozimlar va ularning huquq-majburiyatlari, iqtisodiy-huquqiy atamalarni ham tahlil qilib, ilmiy muomalaga olib kirishda ahamiyatli hisoblanadi.

Uchinchi guruhni tashkil etuvchi manbalar asosan shahsiy harakterdagi materiallardan iborat bo'lib, maxsus vazifalar, xonlikning turli sohalarini, shu jumladan iqtisodiy ahvolini aniqlash maqsadida xonlikka yuborilgan rus savdogarlari, sayyyoh va elchilarning esdaliklari, kundaliklari, memuarlar, hisobotlari kiritiladi. Mazkur materiallar arxiv, tarixiy asarlar yoki boshqa rasmiy hujjatlarda uchramaydigan soliq siyosatiga oid bahsli jarayonlarni aniqlashga yordam beradi. Ularni mazmunan *shaxsiy xarakterdagi* va *statistik materiallar* guruhlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

1819-1820-yillarda Xiva xonligiga kelgan rus harbiy xizmatchisi N.Muravyov xonlikda yashovchi turkmanlar, o'zbeklar, qoraqalpoqlar haqida, xonlik shaharlari, aholisi, iqtisodiy hayoti, jumladan, savdo–sotiq va soliq tizimi to'g'risida alohida to'xtalib, bojxona to'lovi xonlik daromadining asosini tashkil etishi, to'lovni amalga oshirish uchun bojxonalar bo'lib, u yerda soliq miqdori olib kelinayotgan mahsulot tannarxining 3/10 miqdoriga teng kelishini qayd etadi³⁰.

1842-yilda Xiva xonligini har tomonlama o'rganish uchun maxsus missiya bilan jo'natilgan podpolkovnik F.I.Danilevskiy xonlik shaharlari, qishloqlari, savdo, sanoat, qishloq xo'jaligiga oid ma'lumotlar keltirar ekan, muallif xonlikda mavjud bo'lgan to'lovlar va majburiyatlar, xususan zakot to'g'risida tijorat mahsulotlaridan olinadigan soliq osiyoliklardan 2,5%ni, rus savdogarlaridan esa 5 % miqdorda olinishi, 1842-yilning o'zida bojxonada olingan zakotning miqdori 35000 rublga

³⁰ Муравьев Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравьева. – Москва, 1822. – Ч. I-II. – С. 74

teng bo'lgani³¹ haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Bu va bu kabi missiya vakillari tomonidan berilgan fikrlar vaziyatga tashqi tomondan berilgan baho va munosabatni o'rganish va mahalliy manbalar bilan qiyosan o'rganish imkonini beradi.

Xiva xonligi iqtisodiy holati va soliq masalalariga oid ishlardan biri “Хива или географическое и статическое описание Хивинского ханства” asari bo'lib, unda xonlikning iqtisodiy ahvoli, savdo munosabatlari, amaldagi pullar va soliqlar to'g'risida mulohazalar berilgan. Misol uchun, “... xonlikdagi turkmanlar va harbiy xizmatchilar soliqlardan ozod qilingan, ular tijorat ishlari bilan shug'ullangan taqdirda boj to'lovini to'laydi³², deb ma'lumot beriladi. Asardan xonlikdagi qaysi etnos vakillari qanday imtiyozlarga ega bo'lganligini aniqlash va ularni boshqa manbalar bilan qiyoslash imkonini beradi.

Xiva xonligi soliq tizimi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalar orasida davriy nashrlarda maqolalari e'lon qilingan sharqshunos olimlar maqolalari ham alohida o'rin tutadi. Ulardan biri Rossiya imperiyasining Xivaga qarshi harbiy yurishida ishtirok etgan sharqshunos A.Kun hisoblanadi. Uning “Turkiston to'plami”da e'lon qilingan maqolasida: “... Xon saroyi musodara qilinganida, qo'lyozmalar bilan birgalikda hujjatlar ham to'plandi. Bu hujjatlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchi guruhga xonlikning daromadlari va harajatlariga doir daftarlar hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlarini, ikkinchi guruhga xatlar va diplomatik yozishmalarni kiritish mumkin. Daftarlar orasida soliqlariga doir yozuvlar, solg'ut, zakot daftarlari va Matmurod devonbening xon xarajatlari to'g'risidagi hisobotlari mavjud³³, deb ma'lumot beradi.

Xiva xonligiga kelgan O.Shkapskiy xonlik yer egaligi munosabatlari bilan bir qatorda soliq munosabatlari to'g'risida muhim ma'lumotlar keltiradi. Muallif davlat soliq solish tartibi va soliq to'lovchilar, foydalanilayotgan yer miqdoridan kat'iy nazar, uch toifaga taqsimlanishi va agar maxsus soliqdan ozod qilinganlik to'g'risida yorliqqa ega bo'lmasa, yeri 5 tanobdan ortiq bo'lmasa, u holda 1 tillodan,

³¹ Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства // Записки русского географического общества. – Москва, 1851. – Кн. V. – С. 97

³² Хива или географическое и статическое описание Хивинского ханства. – Москва, 1840. – С. 180

³³ Кун А. Научные работы во время Хивинского похода // Туркестанские ведомости, 1873. – №50. – С. 198

5 – 10 tanob yeri bo‘lganda 2 tillodan, 10 tanobdan ortiq yeri bo‘lganlar 3 tillodan soliq to‘laganligi³⁴ ma’lum qiladi. Ushbu ma’lumotlar soliq daftarlarida berilgan axborotni aniqlashtirishga yordam beradi.

Xiva xonligi haqida statistik ma’lumotlar beruvchi manbalar orasida V.A.Girshfeld va A.S.Galkinning to‘plami muhim o‘rin egallaydi. Mualliflarning yozishicha, xonlikning asosiy aholisi yer solig‘i, dahyak, chorva mollaridan zakot, kesim (qo‘shni davlatlardan olib kelingan mahsulot uchun), tagijoy, tarozi puli, pasport to‘lovi, cho‘p puli (davlat yerlarida chorvasini o‘tlatgani uchun) to‘lashar edi. Ularning umumiy miqdori 538000 rublni tashkil etgan³⁵. Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinadiki, Rossiya imperiyasi tomonidan hududga jo‘natilgan missiya vakillari diqqat markazida soliq tizimining o‘ziga xos tomonlari yoki ijtimoiy ahamiyati emas, balki yig‘iladigan soliq miqdori, ularni harj qilinishi masalalari birlamchi ahamiyat kasb etgan.

Ushbu qismga xulosa qilinadigan bo‘lsa, XIX – XX asr boshlarida yaratilgan mahalliy manbalar, asarlar, statistika va arxiv ma’lumotlari, sayohatnoma va esdaliklarda Xiva xonligi siyosiy boshqaruv va davlatchilik tarixi, o‘lka xalqlari iqtisodiy-ijtimoiy hayotidan tashqari, soliq tizimiga oid ma’lumotlar ham yoritilgan³⁶. Ushbu ma’lumotlarni o‘rganishda qiyosiy manbalar tahliliga katta e’tibor qaratib, faqatgina bir turdagi manbalarga tayanib qolmay, ular bir-birini to‘ldiruvchi va aniqlashtiruvchi axborot manbayi sifatida yondashish zarur.

1.2 Xiva xonligi soliq tizimi tarixshunosligi.

XIX–XX asrlarida hokimiyat tepasiga bo‘lgan Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida ham xonlik shariat tartib qoidalari asosida boshqariladigan soliq tizimi amal qilgan.

³⁴ Шкапский О. Аму-Дарьинские очерки. К аграрному вопросу на Нижней Аму-Дарье. Земледелие и землевладение в Шураханском участке Аму-Дарьинского. – Ташкент, 1900. – С. 133

³⁵ Гиршфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства. – Ташкент, 1901. – Ч.2 – С. 48

³⁶ Кун А. Заметки о податях в Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости, 1873. – №32. – С. 125-126; Ўша муаллиф. Порядок взимания податей в Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости, 1873. – №33. – С. 130-131; Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве с древнейших времен до настоящего. – СПб, 1877; Шкапский О.А. Аму-Дарьинские очерки. К аграрному вопросу на Нижней Аму-Дарье. Земледелие и землевладение в Шураханском участке. – Ташкент, 1900; Гиршфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства. – Ташкент, 1900. – Ч.2. – С. 33

Bugungi kunda Xiva xonligi tarixiga doir mavjud adabiyotlar tahlili xonlik soliq tizimi tarixiga oid kompleks tadqiqot amalga oshirilmaganligini ko'rsatadi. O'rganilayotgan ilmiy muammoning ayrim jihatlarini turli davr adabiyotlarida Xiva xonligi davlatchiligi, siyosiy tarixi, shaharsozlik, iqtisodiy-ijtimoiy masalalar, Rossiya imperiyasi bosqini, xalq ozodlik harakatlari kabilarni o'rganish jarayonida qisman yoritilgan.

Tadqiqot ishida Xiva xonligi soliq tarixiga oid mavjud adabiyotlarni uch guruhga ajratib tahlil etish maqsadga muvofiq:

1. Sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar;
2. Mustaqillik davri tadqiqotlari;
3. Xorijiy tadqiqotlar.

Sovet tarixshunosligida Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, yer egaligi munosabatlari, soliq va dehqonlar ahvoli mavzusini tadqiq etish faoliyati XX asr 40 – 50 yillarida rivojlandi. Ilmiy tadqiqotlarning aynan shu davrdan boshlab keng tarqalishi avvalo "Xiva xonlari arxivi"ning topilishi va muomalaga kiritilishi bilan bog'liq. Ushbu arxivga oid turli hujjatlarni tadqiq etgan olimlardan 40-yillarda P.P.Ivanov³⁷, 50-yillar oxirlarida M.Yo'ldoshev³⁸ larning asarlari tadqiqot mavzusi uchun ham ahamiyatlidir.

Yangi izlanish uchun asosga aylangan Xiva xonlari arxivi 1936-yilda, P.P.Ivanov tomonidan Saltikov-Shedrin kutubxonasi fondlaridan yangi qo'lyozmarni aniqlanishi bilan boshlandi. Yangi topilmalar asosida P.P.Ivanovning "Arxiv xivinskix xanov XIX v. Issledovanie i opisanie dokumentov s istoricheskim vvedeniem" asarida Xiva xonlari arxivi, ulardagi ayrim daftarlar qisqacha tavsiflanib, 137 ta hujjat matnidan parchalar keltirildi³⁹. Muallif asarda Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishdagi ahamiyatli bo'lgan, yer egaligi, sug'orish tizimi, solg'ut solig'ini yig'ish tartibi va qayd, savdo karvonlari va bozorlardan olinadigan zakot tushumi, vaqf mulklari, xonlik g'aznasiga kelib tushgan boshqa mablag'lar va ularning sarflanishiga oid qaydnomalar, xonlikdagi harbiy xizmatchilar, moddiy rag'batlantirilgan saroy amaldorlari ro'yxati,

³⁷ Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. исследование и описание документов с историческим введением – Ленинград, 1940. – 299 с.

³⁸ Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Тошкент, 1959. – Б. 363

³⁹ Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. исследование и описание документов с историческим введением. – Ленинград, 1940. – С. 24

qoraqalpoqlar va qozoqlardan olingan soliqlarga doir 137 ta hujjatlar mazmuni bayon qiladi.

Keyinchalik arxiv bilan bogʻliq tadqiqotlar yanada kengayib, unga koʻplab izlanuvchilar jalb qilindi. Oʻrganilayotgan masala yuzasidan sovet davrida P.P.Ivanov⁴⁰, M.Y.Yoʻldoshev⁴¹, Ya.G.Gʻulomov⁴², A.M.Aminov⁴³, A.S.Sodiqov⁴⁴, A.Koshchanov⁴⁵, I.V.Pogorelskiy⁴⁶, V.V.Sinzerling⁴⁷, O.Shayxova⁴⁸, M.Georgivskiy⁴⁹ singari olimlar tomonidan olib borilgan keng koʻlamli tadqiqotlarda Xiva xonligi yer egaligi, qishloq hoʻjalik ekinlari, chorvachilik, hunarmandchilik va undan olingan soliqlar, majburiyatlar xususida maʼlumotlar qayd etilgan.

Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy tarixini oʻrganganishda akademik M.Yoʻldoshevning ilmiy faoliyati muhimdir. Olim oʻz izlanishlarini xonlik devonxonasining arxiv hujjatlari tadqiqi bilan boshlagan. Akademik tomonidan XIX asr oxiriga taaluqli yana bir nechta xon saroyi xarajatlari va soliq qaydnomalari aks etgan daftarlar aniqlanadi va asarlarida ularning manbashunoslik tahlil berib boriladi. M.Yoʻldoshev oʻz izlanishlarida xonlikda soliq va majburiyatlar, soliq mahkamalarining tuzilishi, soliq toʻplovchilar va ularning toifalari, miqdori hamda yigʻilgan soliqlar hajmi toʻgʻrisida maʼlumotlar beradi. Jumladan, arxiv materiallariga asoslanib, yer soligʻining miqdori faqat uning katta-kichikligiga koʻra belgilanmaganligi, balki yer egasi mansub toifaga

⁴⁰ Иванов П.П. «Удельные земли» Сейид-Мухаммед-хана хивинского (1856-1865) // Записки института востоковедения академии наук СССР. – Том VI. – Москва, 1937. – С. 27-59; Ўша муаллиф. Архив хивинских ханов: новые источники для истории Средней Азии XIX в. // Записки института востоковедения академии наук СССР. – Том VII. – Москва, 1939. – С. 5-26; Ўша муаллиф. Архив хивинских ханов XIX в исследование и описание документов с историческим введением. – Ленинград, 1940. – 299 с.

⁴¹ Ўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Тошкент, 1959. – 363 б.

⁴² Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: Фан, 1959. – 312 б.

⁴³ Аминов А. Экономическое развитие Средней Азии (со второй половины XIX столетия до первой мировой войны). – Тошкент, 1959. – 298 с.

⁴⁴ Содиков А. Россия и Хива во II половине и XIX в начале XX в дис.на с.у.с.док.ис.наук. – Москва, 1965. – 805 с.

⁴⁵ Кошчанов А. Из истории аграрных отношений в Хивинском ханстве в конце XIX в начале XX в автореф.дис.кан. ис.наук... – Ташкент, 1966. – С. 15

⁴⁶ Погорелский И.В. Очерки экономической и политической истории Хивинского ханства в конце XIX начале XX века (1873-1917 гг.). – Ленинград, 1968. – С. 52

⁴⁷ Цинзерлинг В.В. Орошение на Амударье ...– С.576

⁴⁸ Шайхова А.О. Юридические документы как источник по истории социально-экономических (преимущественно аграрных) отношений в Хивинском ханстве в конце XIX начале XX века.: дисс. канд. истор. наук. – Ташкент, 1989. – 171 с.

⁴⁹ Георгиевский М. Южный Хорезм. – Ч.1..... – С. 112

qarab guruhlarga bo‘linganligini qayd etadi⁵⁰. Ammo, ushbu muallif ishlarida sovet davriga xos bo‘lgan partiyaviylik-sinfiylik yondoshuvi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunga qaramay, uning faoliyati natijalari ushbu masalani o‘rganishda muhim qadamlardan bo‘lganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

50-yillar oxirlarida mustamlaka davri o‘lka iqtisodiy rivojlanish tarixini tadqiq etgan yana bir olim A.M. Aminov bo‘lib, u o‘zining tadqiqot ishida Xiva xonligidagi iqtisodiy munosabatlar, ularning asosini tashkil etgan yer egaligi, undan keladigan daromad haqida ma’lumot berib o‘tadi. Uning ma’lumotlariga ko‘ra soliq, yer egaligi turlarga qarab belgilanib, xonlikda yer egaligining davlat, mulk, vaqf yerlari ko‘rinishidagi uch shakli mavjud bo‘lgan⁵¹. Bu fikrlar boshqa mavzuga oid tadqiqotlarda ham o‘z tasdig‘ini topadi.

Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini arxeologik manbalar asosida o‘rgangan olimlardan biri Ya.G‘ulomov⁵² hisoblanadi. Muallif Amudaryo etaklarida sun‘iy sug‘orish tizimining vujudga kelishi, rivojlanishi, Xiva xonligining siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan irrigatsiya ishlari haqida ma’lumot berar ekan, soliq masalalariga ham alohida to‘xtalib o‘tadi. Muallif tomonidan keltirilgan soliq atamalari keyingi davr tadqiqotchilari uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qildi.

XX asr 50-yillarining o‘rtalariga kelib, sovet tarixshunosligida “rus bo‘lmagan xalqlarning Rossiyaga qo‘shib olinishi progressiv faktdir”, degan tamoyil ustuvor bo‘ldi⁵³. Bu davrda yaratilgan tarixiy asarlarda Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyoning egallanishi “tarixiy zarurat” sifatida talqin qilindi. Rus bosqinining o‘lka xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi “ijobiy” natijalari tadqiqot ishlarining diqqat markazida bo‘ldi. Natijada ushbu mafkuraviy qarashlar asar va tadqiqotlar tarkibiga ham majburan singdirib borildi. Misol uchun, A.S.

⁵⁰ Ёўлдошев М.Ў. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 13-74

⁵¹ Аминов А. Экономическое развитие Средней Азии (со второй половины XIX столетия до первой мировой войны). – Тошкент, 1959. – С. 298

⁵² Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 102

⁵³ Ахмеджанов Г.А. Советская историография присоединения Средней Азии к России. – Ташкент: Фан, 1968. – 154 с.

Sodiqov, M. Mamajonov, M. Yo'ldoshev, T.N. Nigmatov, T. To'xtametov⁵⁴ kabi tadqiqotchilarning asarlarida bu holat seziladi. Ular Xiva xonligining Rossiyaga qo'shib olinishi iqtisodiy sohada ijobiy ahamiyat kasb etganligi, o'rganilayotgan soliq tizimi esa keskin tanqid ostiga olinib, xalqni ezuvchi mexanizm sifatida talqin qilindi. Ammo, bu berilgan baho siyosiy majburiyat ekanligi, o'sha davr talabi ekanligini hisobga olinib, ma'lumotlarning asosan manbaviy ahamiyatiga e'tibor qaratildi.

XX asrning 60–80-yillarida amalga oshirilgan qator tadqiqotlarda⁵⁵ xonlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotining turli jabhalari, jumladan, Rossiya bilan moliyaviy munosabatlar, Rossiya imperiyasining soliq siyosati ko'rib chiqildi. Ushbu tadqiqotlarning amaliy natijasi sifatida boy faktik materiallarning ilmiy muomalaga kiritganligini ko'rsatib o'tish mumkin⁵⁶.

A.I.Bukoveskiy⁵⁷ning tadqiqotlarida Rossiya imperiyasining pereferik (chekka) mintaqalardagi, xususan, Xiva xonligidagi soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan bo'lsa, A.P.Saviskiy⁵⁸ o'z izlanishlarida xonlikning o'lkani boshqarish bo'yicha nizomlarning qabul qilinishi, qishloq xo'jaligi, yer egaligi munosabatlari va soliq tizimiga ta'sirini o'rgandi. Ushbu izlanishlar xonlikka oid umumiy iqtisodiy holatni o'rganish uchun xizmat qildi.

A.S.Sodiqov Rossiya imperiyasi bosqinidan keyingi davrda Xiva xonligi iqtisodiy hayotini yoritish jaraniyoda soliq masalalariga ham

⁵⁴ Содиқов А.С. Экономические последствия установление протектората царской России над Хивинским ханством.: дис. канд. истор.наук. – Москва, 1954. – 329 с.; Мамажанов М. Некоторые социально-экономической жизни народов Хивинского ханства период с 1873 по 192 г. // Научные записки Ташкентского финансово-экономического института. – Ташкент, 1958. – 49 с.; Нигматов Т.Н. Из истории русско-хивинских взаимоотношений. – Ташкент, 1959. – 158 с.; Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Ташкент, 1959. – 336 с.; Тўхтаметов Т. Амударьинский отдел (социально-экономическое и политическое значение для Хорезмского оазиса). – Нукус, 1977. – 65 с.

⁵⁵ Зияев Х.З. Средняя Азия и Сибирь (XVI - XIX вв.). – Ташкент, 1962. – 342 с.; Ўша муаллиф. Средняя Азия и Поволжье (вторая половина XVI - XIX вв.). – Ташкент, 1965. – 237 с.; История Узбекской ССР / Отв. ред. Х.З.Зияев. – Ташкент, 1968. – Т. II. – С. 664.; Юлдашев А.М. Аграрные отношения в Туркестане (конец XIX - нач. XX вв.). – Ташкент: Узбекистан, 1969. – 256 с.; Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября. – Ташкент, 1973. – 236 с.; Вексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конец XIX - начало XX вв.). – Ташкент: Фан, 1987. – 143 с.

⁵⁶ Кочнев А.В. Политика России в отношении Хивинского ханства в начале XVIII –второй половине XIX в. Дис.на соис.уч.степ.кан.наук. – Екатеринбург, 2018. – 120 с.

⁵⁷ Буковецкий А.И. Финансово – налоговая политика царизма на колониальных окраинах России // История СССР. – Москва, 1962. – № 1. – С. 142-156

⁵⁸ Савицкий А.П. Поземельный вопрос в Туркестане (в проектах и законе 1867-1886 гг.). – Ташкент: СамГУ, 1963. – 208 с.

alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqotchining ilmiy ishlarida xonlik yer egaligi va solg'ut, chorvadorlardan, ko'chmanchilardan olinadigan soliq, savdo-tijorat ishlari va to'lanadigan boj to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Tadqiqot ishida 26 turdagi soliq turlari keltiriladi⁵⁹. Muallif, chorvador-ko'chmanchi xo'jaliklar *zakot-kesma* va *solg'ut kesma* bilan bir qatorda "ko'mak", "qo'shar", "molkesar" kabi soliqlar to'laganligi, soliqlar har yili 5% oshirilgani, bu esa har 20 yilda yana bir o'tov solig'i qo'shilishiga sabab bo'lgani haqida yozadi.⁶⁰ Albatta, yillar o'tishi bilan yangi soliq boshqa turdagi soliqqa o'zgargan.

A.S.Sodiqov XIX asrning 70-yillarida Xivada savdo munosabatlari juda rivojlangan bo'lib, Yangi Urganch bozorlarida 400 ta, karvonsaroylarida 50 ta, Xivada 300 ta do'kon bo'lganligi, mahsulot nomlari bilan ataluvchi "g'alla bozori, pilla bozori, baqqol bozori, birinch (guruch) bozori" kabi bozorlar faoliyat olib borganligini keltiradi. Ularda savdo qilayotgan savdogarlardan *tagijoy*, *tarozi puli* bilan birga, "*patak puli*"– aylanma mablag'ining 2% miqdorida savdo qilish huquqi uchun to'lovni ham amalga oshirgan.⁶¹

XIX-XX asrlarda Xiva xonligi agrar munosabatlar tarixini o'rgangan O.Koshchanov asarida xonlikda asosiy soliqlar solg'ut va zakotdan tashqari, "suv puli", "chig'ir puli", "nabaki puli", "asiya puli" kabi soliqlar mavjud bo'lganligini yozib o'tadi. Bunday soliqlar qanday maqsadda olinganligiga kengroq to'htalib, xivalik dehqonlar har 10 tanob yer uchun bir *suv puli* hisobida 20 so'm to'lashgani, chig'ir puli – suv g'ildiraklaridan foydalanilganlik uchun, nabaki puli – ariqlarni qazish uchun undirilgan va asiya puli – davlatga qarashli yoplardan, solmalardan suv olganligi uchun haq to'laganlari qayd qilingan.⁶² Tadqiqot jarayonida muallif keltirgan ayrim mulohazalar noto'g'ri ekanligi aniqlandi. Xususan, suv puli to'lovi bo'lganligi aniq, biroq bu muallif yozganidek

⁵⁹ Уларнинг барчаси Я.Ғуломов томонидан келтирилган атамалар.

⁶⁰ Содиқов А.С. Экономические последствия установление протектората царской России над Хивинским ханством. Дис. канд. истор. наук. – Москва, 1954. – С. 229

⁶¹ Содиқов А. Россия и Хива во II половине и XIX в начале XX в дис.на с.у.с.док.ис.наук. – Москва, 1965. – С. 305

⁶² Кошчанов А. Из истории аграрных отношений в Хивинском ханстве в конце XIX в начале XX в автореф.дис.кан. ис.наук. – Ташкент, 1966. – С. 15

“suvdan foydalanganlik uchun” emas, balki davlat mehnat majburiyatlarida qatnashmaslik uchun to‘langan.

I.V.Pogorelskiy tadqiqotida xonlikdagi chorvachilik ahvoli va undan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Xususan, xonlikda joriy etilgan “cho‘p puli” solig‘ining miqdori: bir qo‘y uchun – 5 tiyin, tuya uchun – 10 tiyin etib belgilanganligi, yillik yig‘im esa – 152000 rublni tashkil etganligini qayd etadi⁶³. Bu ma’lumotlar turli manba va arxivdagi, bundan tashqari, boshqa xonliklardagi soliq yig‘imlari bilan bog‘liq ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilishda foydali hisoblanadi.

T.G.To‘xtametov Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan egallangandan keyingi iqtisodiy tarixini yoritish ekan, Xiva xonligida mustamlakachilik davrida xonlik soliq tizimida qisman o‘zgarish yuz berganligini va bu ko‘chmanchi turkman, qoraqalpoqlardan olinadigan soliqlarda yaqqol qo‘zga tashlanishini yozadi⁶⁴.

Xiva xonligida asosiy soliqlardan tashqari, mehnat majburiyatlari ham mavjud bo‘lib, aholi ariqlarni tozalash, qayta qurish ishlariga jalb qilingan. Bu haqida V.V.Sinzerling: “... Xivada asosiy mehnat majburiyati qozu bo‘lgan va yoplarni tozalash uchun har yili bir million ishchi kuchi sarflangan”⁶⁵, deb yozadi.

XX asrning 80-yillarida o‘rganilayotgan masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar ko‘p emas. Xiva xonligi soliq tizimi tarixini o‘rganishda B.V.Lunin faoliyatining o‘rni ahamiyatli. Ushbu muallifning asarlarida O‘rta Osiyo xonliklari, jumladan, Xiva xonligi tarixiga oid tadqiqotchilar izlanishlarining tarixshunoslik tahlili amalga oshirilgan⁶⁶ bo‘lib, olim xonlik siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga oid ko‘plab manba va adabiyotlarni tadrijiy ravishda tartiblagan va o‘z izohlarini berib o‘tgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy tarixni yoritishda huquqiy hujjatlarni tadqiq etgan A.Shayxova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishida birlamchi

⁶³ Погорелский И.В. Очерки экономической и политической истории Хивинского ханства в конце XIX начале XX века (1873-1917 гг). – Ленинград, 1968. – С. 52

⁶⁴ Тўхтаметов Т. Амударьинский отдел (социально-экономическое и политическое значение для Хорезмского оазиса). – Нукус, 1977. – С. 95

⁶⁵ Цинзерлинг В.В. Орошение на Амударье ... – С. 576

⁶⁶ Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. – Ташкент, 1988. – С. 180

qo'lyozma manbalar, vaqf va qozilik hujjatlaridan foydalanilgan. Muallif Xiva xonligida yer egaligining: davlat, mulk (xususiy) va vaqf mulklari mavjud bo'lganligi, soliq masalasi ham yer egaligining turiga qarab o'zgarib borganligini ma'lum qiladi. Tadqiqotchi tomonidan Xiva xonligiga oid hujjatlarni o'rganish natijasida xonlikda 4 tillo yorliqona⁶⁷ va 2 tanga kotibona⁶⁸, ushbu amaliyot 2 marta yorliqona olayotgan shaxsga nisbatan 8 tillo 4 tanga miqdorda to'lov undirilganligi ko'rsatib berilgan⁶⁹. Bu esa soliqlar nafaqat ma'lum mulk uchun, balki xizmatlar uchun to'lovlar ham mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Sovet tarixshunosligida o'rganilayotgan muammo ko'p holatlarda partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan yondashilganligi, aksariyat adabiyotlarda kommunistik mafkura ta'siri sezilib turishi – bu davr adabiyotlari uchun umumiy holdir. Uning ta'siri ostida Xiva xonligining yer egaligi, aholining ijimoiy-iqtisodiy hayoti ham shu qolip asosida yozilgan. Adabiyotlarda xalqning xon xukumatidan ezilganligi, dehqonlarning yersizlanishi, aholining qashshoqlashuvi bo'rttirilib ko'rsatilgan. 1950-yillar tarixshunosligida O'rta Osiyo xalqlarining Rossiya imperiyasiga qo'shib olinishi konsepsiyasining ustuvorligi iqtisodiy masalalar tarixshunosligiga ham o'z ta'siri o'tkazib, mustamlakachilik o'lka xalqlariga iqtisodiy rivojlanish olib kelgan mazmunidagi ishlar yaratilganligi bilan harakterlanadi.

XX asr 60 – 70 yillar sovet tarixshunosligida iqtisodiy-ijtimoiy tarixni yoritish ustuvorlik kasb etib, Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi asarlar miqdor jihatidan ortgan. 80-yillar oxiri tadqiqotlarida esa davlatning aralashuvi nisbatan susayib, tadqiqotlarda tarixiylik, holisonalik nisbatan ortdi. Bu holat mamlakatda kuzatilgan qayta qurish va oshkoralik siyosati bilan bog'liq bo'lgan.

Mustaqillik davri tarixshunosligi

Mustaqillik jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, ijtimoiy fanlarda ham tub o'zgarishlarga olib keldi. Eng avvalo, ularning nazariy-uslubiy asoslari yangilanib, mustaqillik davri tarixshunosligida

⁶⁷ Imtiyozli shartlar asosida davlatdan yer olganligi haqidagi yorliq uchun to'lov.

⁶⁸ Yorliq yozgan mirza uchun to'lov.

⁶⁹ Шайхова А.О. Юридические документы как источник по истории социально-экономических (преимущественно аграрных) отношений в Хивинском ханстве в конце XIX начале XX века. Дисс. канд. истор. наук. – Ташкент, 1989. – С. 171

tadqiq etilayotgan masala xolislik asosida tahlil qilina boshlandi. Davlatchilik tarixini o'rganish barobarida, uning turli bosqichlarida siyosiy tarixi bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni aks etturuvchi adabiyotlarni o'rganish dolzarblik kasb etadi. Ushbu davrda tadqiq etilayotgan mavzuning u yoki bu jihatlari o'zida aks etgan ilmiy ishlarni quyidagi uch bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq, deb topildi:

1-bosqich. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan 1998 yilga qadar yaratilgan asarlar;

2-bosqich. 1998 – 2017– yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar;

3-bosqich. 2017– yildan hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlar qiradi.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, Xiva xonligi tarixini ham yorituvchi bir qator to'plamlar chop etildi. Ular orasida “O'zbekiston tarixi”, “O'zbekiston xalqlari tarixi”, “Xorazm tarixi”⁷⁰ nashrlarini alohida qayd etish lozim. Mazkur asarlarda O'rta Osiyo xonliklari tarixi, jumladan, Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti bilan bir qatorda, qisman soliq tizimiga oid tadqiqot natijalari e'lon qilindi.

Bu davr tarixshunosligi uchun xos bo'lgan xususiyat Xiva xonligi siyosiy boshqaruv, davlatchilik, shaharsozlik madaniyati tarixini tadqiq etishga asosiy e'tibor qaratilib, sohada faoliyat olib borgan olimlar S.Navro'zov⁷¹, M.Matkarimov⁷², H.Ziyoyev⁷³, A.Abdurasulov⁷⁴, M.Maxmudov⁷⁵larning izlanishlarida yuqorida qayd etilgan masalalar o'z aksini topgan. Ammo mazkur tadqiqotlarda xonlik iqtisodiy tarixi, xususan soliq masalalariga umumiy tavsif berish bilan cheklangan.

Tarixiy va tarixiy-geografik asarlarda Xiva xonligi tarixining yoritilishi masalalarini tadqiq etgan S.Navro'zov⁷⁶ dissertatsiya ishida

⁷⁰Хоразм тарихи.1-жилд. Муаллифлар жамоаси. Масъул муҳаррир М.Матниёзов. – Урганч, 1997. – 298 б.

⁷¹ Наврузов С. Система орошения Хивинского ханства в освещении дореволюционной исторической литературы // Общественные науки в Узбекистане, 1992. – Ташкент. – № 11-12. – С. 50-53

⁷² Маткаримов М.М. Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иктисоди. – Урганч, 1993. – 80 б.

⁷³ Зиёев Х. Ўзбекистон хонликлари чоризм асоратида (XIX асрнинг 50-70-йиллари). – Тошкент, 1994.– 95 б.

⁷⁴ Абдурасулов А. Хива (тарихий этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 143 б.

⁷⁵ Махмудов М. Хоразм тарихидан лавҳалар. – Урганч, 1998. – 70 б.

⁷⁶ Наврузов С. Социально-экономическая и культурная жизнь Хивинского ханства в исторической литературы. Дис. канд. истор. Наук. – Ташкент, 1992. – 196 с.

xonlikning ko'chmanchi aholisi – qozoqlar va qoraqalpoqlar yashagan Chumanay, Qo'ng'iro't, Qo'hna Urganch, Ho'jaylidan yiliga 2/5 miqdorda *dahyak*⁷⁷ olinganligi, XIX asr oxirida ulardan *changarak* solig'ini yig'ish boshlanib, qoraqalpoqlar yiliga 20 ming tanga miqdorda *o'tov puli* to'laganligi yozadi. Bu davrda yozilgan tadqiqot ishlari asosan o'rganilayotgan mavzuga doir umumiy yig'ma ma'lumotlar berish bilan kifoyalangan.

H.Ziyoiev Xiva xonligi tarkibidagi qoraqalpoqlar va turkmanlar bilan bog'liq soliq munosabatlari to'g'risida "...qoraqalpoqlar o'zbeklar kabi bir xil soliq to'lashgan. Biroq, ularga xon talabi bilan urushga, shikorga chiqish majburiyati yuklatilgan, turkmanlar esa, suv solig'i o'rniga har o'n xonadondan bitta navkar berishi va xizmati evaziga oila boshiga 10 tanobdan yer berilganligi" kabi ma'lumotlari keltiradi⁷⁸. Mazkur ma'lumotlar arxiv hujjatlari va boshqa narrativ manbalar bilan mos keladi. H.Ziyoievning tadqiqotlarida nafaqat Xiva xonligi soliq tarixi, balki Turkiston xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog'liq muammolarning keng doirasi tahlilga tortilgan.

Ikkinchi bosqichining boshlanishi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1998-yil bir guruh olimlar bilan uchrashuvida tarixchilar oldiga "...o'tmish tarixni haqqoniy o'rganish va tarixiy haqiqatni ochib berish" vazifasini qo'yishi, "O'zFA Tarix instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish" to'g'risidagi farmon va O'zbekiston davlatchilik tarixi konsepsiyasining ishlab chiqilishi va amalga oshirilayotgan tarixiy tadqiqotlarda uning metodologik asos bo'lib kelayotganligi bilan harakterlanadi. Davlat rahbari tomonidan boshlangan bu tashabbus natijasida O'zbekiston tarixiga bog'liq barcha davrga oid jarayonlar, eski mafkuraviy qarashlardan xoli ravishda, yangi istiqlo'l g'oyalari bilan yo'g'rilgan tarzda qayta ko'rib chiqila boshlandi.

Ushbu yillarda olib borilgan tarixiy tadqiqotlar asosiy urg'usi – mustamlakachilik davrida o'zbek xonliklari masalasi bo'lib, bu masalani tadqiq etish jarayonida Rossiya va Xiva o'rtasidagi munosabatlar, xonlikning Rossiya protektoratiga aylantirilishi, Xiva xonligida ijtimoiy-

⁷⁷ Qishloq xo'jaligidagi soliq turi, davlat yerlari ijarachilaridan olingan.

⁷⁸ Зиёев Х. Тарихнинг очилмаган саҳифалари. – Тошкент, 2003. – Б. 102

iqtisodiy munosabatlarga oid ma'lumotlar ham tahlil etilgan. Jumladan, tadqiqotlarda qisman soliq masalalariga oid mulohazalar A. Sotlikov⁷⁹, I. Jabborov⁸⁰, Q. Munirov⁸¹, G. Axmedjanov⁸², A. Sa'dullayev⁸³, O. Qo'shjonov va N. Polvanov⁸⁴, M. Matniyozov va Y. Ollamov⁸⁵larning asarlarida uchraydi.

Xorazmda tarixnavislik masalalarini o'z izlanishlarida yoritgan Q. Munirov⁸⁶ XVII-XX asrlarga oid tarixiy asarlar tahlili asosida Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy, xususan, soliq masalalariga doir aksar ma'lumotlar keltiradi. Xonlikda yashovchi xalqlar va ulardan olingan soliq turlari, soliq yig'ib olish uchun tayin etilgan amaldorlar va ularning hududlarga taqsimlanishi, hukmdorlarining soliq, irrigatsiya sohasidagi amalga oshirilgan ishlari Xiva xonligi muarrixlari tarixiy asarlaridan parchalar keltiradi. Xususan, muallif "Firdavs ul iqbol" asaridan "Muxammad Rahimxon I davrida urushlarda qo'lga tushtirilgan o'ljalardan "g'on⁸⁷ olingan" kabi ma'lumotlarni keltiradi. Mazkur adabiyotda soliq ma'muriyatida saroy amaldorlarining o'rni, soliq yig'ish jarayoni va unda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlar va uni hal etish usullari qo'lyozma manbalar asosida tahlil etilgan.

O. Qo'shjonov va N. Polvonov⁸⁸ tomonidan XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlari Xorazmdagi ijtimoiy siyosiy jarayonlarni yoritish jarayonida Xiva xonligi soliq tizimiga oid ko'plab ma'lumotlar keltiriladi. Ammo mazkur monografiyadagi ma'lumotlarning ba'zilar asoslanmagan. Xususan, mualliflar xonlikda mavjud bo'lgan *do'g'ma solg'uti* va *bevatan solg'utiga* to'xtalar ekan, ularning miqdori 2 tilloni tashkil etadi, degan xulosa beradi. Bu fikr hech bir arxiv manbasi bilan dalillanmagan. Tadqiqotchi tahlillariga asosan o'rganilgan sanoq

⁷⁹ Матниёзов М., Сотликов А. Жаҳон тарихи ва маданиятида Хоразм. – Урганч, 1999. – 178 б.

⁸⁰ Жабборов И. Антик маданият ва маънавият хазинаси (Тарихий этнографик лавалар). – Тошкент, 1999. – 193 б.

⁸¹ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Тошкент, 2002. – 181 б.

⁸² Аҳмаджонов А. Россия империяси Марказий Осиёда (Чоризмнинг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсий тарихи ва тарихнависи). – Тошкент, 2003. – 270 б.

⁸³ Саъдуллаев А., Сотликов А., Абдуллаев О. Сайид Ислонхўжа (сиёсий, маданий-маърифий фаолияти). – Тошкент, 2005. – 53 б.

⁸⁴ Қўшжонов О., Полванов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). – Тошкент, 2007. – 388 б.

⁸⁵ Матниёзов М., Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи. – Урганч, 2008. – 252 б.

⁸⁶ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Тошкент, 2002. – Б. 118

⁸⁷ Harbiy yurish vaqtida qo'lga tushirilgan o'ljaning 1/5 miqdorda xazinaga topshiriladigan to'lov

⁸⁸ Қўшжонов О., Полванов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий... – Б. 388

daftarlarida bewatan solg'uti 1 puxta tilloga teng ekanligi aniqlandi. Monografiyada bir qator yana shunday aniq bo'lmagan ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, atoyi mulklarning toifalari a'lolar 6 tillo, avsot 4 tillo, adno⁸⁹ 2 tillo solg'ut to'laganligi I 125 fond 291–yig'ma jild bilan dalillangan⁹⁰. Bu ma'lumot manbadan tekshirilganda mazkur yig'ma jild aslida soliq masalasiga aloqador bo'lmagan boshqa hujjat bo'lib chiqdi. Shunday bo'lsa-da, mazkur ishda Islomxo'ja davri islohotlar dasturi va soliq islohotlari to'g'risidagi ma'lumotlari ahamiyatlidir.

N.Oblomurodov va F.Tolipov hammuallifligidagi monografiya⁹¹ O'zbekistonning qadimgi davridan 2009-yilga qadar bo'lgan soliq tarixini tadqiq etishga qaratilgan dastlabki ish sifatida baholanadi⁹². Mazkur tadqiqot ishida O'zbekiston tarixining ajralmas qismi bo'lgan xonliklar davri soliq tizimining o'rganish jarayonida, qisman Xiva xonligi soliq tarixiga to'xtalib o'tilgan. Mualliflar asarda Xiva xonligida yerning turiga qarab solg'ut olinganligi, aday⁹³ mulklarida solg'utning miqdori 10 tanobdan ko'p yeri bo'lganlar uchun 3 tillo (10 so'm 80 tiyin), 5 – 10 tanob yerga egalik qiluvchilar uchun 2 tillo (7 so'm 2 tiyin) va 3 tanobgacha yeri bo'lgan dehqonlar uchun, quyi toifa sifatida 1 tillo soliq to'laganlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Tadqiqotchi tahlillariga ko'ra, mualliflar tomonidan bu soliqqa tortishning turi ko'proq “daromad solig'iga” o'xshash ekanligi to'g'risidagi fikrlari ham o'rinlidir. Mazkur monografiyada Xiva xonligi soliq tizimida *boy puli* solig'i olinganligi, u xon xazinasiga qarz sifatida olinib, hech qachon qaytarilmaganligi to'g'risida ma'lumot beriladi. Tadqiqot jarayonida o'rganilgan *boy puli* to'g'risidagi arzdosht mazmunidagi hujjatda mazkur yig'imning haqiqatdan bo'lganligi, ammo uning qarz sifatida emas, boshqa maqsadda olinganligini aniqlandi⁹⁴.

Mustaqillik yillarida Xiva xonligi tarixi, shuningdek, soliq masalalariga oid muhim materiallarni o'zida jamlagan, mahalliy olimlar

⁸⁹ A'lo- oliy toifa, 10 tanobdan ko'proq yerga egalik qiluvchi mulkdor, avsot– 5-10 tanob yer egasi, adno-quyi toifa 1-5 tanob yerli dehqon

⁹⁰ O'sha asar.... – B. 172

⁹¹ Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. – Тошкент: Иқтисод-молия нашриёти, 2009. – 180 с.

⁹² Puxta tillo- 18 tangaga teng.

⁹³ M.Yo'ldoshev tomonidan kiritilgan atama, Xivada atoyi mulkning buzib talaffuz qilinishi

⁹⁴ Qarang: Ikkinchi bob, uchinchi paragrafda to'liq berilgan.

jamoasi tomonidan tayyorlangan “Хорезм в истории государственности Узбекистана”⁹⁵ nomli asar o‘rganilayotgan mavzu uchun ahamiyatli hisoblanadi. Asarda soliq tizimiga doir ko‘plab mulohazalar va xulosalar jamlangan.

Olima S.Shodmonova Turkiston davriy matbuoti sahifalarida o‘lkadagi moliya tizimi holatini yoritish jarayonida bank, kredit va soliq tizimi masalalarini tahlil qilib, sohaga oid muhim ma’lumotlarni qayd etgan⁹⁶. Ushbu ma’lumotlar arxiv hujjatlari va tarixiy asarlarda keltirilgan dalillar bilan qiyosiy tahlilda muhim hisoblanadi.

Ushbu bosqichning yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, bu davrda Xiva xonlik tarixiga oid hujjatlar kataloglashtirildi⁹⁷. Nashr etilgan hujjatlar orasida soliq tizimiga bilan bog‘liq ma’lumotlarning ham mavjudligi, mavzu bo‘yicha izlanishlarni miqdoriy va qamroviiy kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchi bosqichda yuqorida tilga olingan asarlardan tashqari Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, soliq tizimi tarixiga bog‘liq bir qator dissertatsiyalar himoya qilindi. Jumladan, O.Masaliyeva⁹⁸, S.Saburova⁹⁹, Sh.G‘afforov¹⁰⁰, O.Mutalov¹⁰¹, M.Qayumov¹⁰², D.O‘roqov¹⁰³, Yu.Raxmanova¹⁰⁴, U.Abdurasulov¹⁰⁵, S.Matkarimova¹⁰⁶, X.Madirimov¹⁰⁷,

⁹⁵ Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Тошкент, 2013. – 520 с.

⁹⁶ Шодмонова С.Б. Туркестон тарихи – матбуот кўзгусида. – Тошкент, 2011. – 296 б.

⁹⁷ Уринбаев А. ва б.... – 370 с.; Уринбаев А., Хориқава Т., Файзиев Т., Джураева Г., Исогай К. Каталог Среднеазиатских жалованных грамот. Orient wissenschaftliche Hefte, 2007. – 114 с.; Каримов Э. Регестры казийских окументов и ханских йарликов Хиваинского ханства XVII–начала XX вв. – Ташкент: Фан, 2007. – 120 с.

⁹⁸ Масалиева О. XX аср инглиз-америка тарихшунослигида Бухоро, Хива ва Қўқон хонликлари тарихи. Тарих фан. номз.дисс. – Тошкент, 1999. – 165 б.

⁹⁹ Сабурова С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2002, – 207 б.

¹⁰⁰ Гаффаров Ш. Россия империясининг Туркистонга аҳолини кўчириш сиёсати (XIX асрнинг 2-ярми – XX аср боши). Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2003. – 176 б.

¹⁰¹ Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. 1825-1842-йиллар (Риёз уд-давла қўлёзма асари асосида). Тарих фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – 17 б.

¹⁰² Қайумов М. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошида Хива хонлигидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2005. – 149 б.

¹⁰³ Ўроков Д. Туркистонда Россия империяси маъмуриятининг расмий ҳисоботлари – тарихий манба сифатида (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2006. – 136 б.

¹⁰⁵ Абдурасулов У.А. Земельные отношения в Хивинском ханстве во второй половине XVIII – первой четверти XIX вв. Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2008. – 182 б.

¹⁰⁵ Рахманова Ю.М. Хива шаҳрининг XVI – XX асрнинг бошларидаги ижтимоий-сиёсий ҳаёти: анъана ва ўзгаришлар. Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2009. – 180 б.

¹⁰⁶ Маткаримова С.М. Хива хонлигининг Қўнғиротлар сулоласи даври тарихшунослиги. Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2010. – 170 б.

¹⁰⁷ Мадиримов Х. Хива хонлигида давлат тузуми ва ҳуқуқ манбалари. Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2012. – 160 б.

S.Turayeva¹⁰⁸, A.Xaliyorov¹⁰⁹, Q.Yakubov¹¹⁰ larning ishlarini kiritish mumkin.

Ushbu dissertatsion tadqiqotlar ichida Ogahiyning “Riyoziy – ud – davla” asari asosida Xiva xonligi Olloqulixon davri tarixini tadqiq etgan O.Mutalov, o‘z ishida Xorazmda yer egaligi, dehqonchilik va sug‘orish tarmoqlari, soliq va mehnat majburiyatlariga oid ma’lumotlar keltiradi. Dissertatsiyada asosiy e’tibor Olloqulixon hukmronlik yillari Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalariga emas, hukmdorning shaxsiy sifatlariga qaratilgan.

Xivada Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida yer egaligi va soliq masalalari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi yana bir dissertatsiya tadqiqoti S.Saburova¹¹¹ tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, mazmunida bir qancha chalkash fikrlar uchraydi. Jumladan, Xiva xonligida yer egaligining 5 turini¹¹² keltiradi. Shuningdek, vaqf xo‘jaliklari soliqdan to‘liq ozod qilinganligi to‘g‘risida yanglish fikr beradi. Olima xonlikda soliq yig‘ish jarayoni uzoq cho‘zilganligi va bu jarayonda soliq to‘lovchi soliqlarni to‘lab bo‘lguniga qadar navkarlarni boqish vazifasi yuklatilganligi singari axborot berar ekan, aniq dallillarga asoslanmaydi va ma’lumotlar manbasi ko‘rsatilmaydi.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlari Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o‘rgangan tadqiqotchi M.Qayumov ilmiy izlanishlarida, soliq tizimiga doir ma’lumotlar o‘rin olgan. Tadqiqotchi, asosan, xonlikning so‘nggi kunlari va Islomxo‘ja islohotlar dasturiga e’tibor qaratadi. Muallif xonlikda Islomxo‘ja rahbarlik qilayotgan islohotlar rejasi soliq sohadagi o‘zgarishlarni ham ko‘zda tutishi, unga ko‘ra, yerlarni qayta hisoblab chiqib, avvalgi soliq tizimini o‘zgartirish, yer egaligining har qanday shaklidan teng soliq olish va begar

¹⁰⁸ Тўраева С. XVIII аср иккинчи ярми ва XIX аср 70-йилларида Хива хонлиги хунармандчилиги тарихи. Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2012. – 177 б.

¹⁰⁹ Халийоров А. Хива хонлигида пул вақфининг ҳуқуқий ва иқтисодий асосларига доир // Ўзбекистон тарихи, 2014. – №4, 2014. – Б. 12-24

¹¹⁰ Якубов Қ. XIX асрнинг II ярми ва XX аср бошида Хива хонлигида вақф институти. (тарихий манбашунослик таҳлили). Тарих фан. бўй. фалс. док. дисс. – Тошкент, 2018. – 124 б.

¹¹¹ Сабурова С.А. XIX аср ва XX аср бoshларида Хива хонлиги давлат тузими. Тарих фан. номз. дис. – Тошкент, 2004. – Б. 204.

¹¹² Атойти ва yorliqli yer mulklarni alohida guruhlarga bo‘ladi.

majburiyatida qatnashgan dehqonlarga 2 tangadan haq to‘lash¹¹³ kabi masalalarni ochib beradi. Ushbu ma’lumotlar Asfandiyorxon davri soliq tizimi, Islomxo‘ja islohotlar dasturi, soliqdan tashqari mavjud bo‘lgan turli majburiyatlar haqida ham kengroq ma’lumot olishga imkon beradi.

Xiva xonligi yer egaligi masalalarini tadqiq etgan U.Abdu Rasulov¹¹⁴ ishlarida XVIII- XIX asrlarda xonlik yer egaligi munosabatlari, shu bilan birga yerdan olingan soliqlar masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. Tadqiqot ishida yer egaligi turlari, xususiy mulk shakllari- atoyi mulk va yorliqli mulk yerlarining farqli jihatlari, ulardan olinadigan soliqlarning o‘ziga xos jihatlari, diniy muassasa yerlari – vaqf mulklari, ijara shartlari va uning soliq tizimi atroflicha tahlil etilgan.

Xiva xonligi soliq tizimi tarixshunosligini yoritishda S.Matkarimovanning ilmiy tadqiqoti ahamiyatga molik. “Xiva xonligi Qo‘ng‘irotlar sulolasi davri tarixshunosligi” mavzusida himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasida mahalliy va xorij tadqiqotlarida Xiva xonligi tarixining o‘rganilish masalasi ochib berilgan. Xiva xonligi tarixi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni muallif davriy va sohalar bo‘yicha tasniflab tahlil qilgan¹¹⁵.

S.To‘rayeva izlanishlari jarayonida Xiva xonligi hunarmandchilik tarixi, hunarmandchilik turlari, xonlik bozorlari, karvonsaroylar va ularda olingan soliq turlari haqida umumiy ma’lumotlar beradi. Tadqiqotchi Xiva Ichan qal’a Muzey qo‘riqxonasida saqlanayotgan, XIX asr o‘rtalariga oid savdogarlar ro‘yxati keltirilgan hujjat asosida, Xiva bozorlarida do‘kondorlardan yiliga bir tillo, o‘z do‘koniga ega bo‘lmasa 0,5 shohi, hunarmandlarning do‘kon ustaxonasidan bir yilga bir puxta tillo “tagijoy” olinganligini qayd etadi¹¹⁶. Ushbu ma’lumotlar arxiv va manbalardagi dalillar bilan mos bo‘lib, soliq tizimiga oid mulohazalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yana bir mintaqa soliq tarixiga oid

¹¹³ Қаюмов М. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошида Хива хонлигидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 149.

¹¹⁴ Абдурасулов У.А. Земельные отношения в Хивинском ханстве во второй половине XVIII – первой четверти XIX вв. Тарих фан. номз. дис. – Тошкент, 2008. – Б. 113

¹¹⁵ Маткаримова С.М. Хива хонлигининг Қўнғиротлар сулоласи даври тарихшунослиги. Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2010. – Б. 170.

¹¹⁶ Тўраева С. XVIII аср иккинчи ярми ва XIX аср 70-йилларида Хива хонлиги хунармандчилиги тарихи. . Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2012. – Б.146

tadqiqot U.Jumayev¹¹⁷ tomonidan Rossiya imperiyasining o'lkada olib borgan soliq siyosati tahliliga bag'ishlanadi.

Tadqiqotchi A.Xaliyrov Xiva xonligida pul vaqfi yo'nalishida ilmiy ishlari bilan soliq masalasiga ham to'xtalib o'tadi. Bu esa o'rganilayotgan mavzuga doir izlanishlar sonini ortayotgani ko'rsatib beradi. Uning fikriga ko'ra, Muhammad Rahimxon I (1806-1825) davrida o'tkazilgan soliq islohotlari, soliq va o'lponlarni to'lashning natura shaklidan pul va tangalarda to'lashga o'tilishi, yangi kanallarning qurilishi ekin yerlaridan ko'payishi soliqlarning ortishini, bu holat vaqf qilish jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshlagan¹¹⁸.

Uchinchi davrga kelib ilmiy tadqiqotlardagi erkinlik yanada ortib, fikrlar xilma-xilligi ko'paydi. Tadqiqot maydoniga xorijiy tillarni biladigan, chet el olimlari va izlanishlari bilan yaxshi tanish bo'lgan olimlar kirib kela boshladi. Ularning dissertatsion tadqiqotlarida nafaqat mustaqillikdan avvalgi, balki mustaqillikning 25-30 yilligi davridagi Xiva xonligi faoliyatiga doir izlanishlar ham tahlilga tortilgani bilan ahamiyatlidir.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Xiva xonligi vaqf instituti tarixini tadqiq etgan Q.Yakubov, vaqf yerlaridan foydalanish va soliq majburiyatlari, jumladan, xiroj to'lovi mulkdor yoki koranda zimmasida ekanligini aniqlash muhimligi, ammo mazkur masalaning huquqiy asosida ham qarama-qarshi fikrlar mavjudligi, soliq va majburiyatlarni qaysi taraf ma'suliyati ekanligini aniqlash mushkulligi, vaqfnomalarda odatda soliqlarni to'lash va majburiyatlarni bajarish singari jihatlar aks etmasligini bayon qiladi. Masalan, 1897-yil rasmiylashtirilgan vaqf hujjatida Muhammadaminxon madrasasining Shohobodda joylashgan 1,75 tanob vaqf yeri foydalanish huquqi asosida Solihabeka ixtiyoriga berilgan, biroq koranda zimmasiga ijara haqi bilan soliq va majburiyatlar ham yuklatilgan bo'lib, ularni to'lash va ado etish masalasidagi imkonsizlik vaqf yerini muassasa mutavallisiga qaytarish uchun asos bo'lgan.¹¹⁹ Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda, Xiva

¹¹⁷ Жумаев У. Россия империясининг Туркистондаги солиқ сиёсатининг шаклланиши: асосий босқичлари ва тараққиёти. Тарих фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 30 б.

¹¹⁸ Халийров А. Хива хонлигида пул вақфининг ... – Б.12-24

¹¹⁹ Якубов Қ. XIX асрнинг II ярми ва XX аср бошида Хива хонлигида ... – Б. 123-124

xonligi vaqf yerlaridan ham davlat solig'i olinganligi va u ijara shartnomasida alohida jihatlar belgilanmagan bo'lsa, ijarachi zimmasida bo'lgani anglashiladi.

So'nggi yillarda Xiva xonligi bilan bir qatorda, boshqa ikki davlat bo'yicha tadqiqot olib borgan I.Azizov¹²⁰ va Z.Xatamova¹²¹larning ishlari XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlari Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi soliq tizimi tarixiga bag'ishlanadi. I.Azizovning tadqiqot ishi nafaqat Buxoro amirligi soliq tizimi va u bilan bog'liq hujjatshunoslikka, balki islom soliq tizimiga doir qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Xiva xonligi soliq tizimiga oid xorijiy tadqiqotlarda xonlik iqtisodiy hayoti, mustamlakachilik davrida moliyaviy idoralarning tashkil topishi va faoliyati tarixi, soliq siyosati, manbashunosligini o'rganish masalalari o'rin egallaydi. Xorijiy tadqiqotlarda Xiva xonligi soliq tarixiga oid manbalar tahlili bilan shug'ullangan V.Vud¹²² va Yu.Bregel¹²³ lar tomonidan tarxon yorliqlari o'rganilgan va kataloglashtirilgan.

Ingliz tarixshunosligida O'rta Osiyo xonliklari tarixi, shu jumladan Xiva xonligi tarixi ham Rossiya protektorati ostidagi hudud sifatida o'rganilgan. Ingliz tarixchisi S.Beker¹²⁴ Rossiyaning Markaziy Osiyodagi protektoratlari Buxoro amirligi va Xiva xonligining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari iqtisodiyoti, ichki va tashqi savdo, Rossiya-Xiva savdo munosabatlarida paxtaning ahamiyati va undan olinadigan soliq masalasiga alohida to'xtaladi.

Yana bir ingliz tarixchisi M. Xoldvorst¹²⁵ O'rta Osiyo xonliklari qatorida Xiva xonligi siyosiy tarixi, yer egaligi va Rossiya imperiyasi bosqinidan avvalgi iqtisodiy tizimi to'g'risida ma'lumotlar keltiradi.

Indiana universiteti tadqiqotchisi J.B. Seitzning Xiva xonligining irrigatsiya tarixiga bag'ishlangan asarida qishloq xo'jaligi bilan bog'liq soliqlarga alohida urg'u beradi¹²⁶.

¹²⁰ Азизов И. XIX аср сўнги чораги – XX аср бошларида Бухоро амирлиги солиқ тизими Тарих фан. б. фалс. док. дисс. – Тошкент, 2019. – 174 б.

¹²¹ Хатамова З. Қўқон хонлигида солиқ тизими. Тарих фан. б. фалс. док. дисс. – Фарғона, 2022. – 198 б.

¹²² Wood W. A Collection of tarkhan yarliqs from the khanate of Khiva. – Bloomington, Indiana, 2005. – P. 70

¹²³ Bregel Yu. Documents from the Khanate Khiva (17th-19th centuries). – Bloomington IN, 2007. Pappers on Inner Asia. – No. 40. – P. 73

¹²⁴ Becker S. Russia's Protectorates in Central Asia. – London: Routledge, 2004.

¹²⁵ Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century: a brief history of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva.London: Central Asian Research Centre, 1959. – 81 p. Published online by Cambridge University Press, 2009.

¹²⁶ Seitz J.B. Irrigation and agriculture in the khanate of Khiva 1768-1914. – Indiana, 2013. – 77 p.

Xonlik soliq tizimini tadqiqiga o‘z hissasini qo‘shgan yana bir xorij tadqiqotchisi “Xiva xonlari arxivi” hujjatlari asosan, musulmon qonunchiligi va u bilan bog‘liq yuridik hujjatlarni tadqiq etgan italyan tarixchisi Paolo Sartori¹²⁷ ilmiy ishlarida Xiva xonligi tarixiga oid ishlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Xususan, arzdosht va qozi hujjatlari tahlil qililida murojaatchi arznoma yo‘lash uchun xonlik devonxonasiga 9 tanga miqdorida kotibona to‘lovini amalga oshirgan¹²⁸. Shuningdek, xonlikda jinoyat va jazo bilan bog‘liq to‘lovlar – yasovul puli, mirshab puli mavjud bo‘lganligi, 1918-yilga kelib esa, harbiy soliqlar (yarog‘ puli, o‘q puli) joriy etilganligi yoritib beradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan xorijiy tadqiqotlar va ularda berilgan ma’lumotlar Xiva xonligi tarixiga oid o‘zgacha qarashlarni ham hisobga olish, xorijda bu borada qanday fikr-mulohazalar hukmronlik qilayotgani, ularning qay darajada reallikka mos kelishini aniqlash uchun muhim hisoblanadi. Bu tadqiqotlarda berilgan ma’lumotlar asosan tahliliy va nazariy ahamiyatga ega.

Ingliz tilli ishlardan tashqari, rus tilida chop etilgan izlanishlarda ham Rossiya imperiyasi va Xiva xonligi o‘rtasidagi siyosiy, diplomatik, savdo-iqtisodiy aloqalar, uning o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari tahlil etilgan. Xususan, Rossiya imperiyasining chekka mintaqalar bilan siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlariga doir masalalar V.S.Dyakin¹²⁹, A.Kappeler¹³⁰, A.Yu.Baxturina¹³¹, Ye.Pravilova¹³²ning tadqiqot ishida tahlil qilingan.

M.Niyazmatov¹³³ tadqiqotida Rossiya bosqiniga qadar xonlik iqtisodiy xayoti, 1873-yilgi shartnomaning xonlik fiskal tizimiga ta’sirini

¹²⁷ Sartori P. Visions of Justice: Shari‘a and Cultural Change in Russian Central Asia. – Leiden, 2016. – Pp. 54-7.; Sartori P., Bregel Yu. Khanate of Khiva, in «Encyclopaedia Iranica», 16/5. – Leiden, 2020. – Pp. 530-8.; Sartori P., Abdurasulov U. Seeking Justice at the Court of the Khans of Khiva (19th-Early 20th Centuries). – Leiden, 2020. – Pp. 130-2, doc. no. 24.

¹²⁸ Sartori P, Abdurasulov U. Seeking Justice at the Court of the Khans of Khiva (19th-Early 20th Centuries). – Leiden, 2020. – Pp. 72

¹²⁹ Дякин В.С. Национальный вопрос во внутренней политике царизма // Вопросы истории, 1995. – Москва. – № 9. – С. 130-134

¹³⁰ Каппелер А. Россия – многонациональная империя. – М.: РАН ИНИОН, 1997. – 224 с.

¹³¹ Бахтурина А.Ю. Окраины российской империи: государственное управление и национальная политика в годы Первой мировой войны (1914-1917 гг.). – М.: РоссПЭН, 2004. – С. 392

¹³² Правилова Е. Финансы империи. Деньги и власть в политике России на национальных окраинах. 1801-1917. – М.: Новое издательство, 2006. – 456 с.

¹³³ Ниязатов М. Поиск консенсуса. Российско-хивинские геополитические отношения в XVI – начале XX в. – СПб., 2010. – 496 с.

yoritib berilgan bo'lsa, A.A.Andreyev¹³⁴ tomonidan Rossiya – Xiva munosabatlari tarixi tahlil jarayonida savdo va boj masalasini ham qisman yoritib beriladi. R.Pochekaev¹³⁵ ning ilmiy izlanishlarida Xiva xonligining Rossiya bilan savdo aloqalari va bojxona tizimi tadqiqot ob'ekti sifatida olingan. Asar ancha keng va e'tiborga molik masalalarni ko'tarib chiqqan. Yana bir rus tadqiqotchisi A.V.Kochnev¹³⁶ esa, Rossiya-Xiva iqtisodiy munosabatlarini o'rganish jarayonida rus savdogarlari soliq imtiyozlari va qisman xonlikdagi mavjud to'lovlarga to'xtalib o'tadi. Bu ma'lumotlar mahalliy manbalardagi dalillar bilan qiyosiy o'rganishda foydali hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqot ishlarining tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, sovet davrida Xiva xonligiga oid yangi arxiv hujjatlarini aniqlanishi bu boradagi tadqiqotlarga turtki berib, arxiv manbalariga asoslangan yangi asarlarni yozilishiga sabab bo'ldi. Bu davrda yozilgan ishlarda mafkuraviy ta'sir sezilib tursa-da, sohani rivoji uchun muhim qadam hisoblandi. Mustaqillik davri boshlarida xonliklarga oid tadqiqotlar umuman qayta ko'rib chiqish orqali qayta yozila boshlagan bo'lsa, uning ikkinchi davrida umumiylikdan yiroqlashib, xususiy, kichikroq mavzular bo'yicha tadqiqotlar ortdi. So'nggi bosqichda zamonaviy metodlarni qo'llagan, ham arxiv, ham manba, ham xorijiy izlanishlarni uyg'unligida yozilgan ishlar nashr etilishi, sifat bosqichidan dalolat berdi. Ularning hammasida ham soliq tizimiga oid ma'lumotlar alohida berilmasa-da, umumiy mulohazalar keltirilgan.

Xiva xonlari arxiv hujjatlari ham xonlik soliq tizimini tadqiq etishda aniq raqamlar, soliq amaliyoti va u bilan bog'liq vaziyatlar to'g'risida keng ma'lumot beradi. Soliq yig'ish jarayoni bilan bog'liq *avorija daftarlari, nishona, inoyatnoma, arzdosht, patta* singari hujjatlar xonlik soliq siyosatini mohiyatini ochishga imkon yaratadi.

¹³⁴ Андреев А.А. Российско-хивинские отношения в конце XVII – начале в XVIII // Петербургский исторический журнал, 2015. – №2. – С. 16-32

¹³⁵ Почекаев Р.В. Включение бухарского эмирата и Хивинского ханства в таможенную черту Российской империи (1895 г.) // Право. Журнал Высшей школы экономики, 2016. – № 3. – С. 172–184.

¹³⁶ Кочнев А. Проблемы торгово-экономических взаимоотношений Российской империи в начале XVIII в. со странами Средней Азии // Вестник Томского государственного университета, 2016. – № 408. – С. 78–84.; Ўша муаллиф. Политика России в отношении Хивинского ханства в начале XVIII – второй половине XIX в. дис. на соис. уч.степ. кан. ис.наук. – Екатеринбург, 2018. – 215 с.

Xiva xonligining soliq siyosatini o'rganishda mahalliy tarixnavislar tomonidan yaratilgan asarlar muhim manbalardan bo'lib, ular o'zida xonlikda mavjud soliq turlari, ularni yig'ib olish usullari, soliq yig'ib olish uchun qaysi shaharlarga kimlar tayin etilgani, soliq masalasida ko'tarilgan xalq noroziliklari, ommaviy qo'zg'olonlarning bostirilishi, bo'ysunmas va soliq to'lashdan bosh tortganlar va xonning askar tortib borib, soliq undirishi kabi ma'lumotlarni o'zida jamlaganligi bilan ahamiyatlidir.

XIX – XX asr boshlarida yaratilgan tadqiqotlarda Xiva xonligi siyosiy boshqaruv va davlatchilik tarixi, o'lka xalqlari iqtisodiy-ijtimoiy hayoti va etnografiyasiga doir masalalarni tahlil etish jarayonida xonlik soliq tizimi tarixiga oid ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Bu davrda yaratilgan ishlarning dastlabkilari ilmiylikdan ko'ra, shaxsiy xarakter kasb etib, xonlik soliq tizimi haqidagi ma'lumotlar sub'ektiv yoritilgan.

Sovet davrida bajarilgan tadqiqotlarda Xiva xonligidagi yer egaligi, agrar munosabatlar, ijtimoiy hayot masalalari o'rganilib, bu davr tadqiqotlari muammoga oid boy faktologik materialni o'zida jamlaganligi bilan bugungi kungacha o'z tarixiy qiymatini yo'qotmagan bo'lsa-da, davr uchun xos bo'lgan mafkuraviy yondashuv, tarixiy voqealar sun'iy ravishda "o'rnatilgan qolip"ga moslashtirilganligi bilan harakterlanadi.

Mustaqillik davri tadqiqotlarida Xiva xonligi soliq tarixi alohida mavzu sifatida maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, siyosiy jarayonlar tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, savdo-hunarmandchilik, tashqi aloqalar, yer egaligi, vaqf institutiga oid ishlarda qisman Qo'ng'irotlar davri soliq tizimiga oid ma'lumotlar birlamchi manbalar asosida ilmiy muomalaga kiritildi.

II BOB. SOLIQ SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI VA UNING MANBALARDA AKS ETISHI

2.1 Yerdan olinadigan daromad solig'i

XIX – XX asr boshlarida Xiva xonligi soliq tizimi islom qonunchiligi asosida shakllantirilgan bo'lib, asrlar davomida shariat tayin qilgan tartiblar saqlanib kelgan. Shariatda belgilangan tartiblarga muvofiq, yerlar ikki turga: *ushr yerlari* va *xaroj yerlariga* bo'lingan. Yer solig'ining bunday taqsimlanishi yer egaligi va undan foydalanish usullari bilan bog'liq bo'lgan.

Movarounnahr hududining ushriy yoki xarojiy yerlar tarkibiga kirishi haqida turlicha qarashlar mavjud bo'lgan. Egasiz yerlarni hukmdor ma'lum kishilarga bo'lib bergan bo'lsa, o'zlashtirilmagan yerlar musulmonlar tomonidan o'zlashtirilgan holda ushriy yer hisoblangan.¹³⁷ Shariat tayin qilgan tartibga ko'ra, ushbu yerdan 5 vasaq¹³⁸ dan kam hosil olinsa ushr to'lanmagan¹³⁹.

Xaroj so'zi arab tilida soliq ma'nosini anglatib, dastlab musulmonlarning urush yoki sulh tuzib egallagan, lekin taqsimlanmay, o'z ahliga qoldirgan yerlari hisoblangan. Bunday yerlarga Iroq, Eron, Misr, Armaniston, Xuroson, Movarounnahr yerlari kirgan.

Shariyatga ko'ra xarojning ikki turi haqida ma'lumotlar mavjud:

– *Muqosama xaroj*. Unda chiqqan mahsulotning choragi yoki shunga o'hshash ma'lum qismi tayin qilinadi. Uning eng kam miqdorining chegarasi bo'lmay, eng ko'pi mahsulotning yarim miqdoriga qadar belgilangan.

– *Muvazzaf xaroj* – “vazifa qilib berish”. Ma'lum yer maydoniga, ma'lum miqdorda xaroj solinadi, ammo uning mahsuloti miqdoriga qaralmaydi¹⁴⁰ va faqat avvaldan tayin qilingan soliq olinadi.

Islom soliq tizimi bo'yicha asosiy manba sanalgan “Kitob al xaroj” asarida xarojning ikki turi to'g'risida bahs yuritiladi. Abu Yusuf ma'lumotiga ko'ra: “... Xiroj to'laydiganlar borasida ulardan oziq-ovqat

¹³⁷ Имом Абу Юсуф Яъқуб ибн Иброҳим Куфий. Китоб ал харж. – Тошкент, 2021. – Б. 81

¹³⁸ Vasaq – og'irlik o'lchov birligi, 195 kg. ga teng.

¹³⁹ Бурхон ад дин Маргинани. Аль Хидайа. Бидайа аль Мубтади. – Алматы, 2013. – С. 233

¹⁴⁰ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Кифоя. – II жуз. – Тошкент, 2020. – Б. 95

mahsulotlari bilan olinadimi yoki pul bilan, qat'iy belgilangan tartib bilan yerning maydoni yoki hosilning sifati asosida olinishi kerak. Soliq qanday shaklda olinmasin, kuchlilar kuchsizlardan ustun kelib, uni o'zlashtirib, xirojni imkoni yo'qlarga yuklab qo'yadilar"¹⁴¹, deb yozilgan. Shariatda soliq to'lovchiga og'ir bo'lmasligi va davlat g'aznasiga zarar keltirmaslikning yechimi soliqning ma'lum foizlarda olinishi, deb hisoblangan.

Xiva xonligi soliq tizimi ham musulmon qonunchiligi asosida shakllantirilgan bo'lib, asrlar davomida shariat tayin qilgan tartiblar saqlanib keldi. Xonlikda yerlarga solinadigan soliq u yerning qanday turga mansubligiga bog'liq bo'lib, yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan:

- davlatga qarashli yerlar (*mamlaka-yi podshohi*)
- xususiy shaxslarga qarashli yerlar (*mulki xolis*)
- diniy muassasalarga qarashli yerlar (*vaqf yerlari*).

Ba'zi mualliflar Xiva xonligida yer egaligining yuqorida keltirilgan shakllaridan tashqari *otliq shakli* ham bo'lganligi, ularning 4 turi mavjudligi to'g'risida dalillar keltirsalar, ayrimlari xususiy mulkchilikning ikki ko'rinishini alohida guruhlar sifatida talqin qilib, 5 turini ko'rsatadilar¹⁴².

Mamlakai podshohi yerlari bevosita davlatga, xonga tegishli bo'lib, doimiy sug'oriladigan ekinbop yerlardan tashqari, tashlandiq yerlar, qumlik, cho'l, adirlar va yaylovlar, to'qayzorlarni o'z ichiga olgan. Davlat yerlari xon tomonidan mulkdorlarga va ijarachi dehqonlarga, bevatan (yersizlar)larga foydalanish uchun bo'lib berilgan.¹⁴³

Mamlakai podshohi sug'oriladigan yerlarining umumiy maydoni 85 ming tanob, sug'orilmaydigan yerlari 160-170 ming tanob atrofida bo'lgan¹⁴⁴. Girshfeld xon va uning qarindoshlari 34400 desyatina, ya'ni 86 ming tanob yerga egalik kilishini ma'lum qiladi¹⁴⁵. Bu esa turli

¹⁴¹ Имом Абу Юсуф Яъқуб ибн Иброҳим Куфий. Китоб ал хароҷ. – Тошкент, 2021. – Б. 78

¹⁴² Сабурова С. XIX аср ва XX аср бошида Хива хонлигининг давлат тизими... – Б. 16

¹⁴³ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент, 2012. – Б. 401

¹⁴⁴ Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эғалиги ва давлат тузилиши... – Б. 146-147. Ushbu ma'lumotni aniqlashda podshohiy yerlari ijarachilarining qozu majburiyatini o'tashga yuborilgan odamlar sonidan kelib chiqib hisoblangan.

¹⁴⁵ Гиршфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства... – Ч.2. – С. 41

manbalar va adabiyotlarda uchraydigan ma'lumotlar deyarli bir xil miqdorni ma'lum qilganidan dalolat beradi. Ahyo¹⁴⁶ yerlari qatorida katta miqdordagi adro¹⁴⁷ yerlari podsholiq yerlarining aniq miqdorini aniqlash imkonini bermaydi.

Davlat yerlaridan mahsulot ko'rinishida *ushr* solig'i undirilgan. Shar'iy qonunlarga ko'ra, u hosilning 1/10 miqdorida undirilgan. Tarixiy manbalarda ushr – "*dahi yak*" atamasi bilan ham ishlatilgan. Arxiv hujjatlarida kam holatda uchragan ushbu soliqning nomi fors tilidan tarjima qilinganda, "o'ndan biri" degan ma'noni anglatadi va bu mazmunan ushrga yaqin soliq atamasi sifatida barobar qo'llaniladi. Aslida esa, *dahiyak* ushrning aynan o'zi emas, ushr soliqni, dahyak esa soliqning o'lchami – miqdorini bildiradi. Misol uchun, XIX asr oxirida Qo'qon xonligida *dahiyak* – daxidu, panjyak singari ko'rinishlarda mavjud bo'lgan¹⁴⁸.

O.Shkapskiy: "... davlat yerlari merosiy ijara asosida berilardi. Undan mahsulot ko'rinishida to'lanadigan dahyak solig'i chig'ir yordamida sug'oriladigan yerlarda uning miqdori 1/20 ni tashkil etgan"¹⁴⁹ ligini qayd etadi. Uning keltirgan ma'lumotlari asosli bo'lib, shar'iy tartiblarga mos keladi.

Aksariyat sovet davri adabiyotlarida mamlakai podshohi yerlaridan hech qanday soliq olinmaganligi to'g'risida asossiz ma'lumotlar uchraydi. O'zMA "Xiva xonlari devonxona hujjatlari" davlat yerlaridan olingan ushr miqdori keltirilgan bir nechta hujjatlar¹⁵⁰ saqlanib qolgan. Xususan, 1847 yilga tegishli ushr solig'i qaydnomasida xonning hovli¹⁵¹laridan olingan ushr va uning sarflanishiga oid ma'lumotlar jamlangan. Undagi ma'lumotlarga ko'ra: "1264 yil Rāfanīq ḥavlī būghdāyī 2100 bāṭmān 'ālīndī. Qārī Vaysga 60 bāṭmān 'ūshrdīn būghdāy berīlgān. Gūlbānbāghdīn 609 bāṭmān, Naymandagī ḥavlīdan 800 bāṭmān būghdāy, 4200 bāṭmān shālī, 500 bāṭmān jūkārī, 50 bāṭmān kūndjūt, 20 bāṭmān

¹⁴⁶ Ah'yo – sug'oriladigan hosildor yerlar

¹⁴⁷ Adro – sug'orilmaydigan cho'l, dasht hududlaridagi yerlar

¹⁴⁸ Хатамова З. Қўқон хонлигида солиқ тизими... – Б. 198

¹⁴⁹ Шкапский О. Аму-Дарьинские очерки... – С. 133

¹⁵⁰ O'zR MA I.125-fond, 2-ro'yxat, 401-404-407-410-411-412-413-414- yig'ma jildlar

¹⁵¹ Xonning shaxsiy yer-mulklari. Zamini xossa

paxtā, 20 bātmān māsh, jamī 5600 bātmān”¹⁵². Ushbu mahsulotlar miqdoridan ko‘rinib turibdiki, barcha mulklar ushrga tortilgan va u odatda din ulamolari, qullar va saroy xizmatchilarga zaifa sifatida bo‘lib berilgan¹⁵³. Shuningdek, Yangi Ariqdagi va Sho‘raxondagi hovlilardan olingan ushr ham shu tartibda qayde etilgan va dug‘malar, xizmatchilar, sardorlarga ushrdan tegishli maosh ajratilgan.

“1263 (1847) yil qūy yilī Rajab āyīnīng 15 lānjīsīdan bāshlab¹⁵⁴” sarlavhali kichik qaydnoma daftarida xonning shaxsiy yer-mulklaridan xonlik omboriga yig‘ilgan ushr miqdori qayd etilgan.

Xudud	Mahsulot - Bug‘doy	Mahsulot - Sholi
Rafaniq	3547 botmon	–
Gulbanbog‘	877 botmon	788 botmon
Oqmachit	480 botmon	444 botmon

№1 - jadval. Ushr qayd daftari

Ushbu mahsulotlar Shir Muxammad mushrif tomonidan din ulamolari, diniy muassasalar, turkman sardorlari, xarbiy xizmatchilar, saroy xizmatchilari, qullarga bo‘lib berilgan¹⁵⁵.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan xon hovlilaridan tashqari mulk yerlaridan ham ushr olinganligi uchratish mumkin. Ushr solig‘i devonxona xodimi-mushrif tomonidan yig‘ilgan. Xususan, 1264 (1847) yil sha‘bon oyidan boshlab Oqqumda Xudaybergan mushrif, Shayx Abbos Valida Ota Niyoz maxram va Ollohbergan mushrif, Sho‘raxonda Muhammad Karimbek va Mehdiqul mushriflar¹⁵⁶ tomonidan ushr yig‘ilgan va qayta taqsimlangan.

Xiva xonligida mushriflar¹⁵⁷ tomonidan ushr kirim-chiqim hisoblarini qayd etish uchun “g‘alla daftari” nomli hujjat yuritilgan. Hujjat soliq jarayoni yakunlangandan so‘ng, ushr hisobiga yig‘ilgan mablag‘lar bilan birga xon devonxonasiga yuborilgan. Masalan, “1272 (1855) tāvūshqān yilī ghalla daftari” da jumodil avval oyining 21 sanasi Sho‘raxondan yig‘ilgan ushr 6400 botmon bug‘doy, jo‘hori, mosh,

¹⁵² O‘zR MA I.125-fond, 2-ro‘yxat, 401-yig‘ma jild, 1-5 varaqlar

¹⁵³ Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в исследование и описание документов с историческим введением – Ленинград, 1940.– С.99

¹⁵⁴ Guruch

¹⁵⁵ O‘zR MA I.125-fond, 2-ro‘yxat, 400-yig‘ma jild, 13-varaq

¹⁵⁶ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 387-yig‘ma jild, 8-varaq

¹⁵⁷ Xiva xonligida ushr solig‘ini yig‘ish uchun mas‘ul kishi

kunjutni tashkil qiladi¹⁵⁸. Mazkur arxiv hujjati podsholiq yerlari ham soliqqa tortilganligini to‘g‘risidagi farazlarni dalillaydi.

Xonlik devonxonasida yersiz maqomi bilan ro‘yxatga olingan fuqarolar ijara asosida davlat yerlarida dehqonchilik qilishgan. Ular davlat xazinasiga umumiy hosildan *dahyak* solig‘ini to‘lagan. Istagan fuqaro shu shart asosida ijarachi bo‘lishi mumkin bo‘lgan. Harbiy xizmatda bo‘lmagan va otliq yeriga ega bo‘lmagan turkmanlardan ham *dahyak* solig‘i olingan.

Xon yerlari va mulk yerlarida ijarada ishlaganlardan mushriflarning ushr olganligi haqida ma’lumot uchraydi. Misol uchun, 1849 yilda Xonabodda mulk yerlaridan 5000 botmon g‘alla olinganligi qaydlari uchraydi.”¹⁵⁹. Bu esa mulk yerlaridan ham ushr solig‘i yig‘ilganidan dalolat beradi.

Mulk yerlaridan soliqlar hisobiga yig‘ilgan dahyakning yig‘ilishiga oid “Mulk yerlarining g‘allasi” ¹⁶⁰ sarlavhali yana bir hujjatda xonlik hududi masjid qavmlari nomi, xosilning miqdori va undan olinishi kerak bo‘lgan ushr miqdori, ushrning qanday maqsadda sarflangani qayd etilgan.

Masjidi Xudoyor noib	195 kulta
Masjidi Qutlimurod Mullo Sadir	400 botmon bug‘doy
Masjidi Xakim otaliq	30 kulta
Masjidi Masjidiuxammad karim mirob	495 kulta
Masjidi To‘ra otaliq	422 botmon bug‘doy

№2-jadval. *Fuqarolarga berilgan ushr*

Ba’zi hollarda harbiy xizmatchilarga ushr hisobiga kelib tushgan bug‘doy bozor narxida hisoblanib, *qo‘nuq puli* oylik maosh sifatida berilgan¹⁶¹. Mushriflarning hisobot hujjatlarida hovlilardan yig‘ilgan mahsulotning sotilganligi, xonlik g‘aznasiga topshirilgani va ushrning pul ko‘rinishida berilgani¹⁶² to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi.

¹⁵⁸ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 411-yig‘ma jild, 1-varaq

¹⁵⁹ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 396-yig‘ma jild, 3-varaq

¹⁶⁰ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 414-yig‘ma jild, 62-varaq

¹⁶¹ XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. – II том. М.Й Йўлдошев таҳрири остида. – Тошкент, 1960. – Б. 82

¹⁶² O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 397-yig‘ma jild, 19-varaq

Soliqlardan ozod qilinganlik to'g'risidagi nishonaga ega yorliqdorlar ham o'z yerlari uchun to'lanadigan solg'utdan ozod qilinsada, islomning arkonlaridan biri bo'lgan ushrni to'lab borganlar. Shu sababli, arxiv hujjatlari tahliliga asosan, ushr – islom dinida buyurilgan amallardan biri hisoblangani va uni ado etish majburiy bo'lgani ayon bo'ladi. Xon, amaldorlar, yorliqdorlar, diniy ulamolar ham bundan mustasno bo'lmagan. Soliqdan ozod bo'lganlik yorlig'i mavjud taqdirda ham ushr to'lash zarur hisoblangan.

Dehqonlar ma'lum shartlar asosida podsholiq yerlarini merosiy ijaraga olishgani to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Ular xonlik g'aznasiga ijara puli to'lash bilan bir qatorda, davlat tomonidan belgilangan soliqlar va mehnat majburiyatlarini bajarishgan¹⁶³. Sanoq daftarlarida odatda bunday yerlarda ishlovchi shaxslarga qo'shimcha izoh sifatida qachondan va kimning yerida ijarachi ekanligi qayd etib borilgan.

Podsholik yerlaridan foydalanishning tartibi va shartlari to'g'risida devonxona mirzaboshisi tomonidan berilgan nishona hujjatida ayrim ma'lumotlar keltiriladi. Unga ko'ra, xon hazratlari va amaldorlarning yorliqli mulklari, otliq yerlarni ijaraga olib foydalanish mumkin. Buning uchun har yili davlatga solg'ut, xon yerlaridan foydalanganlik uchun mahsulotning beshdan bir miqdordagi soliqni, otliq yerlari uchun 1 otliq (30 tanob) uchun 10.5 tillo muanat to'lab turitishi tartibi mavjud bo'lgan. Shu bilan birga, hujjatda "...tāzādīn yir tūtadūrghān kīshī ātlīq ḥiṣābida har 30 ṭanābgha ūn yārīm ṭillā sālgūt bīradūr. 1324 (1907) yil māhi Zī al-ḥijja āyīnīng 13 sīdā bītīldi"¹⁶⁴, deb axborot beriladi. Mazkur hujjat matnidan ma'lum bo'ladiki, fuqarolar xonlikning istalgan turdagi yerini ijaraga olishi mumkin bo'lgan va ijara uchun solg'ut to'lagan. Ijaraga olingan yerning tarxon yorlig'iga egaligi yoki imtiyozi mavjudligi ijarachini soliqdan ozod etmagan, biroq soliqning nisbatan kam foizli ekanligi bilan moddiy jihatdan ustunlik kasb etgan. Shu sababli ijarachilar ham imkon qadar imtiyozli yerlardan yer olishga intilgan.

Xonlikda yangi yerlarni o'zlashtirib borilishi uchun turli yengilliklar joriy qilingan. Jumladan, davlatga tegishli, o'zlashtirilmagan yerlarga

¹⁶³ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 390-yig'ma jild, 1-13-varaqlar

¹⁶⁴ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 262-yig'ma jild, 31-varaq

ishlov berib, ziroatchilik qilish niyatida bo'lgan dehqonlar yoki bevatanlar¹⁶⁵ rag'batlantirilgan. Ular dastlabki 3 yil uchun solg'utdan ozod qilingan. Keyingi yillar mobaynida atoyi mulkdorlarga qaraganda kamroq solg'ut to'lagan. Bu boradagi ma'lumotlar arxiv hujjatlarida ham saqlangan.

Bu tartib to'g'risida Hasanxon Madaminov, o'zbeklarga yangi yer ochib, vatanli bo'lganlari ham 3 toifaga ajratilgan. Birinchisi 15 tanob yerli dehqon 34 tanga, 10 tanob yeriga egalik qiluvchi va uchinchi 5 tanob yerli mulkdor¹⁶⁶. Bu holat yersiz dehqonlarni yangi yerga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilgan.

Podsholik yerlari xonlikning janubida Ko'hna Urganch, Qilich Niyozbiy atrofidagi sug'oriladigan yerlar, Xazorasp bekligidagi unumdor yerlar va Xiva atrofi yerlaridan iborat bo'lgan. Xonlik devonxonasida podsholiq yerlaridan olinadigan soliq – ushr g'alla daftarida qayd etib borilgan va shu daftarning o'zida hovlilardan olingan dahyakning taqsimlanishiga oid ma'lumotlar ham jamlangan. Ushbu yerlar xonlikdagi eng unumdor yerlardan ekanligi hisobga olinib, undan samarali foydalanmaganlardan ham to'lov undirilgan. Bu holat kelajakda unumdor yerni bo'sh qoldirmaslik, undan samarali foydalanishga turtki bo'lgan.

Chunonchi, podsholiq yerlari merosiylar ijarachisi yerga ishlov bermasligi, ekin ekmasligi uni soliqlardan ozod qilinishi uchun asos bo'lmagan. Agar podsholiq yerlaridan 15 tanobiga egalik qilsa va mazkur yil uchun ekin maydonini ekinsiz bo'sh qoldirsa, unga 18 tanga miqdorida solg'ut to'lash majburiyati yuklatilgan. Devonxona ko'rsatmalarida mirzalarga “*...faqat jāylī būlīb ūltūrghānlardīn ham 18 ʔangadīn sālgūt ālūnsūn*” vazifasi yuklatilgan¹⁶⁷.

Xonlik devonxona hujjatlarini o'rgangan holda ham dahyakning yillik aniq miqdorini aniqlash mushkul. Buning bir qancha sabablari bor:

Birinchidan, hududlar bo'yicha yig'ilgan soliq qaydnomalari saqlanmagan;

Ikkinchidan, g'alla daftarlarida yig'ilgan mahsulot xonlik xizmatchilari va boshqalarga taqsim qilib berilgan;

¹⁶⁵ Xiva xonligida bevatan atamasi 2 xil: 1. ersiz dehqonlar; 2. ijarachi ma'nosida qo'llangan.

¹⁶⁶ Madaminov H. Xorazm tarixiga oid materiallar. O'z MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 609-yig'ma jild, 18-varaq

¹⁶⁷ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 609- yig'ma jild, 18 (orqa)-varaq

Uchinchidan, saroy ehtiyojidan ortiqcha mahsulotlar sotuvga qo'yilgan va ayrim hollarda sotilgan mahsulot pullari xazinaga yetib bormasdan qaysidir amaldorga maosh yoki harbiy boshliqqa qo'nuq uchun berib yuborilgan.

Shunday bo'lsa-da, XX asr boshlariga oid statistik to'plamda xonlik xazinasiga bir yilda dahyakdan taxminan 35 ming rubl mablag' yig'ilgan to'g'risida axborot uchraydi¹⁶⁸.

Yuqorida davlat yoki xonga tegishli yerlar, ularning ijarasi, ulardan olingan soliqlar turi va miqdori masalasida bildirilgan ma'ulmotlar boshqa yer turlaridan farq qiladi. Chunki, xonlikdagi har bir yer yegaligi turli miqdordagi va turdagi soliqqa tortilgan. Quyida xonlikda keng tarqalgan xususiy mulk va uni soliqqa tortishga doir mulohazalar tahlil qilindi.

Xiva xonligida xususiy yer mulkdorlari o'z mulklarini sotish, meros qoldirishi, ehson qilish yoki vaqf mulkiga had'ya qilish huquqiga ega bo'lgan. Shuningdek, bu turdagi yerlar oldi – sotdi ob'ektiga aylanishi yoki ijaraga topshirilishi mumkin bo'lgan. Xonlikda xususiy yerlarning ham o'z navbatida ikki turi mavjud bo'lgan.

Xususiy yerlar *mulk* yoki *mulki xolis* nomlari bilan yuritilgan bo'lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm o'lkasiga kelgan rus tadqiqotchilari "... soliqqa tortilgan xususiy yerlar *atoyi mulk* va *yorliqli mulk* kabi shakllari bo'lganligini qayd etgan"¹⁶⁹.

Ularning dastlabkisi *atoyi mulk*¹⁷⁰ –soliqqa tortiladigan, yer egasiga meros tariqasida o'tadigan xususiy yer turidir. Xiva xonligi yer egaligi masalalarini tadqiq etgan U.Abdurasulov fikricha, atoyi mulk yerlari Qo'ng'irotlar sulolasi hokimiyat tepasiga kelguniga qadar ham mulkdorning shaxsiy yeri hisoblangan. Tadqiqotchi, bunday yerlar Buxoro amirligidagi mavjud bo'lgan "mulki xaroji" nomi bilan atalgan xususiy yerlar bilan o'xshash bo'lganligini ta'kidlaydi¹⁷¹.

¹⁶⁸ Лобачевский В.А. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район.— Ташкент, 1912. — С. 19

¹⁶⁹ Гиришфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства... — Ч.2. — С. 33; Шкапский О.А. Аму-Дарьинские очерки... — С. 93

¹⁷⁰ "Ота" so'zidan kelib chiqqan.

¹⁷¹ Абдурасулов У.А. Земельные отношения в Хивинском ханстве ... — С. 182

Atoyi mulk yerlaridan daromad solig'i undirishda tabaqalashtirilgan tizim amal qilgan. Ya'ni, bunday yer egalari soliq to'lashda qaysi toifaga mansubligi e'tiborga olingan. Bunga ko'ra:

- 10 tanobdan ortiq yerga egalik qiluvchi mulkdorlar *a'lo* – deb ataluvchi toifani tashkil etgan hamda yiliga 3 tillo (54 tanga) to'lagan;
- 5–10 tanob yerga egalik qiluvchi mulkdorlar *avsot* deb ataluvchi toifani tashkil etgan hamda yiliga 2 tillo (36 tanga) to'lagan;
- 5 tanobgacha yeri bo'lgan mulkdorlar *adno* – deb nomlanib, ular 1 tillo (18 tanga) miqdorda soliq to'laganlar.

Mazkur toifalardan olingan soliq miqdori borasida bir qancha fikrlar mavjud. V.A. Girshfeld va A.S. Galkin keltirgan ma'lumotlarga ko'ra “... xonlikda xususiy mulkchilikning atoyi mulk egalari uch guruhga bo'linib, *a'lo* yerlardan 6 tillo yoki 10 rubl 80 kop., *avsot* yerdan 4 tillo yoki 7 rubl 20 kop., *adno* yerdan 2 tillo yoki 3 rubl 60 kop. miqdorda solg'ut olingan.¹⁷² Ushbu miqdor O.Shkapskiy va arxiv hujjatlarida keltirilgan miqdorlardan biroz ortiq. Bu borada O.Shkapskiy ma'lumotlari haqiqatga yaqindir.

Xususan, O.Shkapskiy davlat soliq solish tartibi va soliq to'lovchilar, foydalanilayotgan yer miqdoridan qat'iy nazar, “soliq to'lashga qodirligi va davlatmandligiga” qarab uch toifaga taqsimlanishi, jumladan: amaldor va shu kabilar soliq to'lashdan maxsus ozod qilingan bo'lmasa va yeri 5 tanobdan ortiq bo'lmasa, u holda 1 tillodan; 5 tanobdan 10 tanobgacha yeri bo'lgan mulkdor 2 tillodan; 10 tanobdan ortiq yeri bo'lganlar 3 tillodan soliq to'lab kelganlar. Faqat 11 tanobgacha yeri bulgan mulkdorlargaгина soliq solinar edi, chunki 11 tanobdan ortiq, ya'ni 12 tanob, 50 – 60 ming tanob yeri bo'lgan yer egalariга “10 tanobdan ortiq yeri bo'lgan” kishilarga solinadigan soliq miqdoridagina soliq solinar edi¹⁷³. Muallif fikricha, toifalarga qarab soliq to'lash faqat boy dehqonlar foydasiga xizmat qilgan. Chunki ular mavjud yerlariga nisbatan ancha kam soliq to'laganlar.

Atoyi mulkdorlar va ulardan olingan daromad solig'iga doir O'z MA fondi hujjatlarida kuyidagi ma'lumot uchraydi: “*Sālgūt chīqghāndā*

¹⁷² Гиршфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства... – Ч.2. – С. 34

¹⁷³ Шкапский О. Аму-Дарьинские очерки... – С. 133

*zārharīd mūlk yirlī kīshīlardīn a ‘lā āvsāt ‘adnā qīlīb yirī kūp kīshīlardīn ūch pūhtā ṭillā azrāk yirlī kīshīdīn īkī pūhtā ṭillā andīn hām yirī āz kīshīdīn bir pūhtā ṭillā ālūrlar har yīl bir qāzūchī ālīb, yāf qāzdūrūrīlar*¹⁷⁴. Bu esa yuqoridagi O.Shkapskiy fikrini tasdiqlaydi. Soliqlardan tashqari atoyi yer mulkdorlari turli mehnat majburiyatlarini ham bajarishi talab etilgan. Misol uchun, har bir suv¹⁷⁵dan bir kishi 12 kunga obhur qozu¹⁷⁶ga olingani haqida ma’umotlar uchraydi.

Atoyi mulkning xonlik sug‘oriladigan yerlaridagi ulushi to‘g‘risida aniq ma’lumot mavjud emas. P.Ivanov atoyi yerlar Xiva xonligida 7,8 ming tanob atrofida bo‘lganligi haqida mulohaza beradi¹⁷⁷. Bu fikrga o‘z vaqtida S.Sodiqov qarshi chiqib, atoi mulk yerlari xonlik a’xyo yerlarining 12,7 foizini, ya’ni 192,4 ming tanobni tashkil etganligini qayd etadi¹⁷⁸. Manbalarda uning aniq miqdori bo‘yicha yakdil ma’lumotning uchramasligi, haqiqatda atoi mulklar hajmi va umumiy yerdagi ulushini aniq aytishga imkon bermaydi. Tadqiqotchilar tomonidan berilgan raqamlar o‘rtasidagi farq esa juda katta.

Rasmiy hujjatlar va statistikada bu yer egaligi turidan xonlik g‘aznasiga 78400 tillo atrofida solg‘ut qabul qilinganligi bayon qilinadi¹⁷⁹. Atoyi mulk yerlari asosan xonlikning Pitnak, Kat, Shovot, Qo‘shko‘pir, Qo‘ng‘irot hududlaridagi yerlarning asosiy qismini tashkil etardi¹⁸⁰.

Atoyi mulkdorlar avorija daftarlariga mahalliy ma’murlardan olingan ma’lumotga asosan, ro‘yxat asosida kiritilgan. Sanoq daftarlarida ularni rasmiylashtirish quyidagicha amalga oshirilgan:

1. Har bir hudud uchun alohida daftar yuritilgan;
2. Masjid qavmlari va ulardagi soliq to‘lovchi mulkdorlar o‘zlari mansub toifalarga ajratilib, yozib borilgan;
3. So‘ngida masjid qavmdan yig‘ilgan pul va qozuga yuboriladiganlar soni qayd etilgan;

¹⁷⁴ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 458-yig‘ma jild, 1-varaq

¹⁷⁵ Xonlikdagi jabdi tizimiga ko‘ra 1 su 10 tanobga teng.

¹⁷⁶ Xiva xonligida majburiy mehnat ko‘rinishi

¹⁷⁷ Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в исследование и описание ... – С. 17

¹⁷⁸ Содиқов А.С. Экономические последствия установление протектората ... – С. 229

¹⁷⁹ Гиршфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства... – Ч.2. – С. 340

¹⁸⁰ Шерипов У.А. Хива хонлиги тарихи (1511-1920)... – Б. 117-118

4. Har bir masjid qavmda soliq yig‘ish jarayoni bir necha kun davom etgan. Ba‘zan arxiv manbalaridagi yozuvlarning bir necha bor o‘chirilib, qayta yozilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Bu holat kesirlarning keyinroq olinganligiga ishora qiladi.

Hudud	A‘lo xo‘jaliklar	Avsot xo‘jaliklar	Adno xo‘jaliklar	Jami olingan solg‘ut
Masjidi Sayof	32 ta (22 tasi tamg‘ali)	11 ta (1 navkar)	27 ta	77 puxta tillo ¹⁸¹
Masjidi Niyoz boqi	—	3 ta	3 ta	9 puxta tillo ¹⁸²
Masjidi Muhammad Rahimxon	8 ta	7 ta	5 adno (1 tasi imom)	7 su, 42 tillo
Masjidi Fulodboy	13 ta (6 tasi tamg‘ali)	6 ta (1 imom)	3 ta	24 tillo ¹⁸³ .

№3-jadval. Tobe-yi Fitnak mehtar sanog‘i

Fitnak sanog‘i qo‘shbegi daftarida ham solg‘ut an‘naviy tartibda toifalarga bo‘lingan holda qayd etilgan. Ammo, mulkdorning qancha yerga egalik qilayotganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar uchramaydi. Daftar so‘nggida Fitnakdan mehtar va qo‘shbegining jami yig‘gan solig‘i 7000 puxta tilloga teng. Rasmiylashtirishning bu tartibi xonlikning barcha shaharlarida amal qilgan.

Ikkinchi guruh yerlari – *yorliqli mulk* bo‘lib, davlat yerlari hisobidan, xonning maxsus yorlig‘i asosida xususiylashtirilgan yerlardir¹⁸⁴. Mustamlaka va sovet davri adabiyotlarida yorliqli mulk yerlari maxsus tarxon yorlig‘i asosida soliq va majburiyatlardan to‘liq yoki qisman tarxon yorlig‘i *yorliqdor* toifasi bilan bir ekanligi, ular xonlikning ekinbop yerlariga egalik qilishi, xazinaga esa hech qanday soliq to‘lamaganligi borasida yanglish fikrlar bo‘lgan.

Yu.Bregel fikricha, xon yorliqlarini ikki guruhga bo‘lish mumkin: birinchisi, soliq daftarlarida uchraydigan “yorliqdor” bo‘lib, bu turdagi

¹⁸¹ Tamg‘ali atamasi navkarga nisbatan qo‘llangan, uning hujjatli ekanligini anglatgan va solg‘utdan ozod qilingan.

¹⁸² A‘lo toifasidan 22 ta, avsotlardan 1 tasi navkar bo‘lib, ular soliq to‘lamaganligi hisobga olinsa, 77 puxta tillo bo‘ladi

¹⁸³ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘uxat, 425-yig‘ma jild, 225-varaq

¹⁸⁴ Абдурасулов У.А. Земельные отношения в Хивинском ханстве во второй половине XVIII – первой четверти XIX вв. Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2008. –Б. 103 .

yerlar sayyidlar, xo‘jalar, shayxlarga xonning yorlig‘i asosida berilgan va turli soliq va majburiyatlardan ozod qilingan; ikkinchisi, yorliqli mulk yerlari, yuqoridagiga hech qanday aloqasi bo‘lmagan¹⁸⁵. Hujjatda tarxon so‘zi qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, bunday turdagi yorliqlar tarxon yorliqlari hisoblangan.

Xiva xonlari arxiv hujjatlarida saqlangan tarxon yorliqlaridan biri matnidan ma’lum bo‘ladiki, yorliq sayyidlar avlodi Nurulloh Mahdum xonadoniga barcha soliq va majburiyatlardan, xususan, qozu, qochu, begar, divon puli, qozon xarji, ipaklaridin mol, ilchi, ulog‘, darvozabon pulidan ozod qilish, shuningdek, boshqa yig‘imlar uchun ulardan to‘lov talab qilmasliklari uchun berilgan¹⁸⁶.

Xiva xonligi arxivida uchraydigan ikkinchi guruh yorliqlari xonning davlat yerlarini (*mamlaka-i pādisāghiga muşāf va muta‘alluq būlghan yīrdin*) harbiy harajatlar uchun (*mavvjib-i nukeriye ūchūn*) xususiy yer mulk (*mulk-i xolis*) qilib sotilganligi to‘g‘risidagi hujjatlaridir¹⁸⁷. Muallif fikricha, yorliqli mulk shu asosida shakllangan yer egaligi turi bo‘lgan.

Yorliqli mulk egalari davlat tomonidan soliq imtiyozi asosida yerga egalik qilsa-da, soliqlardan to‘liq ozod qilinmagan¹⁸⁸. Xususan, “...yārliq ālib har un ṭanābīgha īkkī pukhtā ṭillā sālgūt 12 kūn pādshālīq qāzūvīnī qāzūrlar”¹⁸⁹. Hujjat soliq yig‘ish bilan shug‘ullangan mirzalar uchun yo‘riqnoma vazifasini o‘tagan. Ular ijtimoiy guruhlarga bo‘linmagan va egalik qilgan yeri uchungina soliq to‘lagan. Atoyi mulkdan farqli ravishda yorliqli mulk yerlaridan undirilgan solg‘ut yer solig‘i xususiyatini o‘zida namoyon etadi.

Undan ko‘rinib turibdiki, *bikar yer* – adrolar hisobidan kam yerli odamlarga berilgan. Bunday yerga egalik qilgan shaxs xonlik devonxonasidan ma’lum to‘lov evaziga yorliq yozdirib olgan va yer nomi shu tariqa yorliqli nomi bilan atala boshlagan. Yorliq berilganligi uchun 4 tillo yorliqona va 2 tanga kotibona solig‘ini to‘lagan. Dehqon ikkinchi

¹⁸⁵ Брегель Ю. Земельные отношения в Хивинском ханстве // Письменные памятники востока. Ежегодник. – М. 1972 – С. 52

¹⁸⁶ Wood W. A Collection of tarkhan yarliqs from the khanate of Khiva. – Bloomington, Indiana, 2005. – P. 7-8

¹⁸⁷ Bregel Yu. Documents from the Khanate Khiva (17th-19th centuries)... – No.40. – Pp. 3-4

¹⁸⁸ Абдурашулов У.А. Земельные отношения в Хивинском ханстве... – Б. 182

¹⁸⁹ Ichan-Qal’a davlat muzey qo‘riqxonasi arxivi, № 36/91 raqamli hujjat, 3-varaq

marotaba bunday imtiyozli yer olgan taqdirda yorliqona miqdori oshirilib, 8 tilloni tashkil etgan¹⁹⁰.

Ular podsholiq yerlari ijarachilari bilan bir xil soliq maqomiga ega bo‘lib, yetishtirgan mahsulotlaridan ushr solig‘i to‘laganlar. Faqat podsholiq yerlarini sotish, hadya qilish yoki vaqf qilish huquqiga ega bo‘lmagan. Yerning xususiyligini dallilovchi xonning maxsus farmoni uning huquqiy maqomini o‘zgartirishi mumkin edi. Ammo yorliq olish bilan bog‘liq harajat tufayli fuqarolar sanoq daftarlariga nomlarini kirgizib, solg‘utchi maqomini olishni ma‘qul ko‘rganlar.

“1325 (1907) *tāzadin yārliqdārlarnīng ādlarī kīrūlūb va yārliq berilūb tanga ālghan daftar*” yerlari yozilib, ularga yorliq berilgan mulkdorlar ismlari, egalik qilayotgan yer miqdori va olingan soliq belgilangan. Ro‘yxat 1325 yili 23 shavvol Masjidi Sherniyozbekdan boshlanadi. Muhammad So‘fi 15 tanob, Xudaybergan ibn Yusufbek 10 tanob va boshqalarga yorliqonasini olib, yorlig‘ berilganligi yozilgan. Masjid qavmning ba‘zi a‘zolari yorliqona olmasdan solg‘ut to‘lovchi bo‘lishni afzal ko‘rib, daftarga yozilgan. Bu ma‘lumot daftarda quyidagicha aks etgan: *Qūlbāy ibn ‘Abdullāh – sālgūtī būlūr, Nūrillāh ibn ‘Abdullāh – sālgūtīn bīrīb ūltūrghān*, tarzida ifodalangan¹⁹¹.

Yorliqli mulk egalarining xon inoyatnomasini olmasdan soliq daftarlariga yozilishini G.Girshfeld ham harajatlari bilan bog‘lab “... davlat yerlarini olgandan so‘ng, sanoq daftariga yozilib, mulkdor nomini oladi va u yorliqli mulk egasi soliq to‘laydi”¹⁹², deb ta‘kidlaydi.

Yorliqli mulk huquqiy jihatdan atoyi mulk singari xususiy, daxlsiz sanalgan. Bu yer egaligining farqi uning yuridik maqomida emas, davlat soliq tizimida bo‘lgan. Atoyi mulk yerlaridan solg‘ut ijtimoiy tabaqalashtirilgan holda olingan va ko‘proq yer solig‘i emas, daromad solig‘ini eslatar edi. Yorliqli mulk yerlarining har 5 tanobdan 1 tillo miqdorda soliq olish tartibi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, tanob hisobi uchun soliq belgilanardi. Agar atoyi yer egasi besh tanob chahor yer – 5.25 tanob yerga egalik qilsa, u adno toifasidan avsotga o‘tkazilgan va undan 2 puxta

¹⁹⁰ Шайхова А.О. Юридические документы как источник... – С. 171; О‘zR МА I –125-fond, 2-ro‘yxat, 4991-yig‘ma jild, 1-varaq

¹⁹¹ О‘zR МА I –125-fond, 2-ro‘yxat, 491-yig‘ma jild, 50-51-varaqlar

¹⁹² Гиршфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства... – Ч.2. – С. 35

tillo miqdorda solgʻut olingan. Va aksincha yorliqli mulk egasi shu miqdordagi yer uchun 1 tillo 2 tanga solgʻut olingan. Bu har jihatdan qulay va foydali boʻlganligi yorliqli mulk yerlarining keng tarqalishiga sabab boʻldi.

Fiskal jihatidan farqlansa-da, soliq yigʻish jarayonida va ularni qayd etishda bu mulkchilik koʻrinishi uchun alohida daftar yuritilmagan. Yorliqli mulk yerlaridan olingan solgʻut atoyi mulk yerlari solgʻuti singari qaysi amaldor masʼulligiga koʻra, mehtar yoki qoʻshbegi sanoq daftarlarida qayd etib borilgan. Biroq, rasmiylashtirishda atoyi yerlar guruhlariga ajratilib, soliq toʻlovchilarning ism sharifi yozilgan, unga tegishli yer miqdori koʻrsatilmagan. Yorliqli mulk yerlarini rasmiylashtirishda yerning tanobi aniq koʻrsatilgan. Xonlikda amal qilgan tartibi taomilga koʻra, soliq toʻlovchining qancha yeri toza ekanligi yoki qancha tanobi uchun inoyatnomasi mavjudligi va boshqa imtiyozi ham oʻsha yerda qayd etilgan. Masalan, 1901 yilga tegishli avorija daftarida quyidagicha qayd etilgan:

Safar Niyoz ibn Axmad	16.5 tanob	Toza
Yusuf Soʻfi ibn Axmad	12.5 tanob	Inoyatnomali
Berjon ibn Qosimxoʻja	15 tanob	10 tanobi yorliqdor
Muhammad Safo ibn Usmon	15 tanob	7.5 tanobi toza

№4-jadval. 1322 yil Mangʻit tobening solgʻut daftari. Masjidi Eshniyoz mirob

Roʻyxat shu zaylda davom ettirilib, ayrim soliq toʻlovchi ismlarning yuqori qismida yil, baʼzi hollarda imtiyozini bildiruvchi amali koʻratilgan.¹⁹³ Bu tartib, Mehtar oqoning Honqa, Qiyot, Shohobod, Xiloli, Xiva va boshqa hududlarida tuzilgan sanoq daftarlarida ham kuzatiladi.

Yorliqli mulk yerlari asosan qoʻriq yerlarni oʻzlashtirish, egalari tashlab ketgan yerlar hisobiga kengayib borgan. Xususiyl mulkchilikning bu koʻrinishi asosan Anbar Manoq, Tashhovuz, Hilyali, Qilich Niyozbiy, Mangʻit, Qipchoq, Qoʻhna Urganch va Hoʻjaeli hududlarida joylashgan. Hukmron sulola vakillari ishlov berilgan, sugʻoriladigan yerlarning kengayishidan va soliq toʻlovchilar sonining oshishidan manfaatdor edi.

¹⁹³ OʻzR MA I –125-fond, 1-roʻyxat, 426-yigʻma jild, 181-varaq

Shu sababdan irrigatsion inshootlarning ta'mirlanishi va yangilarini qurishni qo'llab-quvvatlagan.

Yorliqli mulk yer egalari xonlik g'aznasi uchun solg'ut to'lash bilan bir qatorda xonlikdagi mehnat majburiyatlari hisoblangan *qozu* – suv inshootlari tozalash, ta'mirlash va *qochu* – daryodagi to'g'onlarni tiklash ishlari uchun 12 kun muddat ishlariga qatnashish majburiyatini olgan edilar¹⁹⁴.

Yorliqli mulkdorlar ismlari sanoq daftarlarida keltirilgan ba'zi ismlar to'g'risida *biqazu* yozuvi uchraydi. Bunday hollarda yer egasi solg'ut solig'ini to'lagan, lekin mehnat majburiyatidan ma'lum to'lov evaziga ozod qilingan.¹⁹⁵ Ba'zi hujjatlarda esa aksincha, ismlarning tepa qismiga *borur* so'zi yozilgan bo'lib, mulkdor yer solig'idan ma'lum sababga ko'ra ma'of bo'lgan, ammo mehnat majburiyatlarini bajargan¹⁹⁶.

Xonlik fuqarolari devonxonaga murojaat etib, yangi o'zlashtirilgan bo'sh yerlardan, yorliqli mulk yerlari olishi hisobiga, soliq daftarlarida *bevatan* nomi bilan ro'yxatga olingan aholining yersiz qatlami – yorliqli mulkdorlarga aylana borgan.

Sanoq daftarlaridan bu turdagi yerlardan olinadigan yillik soliq miqdorini aniqlashning imkoni mavjud emas. Amudaryo bo'limida tuzilgan statistik to'plamda yorliqli mulk yerlaridan xonlik xazinasida yiliga 33500 tillo soliq yig'ilgan¹⁹⁷.

Imtiyozli yer va soliqni anglatuvchi yorliq, ba'zi hollarda *tamg'a* yoki *tamg'ali*, *inoyatnomali* atamasi bilan ham belgilangan. Odatda *inoyatnomali* belgisi bilan qayd etilgan soliq to'lovchilar mehnat majburiyatlari, xususan, begardan ozod etilgan. Tamg'ali atamasi ko'proq xon va uning amaldorlari xizmatiga kirgan harbiy xizmatchi mulkdorlar ismi bilan birgalikda uchraydi. Soliq to'lovchilarning bu sinfi yer solig'i solg'utdan ozodligi bildirsa-da, yof qozuga odam yuborishi yoki ma'lum to'lovni amalga oshirilishi lozim bo'lgan.

Xiva xonligida o'z yeriga ega bo'lmagan hamda davlat yoki vaqf yerlarida ijaraga yer olib ishlovchi dehqonlar ham soliqqa tortilgan. Turli

¹⁹⁴O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yhat, 458-yig'ma jild, 16-varaq

¹⁹⁵O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yhat, 472-yig'ma jild, 21-39-varaqlar


¹⁹⁶O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yhat, 514-yig'ma jild, 25-62-varaqlar

¹⁹⁷Гиршфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства... – Ч. 2. – С. 35

sabablarga ko‘ra, yeridan ayrilgan yoki xonlikning bir hududidan boshqa hududiga ko‘chib o‘tgan fuqaro atoyi mulk yerlari joylashgan yerda muqimlashsa, u holda undan *hovli puli* solig‘i olingan.

Bevatan solg‘utining aniq miqdori borasida tadqiqotchilar turli hil raqamlar keltirishadi. Masalan, V.Girshfeld bunday shaxslardan xazinaga 3 rubl 60 tiyin solg‘ut va 1,5 tanga soliq yig‘uvchiga solg‘ut olinganligini qayd etgan¹⁹⁸. N.Ko‘shjonov va O.Polvonovlar bevatan va do‘g‘ma solg‘utiga 2 tillodan olinganligi to‘g‘risidagi fikrni ilgari suradi¹⁹⁹. Arxiv hujjatlari tadqiqi bevatanlardan 1 puxta tilloga teng miqdori solg‘ut olinganligini ko‘rsatdi²⁰⁰. Shuningdek, bunday fuqarolar soliq daftarlariga bevatan sifatida kiritilib, obxo‘r va begardan ozod qilingan. Arxiv ma‘lumotlari yuqoridagi mualliflar fikrlarida xatolik borligini yoki tahlilda adashganligini ko‘rsatadi.

1873-yildan xonning maxsus farmoni asosida ozod qilingan qullar ham soliq majburiyatidan chetda bo‘lmagan. Bunday shaxslar *dug‘ma solg‘uti* – deb nomlanuvchi soliq to‘lagan. Sanoqlarda uning miqdori 1 puxta yoki 2 kichik tillo miqdorida olinganligi to‘g‘risida qaydlar mavjud²⁰¹. Bu ikki holatda fuqarodan olingan solg‘ut yer solig‘i emas, ko‘proq daromad solig‘i xususiyatini kasb etmoqda.



№5-jadval. Solg‘ut miqdori

¹⁹⁸ O‘sha joyda... – C. 36

¹⁹⁹ Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар... – Б. 173

²⁰⁰ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yhat, 393-425-426-448-452-455-yig‘ma jildlar

²⁰¹ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yhat, 448-yig‘ma jild, 11-varaq.

Xonlikdagi xususiy – mulk yerlarining aniq miqdori to‘g‘risida turli tadqiqotchilar ma’lumotlari bir biriga mos emas. Masalan, G.Danilevskiy xususiy yerlar 1 mln. tanobga yaqin bo‘lganini yozsa, V.Girshfeld 380 ming tanobni tashkil qilganini va bu ma’lumotlar xonlik devonxonasidan olinganligini yozadi. Xiva xonlari arxivi hujjatlari tahlili jarayonida M.Yo‘ldoshev mulk yerlari 129–142 ming tanob atrofida bo‘lganligi to‘g‘risidagi fikrni ilgari surar ekan, buni qozuchi soni bilan izohlaydi. A.Sodiqov esa mulk yerlari miqdori xonlik sug‘oriladigan yerlarining 40–45% i ya’ni, 180–587 ming tanob oralig‘ida bo‘lganligini bildiradi. Bu yerlardan olinadigan solg‘ut miqdori 1873 yilda 103370 tillo²⁰²ni tashkil etgan bo‘lsa, 1900 yilga kelib, 160000 tillo²⁰³ga teng bo‘lgan. Bu yorliqli yerlarning ko‘paygani, otliq yer egalaridan soliq olishni boshlaganligi bilan bog‘liq.

Yuqorida keltirilganidek, sanoq daftarlari yuritish mehtar va qo‘shbegi devonxonasi tomonidan amalga oshirilgan. Yil yakunida mehtar va qo‘shbegi devonxonalari mirzalari sanoq daftarlari asosida hisobot tayyorlab, xonga taqdim etgan. Bunday hisobotlardan xonlik g‘aznasiga qancha mablag‘ tushganligini aniqlash mumkin. Jumladan, “1331 (1912) yili *sālgūt* daftari” xonga jami 153436 kichik tillo²⁰⁴ solg‘ut, 7089 tillo chiqori yig‘ilganligini to‘g‘risida axborot beradi. (1-ilova)

“1335 lānjī yilī dāg‘ī daftarnī *sālgūt* majbu hīsābī” mehtar hisobotida ma’lumotlariga tayanib, 1916-yilda 146465 kichik tillo yig‘ilgani, ularning chiqori 18445 tilloni tashkil etgan. Toshhovuz va Mo‘lali yerlari suvsiz bo‘lib qolganligi uchun solg‘utidan o‘tilgan. Shuningdek, sipohilar va ularning yerlarida ijarada dehqonchilik qiluvchilar 16269 tillo va 1320 tillo chiqori, yangi vaqf yerlarini olganlar solg‘uti bilan birgalikda 184075 tillo olingan²⁰⁵.

Yuqoridagi hisoblarga ko‘ra, 1915-yilda solg‘ut va bilan birgalikda 160525 tillo yig‘ilgan bo‘lsa, 1916-yilda nisbatan ko‘proq 184075 tillo yig‘ilgan. Bu yilda soliqlarning oshirilmaganligi inobatga olinsa, 1916-

²⁰² Кун А. Заметки о податях в Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости, 1873. – №32. – С. 127

²⁰³ Гиршфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства... – Ч.2. – С. 36

²⁰⁴ 73173 puxta tillo

²⁰⁵ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 589-yig‘ma jild, 16-varaq.

yilda avvalgi yilga nisbatan soliq to'lovchilarning oshganligini ko'rish mumkin.

Xiva xonligida yer egaligining yana bir turi vaqf yerlari – diniy muassasalarga, masjid, madrasa, qabriston, xonaqolarga qarashli yer – mulklar bo'lgan. Bunday mulklar diniy muassasalarga xon, amaldorlar va ayrim shaxslar tomonidan vaqf qilib berilgan. Vaqf yerlardan kelgan daromad diniy muassasalar ehtiyoji uchun sarf etilgan.

O'rta Osiyoda, xususan Xiva xonligida “vaqf mulklarida soliq immuniteti bo'lganmi yoki yo'q?”, degan savol yuzaga keladi. Bu borada A.A.Semyonov Buxoro amirligi soliq masalalarini tadqiq etar ekan, jamoat ehtiyojlari uchun foydalaniladigan vaqf mulklari, karvonsaroylar, yo'llar, xonaqohlar soliqlardan ozod etilgan, boshqa hollarda vaqf yerlaridan soliq olinganligini ta'kidlaydi. O.D.Chexovich Buxoro amirligida ba'zi vaqf yerlaridan xaroj olinganligini yozadi.

M.A.Abduraimov fikricha, agar yer maydoni vaqf yerlariga aylanguniga qadar yer egasidan soliq olingan bo'lsa, bunday holda vaqf yerlariga o'tgandan so'ng ham soliq olingan²⁰⁶.

Vaqf hujjatlarini o'rgangan tadqiqotchi G.Jo'raeva, vaqfnomalarda keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, vaqf yerlaridan *vaqf-i xaroj* va *vaqf-i dahyak* soliqlari olinganligi ma'lum qiladi.

V.A.Girshfeld va A.S.Galkin ma'lumotlarida xon yorlig'iga ega ba'zi vaqf yerlari soliqlardan ozod etilgan, lekin mehnat majburiyatlarni bajarishi shart bo'lganligi ta'kidlanadi.

Yu.Bregel diniy muassasa mulklari soliq tizimi haqida, yer vaqf mulkiga berilgach, koidaga ko'ra yer ijarasi ham, uning olish tartibi ham o'zgarmaydi, faqat yer qayta taqsimlanadi xolos²⁰⁷, deb xulosa beradi. Bundan kelib chiqadiki, vaqf yerlari egalari yerning oldingi holatiga ko'ra, soliq va majburiyatlarni bajargan. Ya'ni yer vaqfga aylanguniga qadar soliq olingan bo'lsa, u holda vaqf mulkiga o'tgach ham o'sha soliqni to'lagan va majburiyatlarni bajarishda davom etgan.

Vaqf yerlarini soliqqa tortishda istisno holatlar ham kuzatilgan. Xon tomonidan vaqf mulkidan olinishi lozim bo'lgan mablag' madaniy-

²⁰⁶ Абдурашулов У.А. Земельные отношения в Хивинском ханстве... – Б. 130

²⁰⁷ Брегель Ю. Земельные отношения в Хивинском ханстве... – Москва, 1972. – С. 93

ma'naviy sohani rivoji uchun vaqfkorda qoldirilishi to'g'risida inoyatnoma taqdim etilgan. Bunday vaziyatda vaqf mulki soliqlardan to'la ozod etilgan.

Taomili odatga ko'ra, maktab, madrasa va boshqa vaqf mahkamalariga berilgan inoyatnoma faqatgina amir yoki xonning hukmronlik qilgan davridagina amalda bo'lib, boshqa bir xon yoki amirning hokimiyat tepasiga kelishi bilan o'z kuchini yo'qotgan²⁰⁸.

Uzoq vaqt davomida vaqf yerlari soliqqa tortilmaydigan ob'ektlar sifatida talqin qilib kelingan. Vaqf hujjatlarini tadqiq etgan olimlar va arxiv hujjatlari vaqf yerlaridan ham davlat majburiy to'lovlari undirilganligi tasdiqlaydi. Ijara shartnomasida soliq to'lash majburiyati kelishib olingan.

Devonxonada vaqfkorlarni ro'yxatga olish, ulardan yig'ilgan solg'utni qayd etish avorija daftarlarida masjid qavmlarining vaqfchilarini alohida qayd etilgan. Masalan, "Masjidi Qurbon Niyoz vaqfchilari", "Masjidi Qurbon Ali vaqfchilari" tarzida rasmiylashtirilgan. Ijarachilar ismi va egalik qilayotgan yer miqdori tanoblarda berilgan. Shuningdek, vaqfkorning inoyatnomaga egaligi yoki biqazu ekanligi ko'rsatilgan.

Xiva xonligi devonxonasida 1910-yilda vaqf yerlari ijarachilari sonini aniqlash maqsadida tuzilgan daftarda obxo'r qozuga yuboriladigan qozuchilar soni, ularning qanchasi biqozu ekanligi, inoyatnomalilarni belgilash, olingan solg'ut hisobini yuritish ko'zda tutilgan. Hujjatda masjid qavmi nomi va qaysi vaqfdan yer tutishi, vaqf ijarachilari ism-sharifi va ularning yer miqdori, qavmdagi jami vaqf yerlari va yig'ilgan biqozu hamda solg'ut pullari rasmiylashtirilgan. Shuningdek, ayrim shahslarning qachondan yer tutganligi imtiyozi – ma'of²⁰⁹ yoki nishona²¹⁰ hamda mehnat majburiyatlaridan ozod qiluvchi biqozu maqomi to'g'risidagi inoyatnomaga egaligi ham yozib qo'yilgan. Masalan, "1327 lonji yili mohi rabi us soniyda vaqfchilar soni 4330 ta, biqozu uchun har o'n tanobig'a 1 puxta tillodin olunsun"²¹¹ shaklida. Mehnat majburiyatidan ozod qilish inoyatnomasi uchun 1 puxta tillodan

²⁰⁸ Хатамова З. Қўқон хонлигида солиқ тизими... – Б. 122

²⁰⁹ Ma'of–avf etish. Soliqdan ma'lum muddatga ozod qilishni nazarda tutuvchi atama va hujjat (*muallif–A.A*)

²¹⁰ Soliq to'lovchini bir yil muddatga soliqdan ozod qilinganligini anglatuvchi rasmiy hujjat turi тип

²¹¹ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yhat, 442-yig'ma jild

belgilangan bo'lsa-da, ayrim vaqfkor masjid qavmlarida bu miqdor 2 puxta tillo tashkil etgan. Daftar yakunida jami 10737 puxta tillo 5 tanga mablag' yig'ilgani qayd etilgan.

Ichan-Qal'a muzey qo'riqxonasida XIX asr oxiriga oid xonlikning turli qal'alarida vaqf yerlaridan yer solig'i olish tartibiga oid hujjat mazmuniga ko'ra, xon devonxonasidan inoyatnoma olinmagan taqdirda vaqf yerida ishlaydigan dehqonlar podsholiq yeri ijarachilari kabi soliq to'lashi lozim bo'lgan. Misol uchun, "Qīpchāq tābīda vāqf yīrīndā ūltūrghānlar āgar 'īnāyatnāmasī būlmāsā, har 10 ṭanābīghā 2 pūkhtā ṭillā bīrūr, 12 kūn pādshāliq qāzunī qāzūrlar".²¹² Hujjatda Ko'hna Urganch, Xo'jaeli, Mang'it tobelarda ham shu tartibda soliq olish belgilanganini ko'rish mumkin.

Mazkur ma'lumotni O'zMA sanoq daftarlari bilan qiyosiy tahlil qilinganda ham vaqf yerlaridan, yorliqli mulk yerlari singari, har 5 tanobidan 1 puxta tillo olinganligi aniqlandi. 1910-1911-yillar Kat tobeligidagi vaqf yerlari solg'uti bilan bog'liq avorija daftari misolida masalaga oydinlik kiritildi. Unga ko'ra, "Masjidi Xudoynazar Shayxda 3 ta bevatan, 7 ta vaqfkor va 1 imom qayd etilgan. Jami 11 kishidan 14 tillo 14 tanga solg'ut olingan"²¹³.

Xonlik soliq tartiblariga ko'ra, masjid qavm imomi amali davomida soliqdan ozod etilgan²¹⁴. Bevatan solg'uti 1 puxta tillodan, vaqf ijarachilari har 5 tanobga 1 tillodan tushishi inobatga olinganda, jami hisob 14 tillo 14 tangani tashkil etmoqda va quyidagicha taqsimlangan:

Rajabboy ibn Ollohbergan	7.5 tanob	1.5 tillo
Otaboy ibn Muhammad Nazar	5.5 tanob	1 tillo 2 tanga
Qurbonboy Xo'ja ibn Qaroh Xoja	7 tanob	1 tillo 7 tanga
Bobojon Xo'ja ibn Qaroh Xoja	5 tanob	1 tillo

№6-jadval. Bevatan solg'uti olish va ro'yxatga olish

Ayrim hollarda vaqf ijarachilari qo'shimcha tarzda mulk yerlari yoki otliq yerlaridan ham yer olib, yoki o'zining kam yeriga qo'shimcha vaqf yeridan olib, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Bunday vaziyatda

²¹² Ichan-Qal'a muzey qo'riqxonasi arxivi, № 3691 raqamli hujjat

²¹³ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 443-yig'ma jild, 96-97-varaqlar

²¹⁴ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 409-yig'ma jild, 440-varaq

solliq to'lovchi yerining qanchasi vaqfga tegishli ekanligi va qanchasi mulk yeri ekanligi, imtiyozi bor-yo'qligi aniq ko'rsatilgan holda solliq belgilangan. Masalan, Masjidi Karimberdi otaliqda Bobojon ibn Paxlavon 5 tanobi vaqf, 6 tanobi mulk yerli, Domla Hudoybergan ibn Qurbonnazar 5 tanob vaqf, 5 tanob mulk ma'of shaklida qayd etilgan. Yuqoridagi birinchi vaziyatda mulkdor vaqf yeri 5 tanobi uchun 1 tillo, 6 tanob mulk yeri avsot toifasiga kirganligi sababli 2 puxta tillo to'lashi lozim edi. Ikkinchi holatda, maktabdor domlaning 5 tanob mulk yeri ma'of etilgan, ya'ni solliqdan ozod etilgan, u faqat 5 tanob vaqfi uchun 1 tillo to'lash bilan kifoyalanadi. Bu kabi holatlarni arxiv manbalarida ko'p uchratish mumkin.

Xiva xonligidagi kam yerli yoki yersiz dehqonlar davlat, mulk hamda vaqf yerlarida ijaraga ishlaganlar kimning yerida ishlashiga qarab *bevatan*, *koranda* va *vaqfkor* – deb nomlangan. Xususan, davlat yerlarini ijaraga olgan yersiz va kam yerli dehqonlar bevatan, mulk yerlaridagi ijarakorlar koranda, vaqf yerlari ijarachilari esa vaqfkor deb atalgan²¹⁵.

Xonlik hududida yashagan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi ham davlat xazinasiga belgilangan miqdorda yer solig'ini to'lagan. Yarim ko'chmanchilik hayot tarzini olib borgan qoraqalpoqlardan, ular egallagan yer miqdoriga emas, balki yiliga bir martalik to'lov orqali solliqlarni to'lash afzalligi sababli XIX asr boshlarida solg'ut solig'i o'rniga *solg'ut-kesma* – deb atalgan solliq joriy qilindi. Xiva xonligi agrar munosabatlarini o'rgangan Yu.Bregel fikricha, “kesim” – ijarachining oldindan g'alla yoki pul bilan ijara haqini to'lash ma'nosini bildiruvchi atama bo'lib, aniq belgilangan to'lov, deb ta'riflaydi (arab tilidagi idjara so'ziga ekvivalent hisoblangan). Shu tariqa solg'ut – kesma, zakot – kesma solliqlari vujudga kelgan²¹⁶.

Qoraqalpoqlar egallab turgan yaylovlar uchun har yili 20 ming kichik tillo miqdorida solliq to'lagan²¹⁷. Ammo ,bu miqdor doimiy va o'zgarmas, deb bo'lmaydi. Tabiiy ofatlar va boshqa omillar hisobga olinib, uning miqdori kamaytirilgan holatlar ham kuzatilgan. Xususan, qoraqalpoq biylarining 1283 (1866) yilda Xiva xoni Muhammad

²¹⁵ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т., 2012. – Б. 402

²¹⁶ Брегель Ю. Земельные отношения в Хивинском ханстве... – С. 41

²¹⁷ Кун А. Заметки о податях в Хивинском ханстве... – С. 126

Rahimxon II ga yo‘llagan xatida qoraqalpoq xalqiga yuklatilgan soliqni yengillatishni so‘ralgan. Kadxudolarning so‘rovi ijobiy hal etilib, yillik kesma miqdori 3 ming tillo kamaytirib beriladi²¹⁸. Xiva xonlari arxividagi ikkinchi arzdosht hujjatidan ma‘lum bo‘ladiki, bu inoyatdan qoraqalpoq xalqining hursandligi, shunday bo‘lsa-da, bu ham qoraqalpoqlarga og‘irlik qilayotgaligi va soliq miqdorini 15 ming tillo etib belgilashlarini so‘rab xat yuborilgan²¹⁹.

Qo‘ng‘irotliklar uchun ham soliq solg‘ut – kesma kelishuvi amal qilgan hamda ular yiliga 2000 kichik tillo miqdorda soliq to‘lash majburiyatini olgan²²⁰. Soliqqa tortishning mazkur ko‘rinishi 1899-yilga qadar amal qiladi. Keyinchalik xonlikda boshlangan islohotlar natijasida soliqqa tortishning bu usuliga ham o‘zgartirish kiritiladi (3-bobga qaralsin).

Xiva xonligida yer egaligining o‘ziga xos ko‘rinishlaridan yana biri otliq yer egaligi hisoblangan. Otliq yerlar xonlik xizmatiga kirgan harbiy xizmatchilarga, asosan turkman urug‘lariga berilgan yer–mulklar sanalgan. Bunday yerlar unumdorligi va suvga qulayligiga ko‘ra, 10 tanobdan 50 tanobgacha bo‘lib berilgan. Ammo otliqlarning aksariyati 30 tanobdan iborat bo‘lganligi uchun, keyinchalik bu miqdor o‘lchov birligiga aylangan²²¹. Soliqqa tortilmagan bu yerlar uchun turkmanlar har otliqdan bir navkar berish majburiyatini olgan. Ammo 1873-yildan keyin turkmanlarning bu xizmatiga zaruratning yo‘qligi, uning fiskal maqomini o‘zgarishiga olib keldi. Natijada xizmatlari uchun yer bilan mukofotlangan otliq mulkdorlar yerlari 12 puxta tillo miqdorda soliqqa tortiladigan bo‘ldi²²². Bu to‘lov har bir otliq, ya‘ni 30 tanob uchun amal qilgan, ammo ular mehnat majburiyatini bajarmagan.

O‘z navbatida xon turkmanlarning otliq yerlarini suv bilan ta‘minlashni zimmasiga oladi. 1873–1890-yillar mobaynida hukmron sulola vakillari bu yerlarni suv bilan ta‘minlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirdi. Ko‘hna Urganchda Xon yof qazildi, Lauvzondan Nurak, Suhbatyorgan, O‘nquloch, Shamrat ariqlari qazildi, eskilar ta‘mir

²¹⁸ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yhat, 453-yig‘ma jild, 3-varaq

²¹⁹ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yhat, 453-yig‘ma jild, 1-varaq

²²⁰ Кун А.Заметки о податях в Хивинском ханстве... – С. 126

²²¹ Брегель Ю. Землевладение у туркмен // Советское востоковедение, № 3, 1957. – С. 129-130

²²² O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yhat, 473-yig‘ma jild, 31-32-varaqlar

etildi. 1894–1899-yillarda Amudaryodan Ko‘hna Daryoliqg‘a yangi kanal–Tozayof qazildi²²³. Ammo keyinchalik devonxona tomonidan tayin etilgan *biquzu inoyatnomalarining* ko‘plab berilishi, qozu ishlarida ishchi kuchining yetishmasligi va ariqlarning tashlandiq holatga kelib qolishiga sabab bo‘ldi. Bu esa, turkman urug‘larining soliq to‘lashdan bosh tortishi, soliq yig‘ish jarayonida qurolli to‘qnashuvlar va soliq yig‘uvchilarning kuch ishlatish yo‘li bilan majburiy to‘lovni yig‘ib olinishiga olib keldi²²⁴.

Xulosa qilib aytish kerakki, Xiva xonligi agrar davlat bo‘lganligi va aholi xo‘jalik faoliyati qishloq xo‘jaligi, xususan, dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli bu faoliyat turidan olinadigan soliq – solg‘ut xazinaning asosini tashkil etgan. O‘rganilgan hujjatlar solg‘ut – yer solig‘i emas, faoliyati yer bilan bog‘liq bo‘lgan mulkdorlardan olingan daromad solig‘i ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, atoyi mulk yerlaridan qancha hosil olinishi hech bir hujjatda rasmiylashtirilmagan va soliq yig‘uvchi mansabdorlarni qiziqitirmagan. Mulk yerlarining soliq miqdorini belgilashda yerga ekilgan ekin turi ta’sir etmagan. Yer tanobiga xisoblanib, mulkdorning a‘lo, avsot yoki adnoligiga ko‘ra solg‘ut olingan. Masjid qavmi oqsoqoli va mirobi tomonidan yerning toifalarga muvofiqligi qattiq nazorat qilingan. Xonlikda qullikning tugatilishi natijasida ozodlikka chiqqanlardan davlat dug‘ma solg‘uti olgan. Yuqorida aytilganidek, uning miqdori 1 puxta tilloga teng bo‘lgan. Huddi shu miqdordagi soliqqa yersiz dehqonlar, davlat yeri ijarachilari, yeridan ajralgan, biroq atoyi mulkdorlar bilan birgalikda yashovchilar va atoyi mulkning adno toifasi tortilgan.

2.2 Zakot undirish tartiblari va uning amaliyoti.

Xiva xonligida davlatning huquqiy me‘yorlari islom dini asosida shakllanganligi hamda xonlik soliq tizimi islom qonunchiligi bilan amalga oshirilganligi bois zakotning shar‘iy istilohiga to‘xtalish joizdir.

Xiva xonligidagi asosiy soliqlardan biri zakot, islomning besh ruknidan biri bo‘lib, shariat farz qilgan muhim amal sifatida qaralgan. Zakot Madinai munavvarada hijriy ikkinchi sanada farz qilingan. Zakot so‘zi Qur‘oni Karimda yigirma yetti joyda namoz bilan birga zikr etilgan

²²³ Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар... – Б. 164

²²⁴ Брегель Ю. Земелевладение у туркмен // Советское востоковедение, № 3, 1957. – С. 130

va Makka surasida zakot xayrli ish, moddiy yordam ma'nosida kelgan. Ilk bor Zakot Umar I (632-634)ning xalifalik davrida tartibga solingan.

Zakot shariat qonunlariga ko'ra, chorva mollari, ko'char mulkning barcha turlari, dehqonchilik mahsulotlari (yer maqomiga qarab ushr yoki xaroj ko'rinishida miqdori o'zgaradi), yer osti boyliklari agar nisobga yetsa $\frac{1}{40}$ qismini, ya'ni 2,5 foiz miqdorida, mahsulot yoki pul ko'rinishida to'lanishi lozim²²⁵. Zakotni faqat voyaga yetgan, muomala layoqatiga ega musulmonlar: hosildan, chorva mollaridan, tilla va kumushdan, tijorat mahsulotlaridan to'lagan²²⁶.

Islom dinining besh asosiy farzlaridan biri, mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa hamda soliq hisoblangan zakotni islom an'analarga ko'ra, nisobga yetgan boylikka ega bo'lgan musulmon kishi muxtoj musulmonlar foydasiga bergan.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xiva xonligi huquqiy meyorlari ham shariat tartib etgan qonun-qoidalar asosida amalga oshirilsa-da, davlat solig'i zakot shar'iy istilohidan bir qancha farq qilgan.

Xiva xonligida zakot mahsulot turiga, sifati va miqdoriga qarab turlicha nomlangan. Bu esa, keyingi davrda xonlik ijtimoiy iqtisodiy tarixini yoritishda soliqlar miqdorining bo'rttirib ko'rsatilishiga asos bo'lgan. Mohiyatan bir soliq hisoblangan zakot turlari alohida tushunchalar sifatida talqin qilingan.

Xiva xonligida zakot asosan chorva va tijorat mollaridan olingan. Shariat asosida nisobga yetgan chorvadan olinadigan zakot *zakoti savoim* nomi bilan atalgan va uning quyidagi turlari mavjud bo'lgan:

- xonlikda muqim yashovchi o'troq aholi chorvasidan;
- xonlik chegaralarida istiqomat qilgan ko'chmanchi aholi chorvasidan;
- xonlik bozorlariga sotuv uchun olib kelinayotgan chorvadan olingan²²⁷.

Zakot miqdorini belgilashda qanday turdagi chorvadan olinishiga qarab ham soliq miqdori o'zgarib borgan. Xonlik hududida doimiy

²²⁵ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Кифоя. – II жуз. – Тошкент, 2020. – Б. 98

²²⁶ Кун А. Порядок взимания податей в Хивинском ханстве... – С. 130-131

²²⁷ Кун А. Заметки о податях в Хивинском ханстве... – С. 126

yashovchi ko‘chmanchi aholidan *yurt chorvasi* – deb atalgan soliq olingan hamda uning miqdori har bir qoramol uchun 1 tanga, zotli qo‘ylarning har biri uchun $\frac{1}{2}$ tangaga teng bo‘lgan. Zakoti savoimga doir O‘zMA fondidagi hujjatda bojmonlar tomonidan 1875 yil uchun yig‘ilgan zakot soliq miqdori keltiriladi. Unga ko‘ra “1289 yil mähī Jumādī al-sānīning 12 sīda Khwāja īlīnīng atrāfī dāghī chāravadārning kurāngī²²⁸”, deb boshlanuvchi hujjat an’anaviy shaklda rasmiylashtirilgan:

1. Soliq to‘lovchi chorvadorning ismi;
2. Chorva soni;
3. Urug‘ nomi;
4. Olingan zakot miqdori.

O‘razali ibn Erali boy	50 ta mol	50 tanga
Ernazar	90 ta mol	90 tanga
Nazar ibn Avaz	140 ta mol	140 tanga
Bobonazar	75 ta mol	70 tanga
Jami 33 kishi	2060 qoramol	2060 tanga zakot ²²⁹ .

№7-jadval. Zakot olish tartibi

Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir qoramol uchun 1 tanga miqdorda zakoti savoim olingan. Mazkur ma’lumotni keyingi sahifalarda ham uchratish mumkin. Misol uchun, Qo‘ng‘irot atrofi Chokay biy kurongi 1284 chorva, olingan soliq 1284 tanga, Ko‘k dog‘i kurongi Jon Temur Eshon 10038 mol va 10038 tanga, Davlat Nazar otaliq kurongi 21241 ta mol uchun 21241 tanga, Noib kurongi 24018 tanga. Daftar so‘ngida qoraqalpoqlardan 100340 kichik tillo yig‘ildi²³⁰, deb ma’lumot beriladi. Mazkur hujjat matnidan ma’lum bo‘ladiki, xonlikning doimiy yashovchi ko‘chmanchi aholisi chorvasidan 1 tanga miqdorida *yurt chorvasi zakoti* undirilgan.

Xiva xonligi g‘aznasini to‘ldiruvchi yana bir manba Ustyurtdan xonlik yaylovlariga ko‘chib keluvchi qozoqlardan har tuya uchun 2 tanga, qoramolidan esa 1 tanga miqdorida olinadigan zakotdir²³¹. Biroq,

²²⁸ Kurong– ma’muriy birlik

²²⁹ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 424-yig‘ma jild, 39-varaq

²³⁰ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 424-yig‘ma jild, 33-varaq.

²³¹ Кун А.Заметки о податях в Хивинском ханстве... – С. 125

solliqning chorva soniga ko'ra olinishi solliq to'lovchilarga zarar bo'lganligi bois, bir yilga ulardan 2000 kichik tillo miqdorda zakot olishga kelishilgan²³². Xonlik hududiga qishlash maqsadida chorvasini haydab keladigan qozoqlar odatda Sho'raxon, Qipchoq va Shoh Abbos Vali artofiga joylashgan. Bu miqdor turli omillarga ko'ra o'zgarib turgan.

Xiva xonlik bozorlariga may-aprel oylarida turkman urug'lari bozorga sotish uchun olib chiqilgan chorvadan *so'landli* – deb nomlanuvchi solliq to'lagan. Uning miqdori har tuyadan 2 tanga, har qo'ydan $\frac{1}{2}$ tanga miqdorda hisoblangan.²³³ Mazkur solliq mohiyatan, aynan zakoti savoimning o'zidir.

Amudaryo bo'limi boshlig'i A.Galkin ma'lumotlariga ko'ra, zakoti savoim umumiy chorva miqdorining bir foizi miqdorida olingan hamda xonlik g'aznasiga 35 ming rubl miqdorda foyda keltirgan²³⁴.

Turkmanlarning yovmud, alayli, qaradashli, chaudar urug'laridan, shuningdek, qoraqalpoqlar va qo'ng'iroqliklardan *zakot-kesma* solig'i olingan. Kesma tizimiga ko'ra, zakot miqdorini belgilashda chorva soni hisobga olinmagan va oldindan kelishilgan pul to'langan²³⁵.

Aksariyat manbalarda uning miqdori 20 ming kichik tilloga teng bo'lganligi keltirilsa-da, bu miqdor o'zgaruvchan bo'lgan. Tadqiqotchi tomonidan tadqiq etilgan 1866 yilda xon nomiga yuborilgan arzdosht xati mazmunidan aniqlandiki, qoraqalpoq urug' oqsoqollarining solliqlarni pasaytirishga doir iltimoslari qondirilib, 20 ming tillodan 3 ming tillo o'tilganligi, ammo bu miqdor ham ularga og'irlik qilayotganligi, endi yana biroz kamaytirib, 15 ming tillo solliq olsinlar, deb 6 oqsoqol nomidan xat yuborilgan²³⁶. Bundan ma'lum bo'ladiki, zakot miqdori qat'iy bo'lmay, aholining iltimosi, vaziyat yoki iqtisodiy holatdan kelib chiqib o'zgarib turgan.

Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiy tarixini tadqiq etgan A.Aminov, zakoti savoim faqat chorvadan olingani, uning miqdori poda sanalgandan

²³² Кун А.Заметки о податях в Хивинском ханстве... – С. 126

²³³ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 418-yig'ma jild, 1-varaq.

²³⁴ Гиришфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства... – Ч.2. – С. 41

²³⁵ Кун А. Заметки о податях в Хивинском ханстве... – С. 126

²³⁶ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 453-yig'ma jild, 3-varaq

keyin chorva mollarining o'rtacha qiymatidan²³⁷ belgilab olingani, bir zakot miqdori shunday hisoblangani²³⁸ haqida ma'lumot beradi.

Ushbu ma'lumot arxiv hujjatlarida ham o'z tasdig'i topadi. Xususan, "1276 (1859) yilon yili. mohi jumodi avvaldin qaroqalfoq xalqining molining zakoti" – deb nomlangan hujjatda kuronglar²³⁹ kesimida chorvadorlar nomlari va ularning chorva miqdori qayd etilgan. Jumladan, Bo'yдали Ota dog'i Sarim otaliq kurongi:

Cho'qaybiy	20 mol, 12 qo'y	Achamayli
Alijonxo'ja	51 mol	Qo'shtamg'ali
Eshmuhammadboy	92 mol	Achamayli
Ermuhammad biy	100 mol, 150 qo'y	qo'shtamg'ali ²⁴⁰ .

№8-jadval. Zakoti savoim olish tartibi va rasmiylashtirilishi

Ro'yxat shu tariqa davom ettiriladi. Soliq to'lovchi nomining yuqori qismiga uning urug'i, ba'zan agar mavjud bo'lsa imtiyozi yozilgan. Mazkur kurongning asosiy chorvadorlari achamayli va qo'shtamg'ali urug'iga mansub bo'lgan. Ba'zi ismlar qarshisida yoki yuqori qismida soliq imtiyozining anglatuvchi "ma'of" atamasi ham uchraydiki, bu soliq to'lovchi chorvalarining sotib yuborgan yoki ma'lum sabablarga ko'ra chorvasidan ayrilganligi anglatgan.

Xiva xonlari devonxona hujjatlaridan o'rin olgan yana bir sanoq daftarida qoraqalpoqlar bilan bir qatorda Xo'jaelidagi qozoqlardan 1287 (1870) yil uchun olingan chorva zakoti qayd etilgan²⁴¹. Unga ko'ra:

Xo'jaeli qozoqlari	
Xoja Muhammad	32 mol
Bobonazar	73 mol
Abdullohboy	33 mol
Ernazar otaliq	300 mol
Muhammad Nazar	100 mol

№9-jadval. Zakot daftari yuritilishi

²³⁷ Tuyaning o'rtacha qiymati 40 tanga, koramolniki esa 20 tanga miqdorda belgilangan.

²³⁸ Аминов А. Экономическое развитие Средней Азии ... – С. 298

²³⁹ Ma'muriy birlik

²⁴⁰ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 424-yig'ma jild, 17-19-varaqlar.

²⁴¹ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 425-yig'ma jild, 3-4-varaqlar.

Ko'ng'iroat atrofi qozoqlari ²⁴²	Chorva soni	Zakot miqdori
Ali Xoja	48 mol	48 tanga
Abdug'affor Xoja	50 mol	50 tanga
Jumonboy qozoq	110 qo'y	110 tanga

№10-jadval. Yurt chorvasi zakoti miqdori

Hujjat so'ngida hech qanday yakuniy hisob qilinmagan. Daftarga bir qancha inoyatnoma biriktirilgan bo'lib, bu hujjat berilgan soliq to'lovchi ismining ustki qismiga "o'tuldi" yozuvi belgilab qo'yilgan va bu soliqdan ozod ekanligini anglatgan. Ammo inoyatnomalar mazmunidan chorvador qanday sabab bilan soliqdan ozod qilinganligini aniqlashning imkoni bo'lmadi.

Xiva xonligida nisobga yetmagan chorva zakoti masalasida bahsli ma'lumotlar uchraydi. Sharqshunos olim A.Kun yurt chorvasi nisobga yetmagan holda hech narsa to'lamagan – deb ta'kidlasa, Girshfeld zakot miqdori chorvaning umumiy sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi, deb yozadi.

Zakot savoimni yig'ish maxsus *bojmon*²⁴³ – deb ataladigan soliq yig'uvchilar tomonidan amalga oshirilgan. Aholidan yig'ib olinadigan zakot solig'i devonxonaga bojmonlar tomonidan yetkazilgan. Ular karvon yo'llarida turib, Xivaga keltirilgan turli xil mahsulotlar uchun chegara punktlarida zakot olgan hamda soliq to'lovchiga boshqa zakotchilar tomonidan yana qayta zakot talab qilinmasligini oldini olish maqsadida hujjat bergan²⁴⁴.

O'zMA fondlarida Xiva xonligida zakoti savoimga doir turli mazmundagi soliq hujjatlari saqlanib qolgan. Xonlikda chorvadan olingan zakot uchun, xususan, qishlov uchun kelgan qirg'izlar chorvasidan, so'landli yoki yurt chorvasi bo'lishidan qat'iy nazar zakot olinganligi to'g'risida hujjat berilgan va bu turdagi hujjat patta²⁴⁵ – deb nomlangan. Hujjatda u berilgan sana, oy, yildan so'ng soliq to'lovchining ismi-sharifi, zakotning qaysi turi, chorva soni, hujjat rasmiylashtirilganligini anglatuvchi muhr va bojmonning ism-sharifi keltirilgan. Masalan,

²⁴² O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 424-yig'ma jild, 28-varaq

²⁴³ Xiva xonligida zakot solig'ini yig'uvchi amaldor

²⁴⁴ Кун А.Л. Порядок взимания податей в Хивинском ханстве... – С. 130-131

²⁴⁵ Soliqning to'langanligini anglatuvchi ma'lumotnoma.

“Ta’rikh-i māhi Jumādī al-Avvalnīng sakkīzīda yuz qūy ūchūn zakātīn Muḥammad Khwāja Niyāzdan āldūq. Dakhil qilmāsūnlar dīb khaṭṭ bitīldi. 1383”²⁴⁶ shaklida. O’rganilgan ushbu hujjatda soliq yig’ish jarayoni shaffoligini ta’minlash va boshqa zakotsaroylarda bojmonlar tomonidan qayta soliq talab qilmasligini oldini olish maqsadida kvitansiya-patta berilganligini ko’rish mumkin. Zakot pattasi soliq to’laganlik to’g’risida ma’lumotnoma vazifasini bajargan.

Zakoti savoimning yana bir turi bozorga sotuv uchun olib chiqilgan *chorva zakoti* bo’lgan. Chorvador aholi xonlik bozorlarida bozor yoki bozorsiz kunlari sotganligi uchun zakot belgilangan va uning yig’imi bilan bozor bojbonlari shug’ullangan. Bozorga sotuv uchun olib chiqilgan tuyaning har biridan 3 tanga, ot va qoramolning har biridan 2 tanga, qo’y va echkilardan yarim tangadan olingan.

Ma’lumki, Xiva xonligida 1873-yilga qadar qulchilik tuzumi mavjud bo’lgan. Xonlikning ayrim shaharlaridaga qullar bozorlarida turkmanlar tomonidan Eron chegaralarida asir olingan qullar sotilgan. Sharqshunos A.Kunning ma’lumotlariga ko’ra, har bir sotilgan dug’madan 2 tildan soliq olingan²⁴⁷.

Xiva xonligi Qo’ng’irotlar davri soliq tizimida zakot chorva mollari bilan bir qatorda savdogar va hunarmandlardan olinuvchi asosiy soliq ham hisoblangan. Xonlikda savdo – tijorat va xunarmandlardan olinadigan daromad solig’i *zakoti tujjoriy* yoki *zakoti tujjorchi* nomi bilan yuritilgan. Uning midori mahsulot sifatiga bog’liq bo’lgan, ammo mahsulotning 2,5% miqdoridan oshirilmagan.

Devonbegi tomonidan bitilgan mirzalarni va bojmonlar taqsimoti bilan bog’liq hujjatda zakoti tujjori uchun Jumaniyoz devon mas’ul etib belgilanganini²⁴⁸ ko’rish mumkin. Xiva xonligida soliq amaliyotida muayyan toifadagi davlat amaldorlarigina emas, balki, xonlik mulozimlarining deyarli barchasi ishtirok etgan. Ular o’zlarining birlamchi xizmat vazifalarini bajarish bilan birga, soliq tizimida ham o’zlariga topshirilgan vazifalarni amalga oshirgan²⁴⁹.

²⁴⁶ O’zR MA I –125-fond, 2-ro’yaxat, 455-yig’ma jild, 3-4-varaqlar

²⁴⁷ Кун А.А. Заметки о податях в Хивинском ханстве... – С. 126

²⁴⁸ O’zR MA I –125-fond, 2-ro’yaxat, 435-yig’ma jild, 2-3-varaqlar..

²⁴⁹ Кун А.Л. Заметки о податях в Хивинском ханстве... – С. 125–126, 130-131

Xiva xonligida asosiy soliq yig'uvchilar devonbegi, qo'shbegi va mehtar hisoblangan. Ularning har biri o'z devonxonasiga ega bo'lib, uch – to'rt devon (mirza)dan iborat tarkibga rahbarlik qilgan. Jumaladan Xiva xonligi Qo'ng'irotlar davrida ham soliq ma'muriyatchiligida xonlik bo'ylab zakot solig'ini yig'ish bilan devonbegi shug'ullangan hamda 4–5 mirzadan iborat devonxonaga boshchilik qilgan. Tadqiqot doirasida o'rganilgan devonbegi tomonidan yuritilgan zakot kitobida xonlikdangi zakot turlari va mazkur yilda soliqni yig'ish uchun ta'yin etilgan amaldorlar ro'yxati keltirilgan. Bular ichida savdo bilan bog'liq zakotning quyidagi turlari keltiriladi:

- Zakoti qal'achi
- Zakoti buxarjiy
- Zakoti tujjoriy
- Olache tamoku zakoti
- Zakoti ung'utchi
- Zakoti bozorno²⁵⁰.

Shunday so'ng devonbegi tomonidan har qaysi zakotni yig'ish uchun ma'sul devon (mirza)lar ta'yin etilgan. Yurt chorvasi zakoti uchun Rizvon Muhammad devon, Zakoti qal'achi uchun Ollohbergan devon, Zakoti buxarjiy uchun Ollohbergan devon, Hujjatning keyingi sahifalarida zakotning yana o'zgacha shakllari- Zakoti chorva eli, zakoti Qo'ng'irot, zakoti bozor dalloli, bozor tagijoyisi va sakexona kabilarni yig'ish uchun devonhonadan mahramlar ajratilgan. Shuningdek, manbada ularning qaysi hududlarga jo'natilganligi haqida ham ayrim ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Ho'ja mahram Ko'na Urganji (Qo'hna Urganch)ga bojbon etib yuborilgan²⁵¹. 8 varaqdan iborat mazkur hujjat zakotning shakllari va unga mas'ul amaldor ismlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Zakot undirishdagi yana bir holat xorijlik savdogarlarning xonlik hududiga tovar olib kirishi va olib chiqishi masalalari bo'lgan. Xonlikka olib kirilgan rus tovarlari *qal'achi* – deb atalgan hamda undan olinadigan soliq ham shu nom bilan yuritilgan. Shuningdek, xonlikdan Rossiyaga olib ketilgan mahsulotlar ham zakoti qal'achiga tortilgan²⁵².

²⁵⁰ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 435-yig'ma jild, 2-3 varaqlar.

²⁵¹ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 435-yig'ma jild, 4 varaq.

²⁵² Кун А. Заметки о подхтях в Хивинском ханстве... – С. 126

Jumladan, “1279 (1862) yil māhī muḥarram āyīnda qal’āchī daftari zakāti”²⁵³ deb nomlanuvchi sanoq daftarida qal’achining miqdori to’g’risida batafsil ma’lumot olish mumkin. Hajman kichik daftarda savdogarlarning nomma-nom ro’yxati, ular olib kelgan mahsulot, uning tannarxi va olingan soliq miqdori aniq qilib belgilangan. Hujjat Xivalik savdogarlar – Hudoybergan karvonboshi nomi bilan boshlanib, o’lchov birligi sifatida tivah²⁵⁴ va langacha²⁵⁵ olingan. Unga ko’ra:

Hudaybergan karvonboshi	2,5 tivah mato yana 8 langacha mato, 3 langacha qo’lovchi	459,5 tillo
Muhammad Karimboy	48 tivah paxta, 2,5 tivax mato	215 tillo
Tilloboy	4 tivah mato, 77,5 paxta paxta	355 tillo
So’fiboy Hoji	20 tivah paxta, 3 tivah mato	123 tillo
Olloquli	19 tivah paxta, 3 tivah mato, 4 langacha xom	119 tillo
Yoqubboy	28,5 tivah paxta, 12 langacha pahta, 13 langacha qo’y teri	137 tillo
....	Jami 16 savdogardan 2103 tillo olindi	

№11-jadval. Zakoti qal’achi daftari

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, Rossiyaga olib chiqilgan mahsulotning aksariyatini paxta tashkil etib, har bir tuya paxta uchun 4 tillo miqdorda zakot olingan. Keyingi sahifalarda 52 nafar urganchli savdogarlar – 1726,5 tillo, Xonqali va Qoramaz’li 30 savdogar 1066 tillo zakoti qal’achi to’lagan. Jami karvondan 4495 tillo olingan²⁵⁶.

Yuqorida ta’kidlanganidek, xoriждан, asosan Rossiyadan kelgan tovarlarni *qal’achi* nomi bilan yuritilgan. Lekin bir hujjatda *o’ruschi* atamasi ham uchraydi. Misol uchun, “Qūnghīrāt daftari. ūrūschī bārghānī zakāti” nomli avorija daftari²⁵⁷ 1289 yil muḥarram va rabbi ul avval oylarida kelgan karvondan olingan zakot miqdori 620 puxta tilloni tashkil etgan. Savdogarlarning asosiy qismini qozoqlar tashkil etib, ular tomonidan paxta, ruyon, xom, birindj singari mahsulotlar olib kelingan²⁵⁸.

²⁵³ O’zR MA I –125-fond, 2-ro’yxat, 430-yig’ma jild, 10-varaq.

²⁵⁴ O’lchov birligi bir tuyaga ortilgan yuk

²⁵⁵ Xiva xonligida mahsulot solingan qop, halta

²⁵⁶ O’zR MA I –125-fond, 2-ro’yxat, 430-yig’ma jild, 5-varaq.

²⁵⁷ Oz’R MA I –125-fond, 2-ro’yxat, 427-yig’ma jild, 1-varaq.

²⁵⁸ O’zR MA I –125-fond, 2-ro’yxat, 430-yig’ma jild, 1-10-varaqlar

Zakoti qal'achini belgilashdagi yana bir holat, ya'ni mahsulotning sifati va qiymati inobatga olingan. Masalan, xonlikdan olib chiqilayotgan har bir *oq yuk*²⁵⁹ uchun 1,5 tillo, savdo karvoni qaytgach, yana 3 tillo to'lashi shart bo'lgan. Har bir *matta*²⁶⁰ mahsulot uchun dastlab 3 tillo, qayta kelishda yana 6 tillo qo'shimcha mablag' to'langan²⁶¹. Bu tartib qal'achi uchun tegishli bo'lib, musulmon davlatlari bilan savdo olib borgan tijoratchilar bunday tartibda soliqqa tortilmagan. Demak, musulmon davlatlari va musulmon bo'lmagan davlatlar bilan savdo uchun soliqlar miqdori farqlangan.

Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi, Afg'onistondan keltiriladigan mahsulotlar *buxarchi* – deb atalib, undan to'lanadigan zakot ham shunday nomlangan²⁶². Masalan, “1289 (1872) yil kīlgān bukharchī daftarī zakāt” nomli daftarda mohi muharram oyidan boshlab, xonlikning turli hududlari va qo'shni Buxoro amirligidan Xivaga kelgan karvon va savdogarlar hamda yig'ilgan soliq to'g'risida aniq raqamlar keltirilgan. Mazkur avoriya daftarini rasmiylashtirish an'anaviy tarzda amalga oshirilgan:

1. Savdogarning qaysi hududdan ekanligi;
2. Ism sharifi;
3. Olib kelgan mahsulotlari miqdori (ba'zan qiymati ham);
4. Olingan zakot miqdori. Misol uchun,

Xivali	Ibodulloh boy	1 sir choy, 2 sir nil, 1 sanduq qora ro'ymol, 32 kiyimlik ishtuf, 20 safet olacha	15 tillo
Xonqali	Boboniyoz	1 tivah tamoku, 1 sanduq (35 ta) qora ro'ymol	6 tillo
Urganchli	Saidniyoz Xoji	1 sanduq 20 jom oyna, qog'oz	3 tillo
Buxoroli	Avaz Muhammad	1 tivah ruyon	1 tillo
Buxoroli	Usmon Xoji	2 langacha uzum	0.25 tillo

№12-jadval. Zakoti buxarchi

Keyingi o'rinlarda xonqali, urganchli savdogarlar ro'yxati keltiriladi. Masalan, Safar, rabbiul avval oylarida Qo'ng'iroqli, Chimboyli, Ho'jaelili savdogarlar ko'pchilikni tashkil etadi. Muharram

²⁵⁹ Bir tuyaga yuklangan qiymati past mahsulot

²⁶⁰ Bir tuyaga yuklangan qiymati baland mahsulot

²⁶¹ Кун А. Порядок взимания податей в Хивинском ханстве... – С. 125

²⁶² O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 427-yig'ma jild, 1-varaq

oyining 23 chisida kelgan karvon asosan buxoroliklardan iborat bo‘lib, tamaki, nil (bo‘yoq), ishtuf (mato turi), choy, qog‘oz olib kirilgani to‘g‘risida qaydlar berilgan. Manbaga asosan, karvondagi 22 savdogardan umumiy 291,5 tillo zakoti buxarchi olingani qayd etilgan. Mazkur yilning safar, rabbiul avval, jumodil avval, shavvol oylarida yig‘im miqdori 712,5 tillo, zulqadda va zulhijja oylarida 64 tillo, buxarchining umumiy miqdori 4389 tilloni tashkil etgan²⁶³. Yuqoridaga ko‘rib chiqilgan buxarchi daftarini tadqiq etish asosida shu jihat aniqlandiki, 1 tuya ruyon uchun – 1 tillo, 1 sir choy uchun – 5 tillo, 1 langacha tamaki uchun – 3.5 tillo zakot olingan.

Xiva xonligiga *qala’chilar* nafaqat Buxorodan, balki Gurgon va Astroboddan kelganligi, savdo karvonidan zakoti buxarchi olinganligi haqida qaydnomalar mavjud. Misol uchun, 1289 (1872) yilning jumodi avvalida Gurgandan kelgan karvon 4 kishidan iborat bo‘lib, asosiy savdo mollari teke namad, chil²⁶⁴, ot kamardan iborat bo‘lgan. Jami 12,5 tillo zakoti buxarchi olingan,²⁶⁵ deb ma’lumot beriladi. Yoki yana bir misol, Astrobod karvoni 12 savdogardan iborat bo‘lib, asosan xurosonlik va yovmudliklar Xivaga mesh²⁶⁶, teka namad, oina, qora mum, farangi, shol, narbut tarak²⁶⁷, mitqol, temir olib kelgan. Ulardan olingan zakot miqdori 202 tilloni tashil etgan²⁶⁸.

Xiva xonligi asosiy qishloq xo‘jaligi faoliyati, dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lsa-da, undan solg‘ut emas, zakot olinadigan mahsulot turlari ham mavjud bo‘lgan. Ulardan biri xonlikda yetishtiriladigan tamaki mahsuloti hisoblangan. Xiva bozorlariga tamaki mahsuloti, asosan, Buxoro amirligi va Afg‘oniston hududidan olib kelingan. Xiva xoni Muxammad Rahimxon I (1806-1825) davrida tamaki mahsulotlari inson salomatligi uchun zararli deb hisoblanib, u og‘uning bir turi – deb e’lon qilinadi va qo‘shni hududlardan kirayotgan tamaki uchun 10 puxta tillo miqdorida jarima puli belgilanadi. Xonlik hududida ham tamaki ekish rasman man qilinmasa-da, uni ekish miqdorini cheklash maqsadida

²⁶³ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 426-yig‘ma jild, 3-10 varaqlar.

²⁶⁴ Kamon uchun ip

²⁶⁵ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 426-yig‘ma jild, 15 varaq

²⁶⁶ Qo‘y terisi

²⁶⁷ Erondan keltiriladigan daraxt turi

²⁶⁸ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 426-yig‘ma jild, 15 varaq

yuqori miqdorda soliq joriy qilinadi. Natijada, ma’lum muddat o‘tib, tamaki ortilgan karvonlar soni kamaymagan. Ammo, aksiga olib, tamakini yashirinchalik olib kirilishi kuchaygan. Bu holatni cheklay olmagan xon hukumati tamakiga qo‘yilgan avvalgi cheklov va oshirilgan soliq tartibini olib tashlagan. Ammo belgilangan jarima miqdori boj sifatida to‘lanish odati saqlanib qolinadi²⁶⁹..

1872-yilda Buxorodan Xivaga kelgan savdo karvonida ham asosiy mahsulot tamaki va choy hisoblanib, tamakining 1 langachasidan 3,5 tillo, 1 tuyasidan 5 tillo miqdorida zakot olinganligi aniqlandi²⁷⁰.

Yuqorida aytilganidek, xonlikning tamakiga bo‘lgan ehtiyoji Buxorodan olib kelinayotgan tamakiga hisobiga qondirilsa-da, xonlikning ba’zi hududlarida oz miqdorda tamaki mahsulotlari yetishtirilgan. Bu o‘z navbatida o‘rnatilgan yuqori boj to‘lovi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Zakotning mazkur ko‘rinishiga doir O‘zMA fondida atiga bir nechta hujjat mavjud bo‘lib, tahlil natijasida zakotning bu ko‘rinishi miqdori to‘g‘risida kengroq ma’lumotga ega bo‘lindi. Jumladan, “Khīva atrāfi ālachī tamākū zakātī” – deb nomlanuvchi hajmi 5 varaqdan iborat, yil va bojmon ismi ko‘rsatilmagan daftarda bu borada quyidagi axborot uchraydi:

1. Hudud;
2. Mavze;
3. Soliq to‘lovchi (tamaki yetishtirgan shaxs);
4. Tamaki ekilgan miqdor;
5. Olingan soliq miqdori;
6. Jami

Muhammad Rahimboy	20 ag‘ri kam yorim tanob	26 tanga
Abdurahim Shoquli	0.5 tanob	28 tanga
Qurbonniyoz	0.5 tanob	28 tanga
30 ta	Jami: 404 tanga	

№13-jadval. Olacha tamoku zakoti

Manbaga asosan, Rafaniqda jami 30 ta tamaki yetishtiruvchi bo‘lib, ushbu mahsulot ekilgan yer miqdori yarim tanobdan oshmagan. Keyingi

²⁶⁹ Кун А. Заметки о податях в Хивинском ханстве... – С. 126

²⁷⁰ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 426-yig‘ma jild, 3-4 varaqlar.

saxifalarda Charkasli, Gandumgonli, Joniq shayxlar, Qiyotlilar – deb nomlangan hududlarda ham tamaki yetishtirilganligi, olacha tamoku zakoti olinganligi, bu soliqning miqdori har tanobiga 6 tillo etib belgilanganligi aniqlandi. Daftar so‘nggida Xivah atrofida tamoku zakoti yig‘ilib, devonxona og‘asiga topshirilganligi²⁷¹ qayd etilgan. Demak, manbalarga ko‘ra zakot solig‘i nafaqat chorva yoki savdo mahsulotlaridan, balki tamakidek noyob o‘simlik yetishtirganlik uchun ham olingan.

Dehqonchilik mahsuloti hisoblansa-da, zakot olinadigan yana bir mahsulot paxta bo‘lib, u rivojlanib borayotgan rus sanoati uchun juda muhim homashyo sifatida XIX asr o‘rtalaridan asosiy tijorat mahsulotiga aylana boshlagan. *Qal’achi* daftarlari mazmunidan anglashiladiki, Rossiyaga olib chiqilayotgan mahsulotning asosiy qismini paxta tashkil etgan. 1872-yilda Xivadan Rossiyaga yuborilgan savdo karvoni ma’lumotlariga asosan, 1289 (1872) yil muharram oyidada Muhammad sharifning o‘zi 96 tuya paxta, Hudoybergan karvonboshi 80 tuya paxta, Ollonazar 74 tuya paxta olib ketgan”²⁷². Ro‘yxatning keyingi o‘rinlarida ham paxta savdosi to‘g‘risida ko‘plab qaydlar keltirilgan. Mazkur hujjat va boshqa qal’achi daftarlari tahlili asosida ma’lum bo‘ladiki, 1 tuya paxta uchun 4 tillo miqdorda zakot to‘langan.


Xiva xonligi devonxonasi tomonidan yuritilgan sanoq daftarlari, shuningdek, xonga yuborilgan hisobot hujjatlaridan zakoti tujjarchining yana bir ko‘rinishi tilga olinadi. *Zakoti ung‘utchi* nomi bilan qayd etilgan mazkur soliq buxarchi va qal’achi zakoti bilan yonma-yon uchraydi. Hujjatda ushbu soliq uchun xonlik devonxonasidan Xudoynazar devon va Qurbon Niyoz devon mas’ul etib belgilangan. Devonbegining soliq tushumlari yillik hisobotida ung‘utchining umumiy miqdori jamlab, keltiriladi. Unga ko‘ra “...1266 (1850) yildā ūnghūtchīdīn 400 ṭillā āldūq, 1266 yil sha‘bān āyīndā ketgān ūnghūtchīdīn 250 ṭillā, shū yilnīng zāl-hijja āyīndā 500 ṭillā āldūq”.²⁷³ Yuqoridagi hujjat matnidan ayon bo‘ladiki, 1850 yilning o‘zida ung‘utchi zakotidan xonlik g‘aznasiga 1150 tillo kirim qilingan. Ammo mavjud manbalar asosida mazkur soliq

²⁷¹ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 420-yig‘ma jild, 3-5 varaqlar.

²⁷² O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 430-yig‘ma jild, 4-varaq.

²⁷³ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 423-yig‘ma jild, 7-varaq.

kimlardan va qancha miqdorda olinganligini aniqlashning imkoni yo‘q. Hujjatlardan faqat ung‘utchidan xonlik xazinasiga tushgan yillik daromad mablag‘i miqdori aniqlandi.



№14-jadval. Zakoti tujjorji miqdori

Xiva xonligi bozorlarida savdo va hunarmandchilik bilan bog‘liq zakot ko‘rinish *zakoti bozorho* nomi bilan yuritilib, bozorda, karvonsaroylar va chorsularda o‘z do‘koniga ega baqqollardan do‘kon haqqidan tashqari, nisobga yetgan mahsulotidan olingan. Masalan, “Daftarī nāmghūī Shāhābād va Qūshkūfūr”²⁷⁴ hujjatida xonlikda ishlab chiqarish bilan shug‘ullanayotgan va mahsulotlarini sotayotgan baqqollar nomlari ko‘rsatilgan. Kichik hajmdagi mazkur daftarda yil sanasi ko‘rsatilmagan va ro‘yxat oxiriga yetmagan, bu esa uning bizgacha to‘laligicha yetib kelmaganligidan darak beradi.

Rasmiylashtirish tartibi baqqollar nomlari bilan boshlanib, ularning mollari nisobi ismning yuqori qismiga, bir chiziqcha qo‘yish orqali bildirilgan, ammo zakot summasi to‘g‘risida ma’lumot uchramaydi. Misol uchun, Bekjon mulla baqqol – 2 nisob, To‘rabek baqqol – 7 nisob, Yaqubboy baqqol – patakli, Qiyot-Qo‘ng‘irotli Yaqub baqqol – 5 nisob, jami 19 ta baqqol nomi keltirilib, ularning zakoti nisobi 2 – 7 tani tashkil etgan. Keyinchalik boshqa turli kasb egalari ro‘yxatni davom ettiradi. Xususan, Otash buyoqchi, Avaz chirchi, Raxmatulloh juvozchi, Otajon

²⁷⁴ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 421-yig‘ma jild, 1-varaq.

qassob, Abdulloh sholikor, Eshniyoz tamokuji va boshqalar. Ularning zakot nisobi odatda 1 tadan oshmagan.

Zakoti bozorno, yuqorida keltirilgan baqqollarning daromad solig'idan tashqari, *tagijoyi xaqi* va *dallol xaq zakoti*, *tarozi pulidan* iborat bo'lgan. Mazkurlar xususiyatiga ko'ra majburiy davlat soliqlari emas, balki ma'lum xizmat uchun to'lov ekanligini inobatga olib, davlat yig'implari qatoriga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligida zakot, solg'ut singari davlatning asosiy soliqlaridan biri bo'lgan. *Zakoti savoim*, *yurt chorvasi*, *so'landli* singari nomlar soliq turlarini emas, balki chorvadorlardan olingan zakot solig'ini anglatgan. Atamalar zakotning kimdan va qayerdan olinishiga ko'ra farqlanib, turlicha nomlangan. *Zakoti tujjarji*, *zakoti buxarchi*, *zakoti qal'achi*, *zakoti ung'utchi* kabi nomlar bilan turlicha atalsa-da, ularning barchasi savdo faoliyatidagi daromaddan olingan soliq hisoblangan. Bu soliqlarning hammasi chorva yoki savdo bilan emas, ba'zan ekin mahsuloti bo'lgan tamaki va paxta singari o'simlikni yetishtirish va sotish uchun ham qo'llanilgan.

2.3 To'lovlar va yig'implar

XIX –XX asr boshlarida Xiva xonligida asosiy soliqlar solg'ut va zakotdan tashqari yana bir nechta turdagi to'lovlar va yig'implar mavjud bo'lgan. (2-ilova)

To'lov va yig'implar soliq amaliyoti jarayonidagi harajatlar va shu jarayonda ishtirok etayotgan mas'ul amaldor uchun haq, davlat xizmatlari uchun to'lov (nikoh tuzilganlik, shaxs vafot etganda merosni taqsimlash, inoyatnoma, yorliq yozish, vasiqalar tuzish), ma'lum xizmat evaziga haq (tarozi puli, qayuq puli) maqsadida undirilgan.

Sovet tarixshunosligida Xiva xonligida 25 va ba'zi manbalarda undan ham ortiq soliq turi mavjud degan qarash mavjud bo'lgan²⁷⁵. Bu ma'lumot soliq imtiyozini beruvchi xon yorliklariga asoslanib berilgan. Bu turdagi tarxon yorliqlarida uchraydigan va solg'ut, zakot kabi asosiy soliqlar katorida kelgan atamalarni XIX – XX asr boshlarida xonlikda

²⁷⁵ Ёўлдошев М.Ў. Хива хонлигида феодал ер эгалиги... – Б. 164; Садыков А. Экономические связи Хивы с Россией... – С. 302; Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи... – Б. 324; Рожкова М. К. Экономические связи России со Средней Азией 40-60 годы XIX вв. – Москва, 1963. – С. 239

amalda bo'lgan soliqlar sifatida talqin qilingan. Bu esa sovet davrida shakllangan “dehqonlarning ko‘p sonli soliqlar natijasida qashshoqlashganligi” g‘oyasining shakllantirish uchun xizmat qilgan.

Yorliqlarda *jarib, tanobona, ipaklarindin mol, ilchi* yoki *yo‘lchi*²⁷⁶, *qo‘nolg‘a, ulog‘, so‘ysun, borsbon, kashtibon, qo‘ruqbol* yoki *qo‘ruqbon*²⁷⁷, *darvozabon, qozu, qochu, bigar, hashar, boj, tamg‘a, chahol yek, rohdorliq, xazinachiliq, amalat, olg‘ot, dud, ravonot*²⁷⁸, *qazon xarji, sari-mard*²⁷⁹, *bilejat* singari soliq bilan bog‘liq atamalar uchraydi. Yuqorida kelgan atamalar doimiy soliq bo‘lmay, ularning aksariyati to‘lov turi hisoblanadi. Shunisi ahamiyatliki, aksariyat atamalarning haqiqatdan ham soliq turi bo‘lganligi baxsli, chunki hozirgi kunga qadar ularning faqat lug‘aviy ma‘nosiga qarab qanday soliq turi bo‘lganligi tahmin qilinadi.

Xiva xonligi yorliqlarini tadqiq etgan V.Vud fikriga ko‘ra, yorliqlardagi ba‘zi atamalarni hatto lug‘aviy ma‘nosiga ko‘ra ham nima maqsadda olinganligini aniqlashning imkoni mavjud emas²⁸⁰.

Yorliqlarda kelgan nomlarga asoslanib, xonlikda mavjud soliq turlari miqdorini qat‘iy aniqlash mushkul. Chunki mazkur manbadagi *hashar, qozu, qochu, bigar* nomlari yagona mehnat majburiyatini anglatga, *boj, tamg‘a, chehel yek* zakotning turlicha nomlanishi hisoblanadi. Ba‘zi atamalar Xivada Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi o‘rnatilib, davlatda soliq islohoti amalga oshirilgunga qadar mavjud bo‘lgan. Yana bir turdagi atamalar esa, ma‘lum xizmatdan foydalanganlik uchun haq sifatida olingan. Xususan, yorliqda uchraydigan *kashtibon* to‘lovi –“kashti” qayiq, kema so‘zidan olingan bo‘lib, Xiva xonligi hududidan oqib o‘tgan Amudaryodan qayiqlarda aholini daryoning narigi tomonida o‘tkazib qo‘yganligi uchun olinadigan xizmat haqi hisoblangan. O‘rganilgan arxiv hujjatlarida *qayyuqchi fuli* shaklida uchraydi²⁸¹. Xonlikda katta qayiqlar *uchan*, undan kichikrog‘i *uzarcha* yoki *qayyuq*

²⁷⁶ Ulov tutuv, qo‘nolg‘a to‘lovlari bilan birga keladi – A.A.

²⁷⁷ “Qo‘ruq” qabrison, xonning ov joyi va “mol”, “bon”, “chi” shaklida uchraydi, nima maqsadda olinganligi aniq emas – A.A.

²⁷⁸ Forscha “bormoq”, qanday soliq yoki to‘lovligi aniq emas – A.A.

²⁷⁹ “Sar” bosh va “mard” kishi – A.A.

²⁸⁰ Wood W. A Collection of tarkhan yarliqs from the khanate of Khiva... – P. 48

²⁸¹ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 34-yig‘ma jild, 1-varaq.

nomlari bilan yuritilgan. Bunday qayuq egalari xonlik g‘aznasiga ma’lum haq evaziga Amudaryoda yuk tashish huquqini beruvchi inoyatnomaga ega bo‘lgan. Shundan so‘ng daryodan savdogarlarning mahsulotlarini yoki daryoning narigi qirg‘og‘iga o‘tish istagida bo‘lgan odamlarni olib o‘tgan va buning evaziga kayuqchi pulini olgan²⁸². Ushbu to‘lov turining mavjud bo‘lganligi yana bir rasmiy ish yuritish hujjati arzdoshtlarda ham o‘z aksini topgan. O‘zR MA Xiva xonlari arxivi fondida o‘rin olgan arznoma mazmunidagi hujjatda, xon qayiqchilari hazrat Xorazmshohga Amudaryodan mollarini va o‘zini o‘tkazib bergan va 4 oydan beri kelishilgan 2 tillo tangani bermay yurgan tujjor ustidan arz qilib, ularning haqlarini olib berishlarini so‘rab iltimosnoma yuborganlar²⁸³.

O‘rganilayotgan davr Xiva xonligi soliq tizimida notarial va nikoh bilan bog‘liq masalalarda “*tarkāna*” va “*nikāḥāna*” to‘lovlari yig‘ilgan. O‘z MA hujjatlarida bu to‘lovlar bilan bog‘liq yagona hujjat saqlangan bo‘lib, uning mazmunidan to‘lov miqdorini aniqlashning imkoni bo‘lmadi. Ushbu hujjat Xiva shahri qozisining hukmnomasi bo‘lib, unga ko‘ra: “Dīyānatān qāzī Muḥammad Fāzīlhūjanīng ma‘lumlārī būlsīnkīm, xatā-i tavāmūd bulghān jamā‘anīng nikāḥāna va tarkānasin ūz yārliḡhīngīzga mūvāfiq āling manfa‘at bāzārīg‘a bārīb ādamlārñīng tarkāna va nikāḥānasīgha dakhil qīlmasūn dīb bītīldi. 1240 (1824)”²⁸⁴. Mazkur hujjatda qozi tomonidan joylarda aholidan tarkona va nikohona to‘lovlarini shar‘iy belgilangan miqdoridan ko‘p olinmasligi to‘g‘risida hukm kilingan. Yuqori aytilganidek, hujjat matnida uning aniq miqdori to‘g‘risida ma’lumot berilmagan va tadqiqot jarayonida sanoq daftarlarida ham bu to‘lov to‘g‘risida ma’lumot uchramaydi.

Xonlikda meros masalalari bo‘yicha *tarkona* yoki *tariqona* – deb nomlanuvchi to‘lov olingan. Agarda mol-mulki ko‘p bo‘lgan, o‘ziga to‘q odam vafot etsa, *tariqona* yig‘ishga ma’sul kishilar uning mulkni meros qilish masalalari bilan shug‘ullangan. Mazkur notarial xizmat uchun aniq miqdor tayin etilmagan, odatda ishning katta – kichikligi va merosdan kelib chiqib, to‘lov undirilgan. XX asr boshlarida joriy qilingan tartibga

²⁸² Ichon-Qal’a muzey qo‘riqxonasi arxivi, №3274 raqamli hujjat

²⁸³ O‘zR MA I – 125-fond, 2-ro‘yxat, 34-yig‘ma jild, 1-1(orqa)-varaq

²⁸⁴ O‘zR MA I – 125-fond, 2-ro‘yxat, 609-yig‘ma jild, 2-varaq

ko‘ra, qozilik meros masalasini ko‘rib chiqqanda uning 1/40 taqsimdan oshmagan miqdorda tariqona olishi belgilangan.

Qozilik vakolatida bo‘lgan fuqarolar nikohlarini qayd etishda ham davlat foydasiga to‘lov amalga oshirilgan. *Nikohona* to‘lovi nikohdan o‘tmoqchi bo‘lganlarga ruhsatnoma olish uchun olingan. Devonbegining maxsus farmoni bilan uning miqdori 2 tangadan oshmasligi mirzalar tomonidan nazorat qilingan.

Xiva xonligida adro yerlarini o‘zlashtirilishi natijasida yersiz yoki kam yerli aholiga yer taqsimlab berilgan. Bunday yerlarga egalik qilish uchun dehqon xonlik devonxonasiga murojaat qilishi va xonning maxsus yorlig‘ini yozdirib olishi lozim bo‘lgan. Inoyatnoma uchun fuqaro 33 tanga miqdorida *yorliqona* – deb nomlanuvchi to‘lovni amalga oshirgan. Shuningdek, yorliqni yozib bergan mirzaga 5 tanga *kotibona* xaqi berishi kerak bo‘lgan²⁸⁵. Xazorasp tobe-yi Rahmonquli dog‘i yorliqdorlari daftari misolida uning miqdorini aniqlashtirildi. Unga ko‘ra ro‘yxatda jami 14 kishi bo‘lib, undan 6 nafariga toza –deb alohida belgi qo‘yilgan. Jami 8 nafarning yorliqonasi 33 tangadan 24 tillo tanga, devonga kotibona 5 tangadan 4 tillo 4 tanga, 6 nafar toza kishining yorliqonasi 66 tangadan 44 tillo, devonbegiga 10 tangadan 6 tillo 6 tanga hisoblangan. Majbu 84 tillo 4 tanga. Xazoraspga tobe Masjidi Fulod sulton, masjidi Umar oxun, masjidi Nazar devonlarda ham shu miqdorda to‘lov olingan. Ammo Urganch tobe, Fitnak yerlaridan 4 tillo yorliqona, 2 tangadan kotibona olingan. Masalan, masjidi Avaz Muhammad boy 17 nafar yorliqli yer olganlar, shundan 9 kishidan 4 tillo 2 tangadan, 7 nafar tozasidan 8 tillo 4 tangadan pul olingan. Majbu 97 tillo 1 tanga²⁸⁶. Bundan anglashiladiki, yeri bor dehqonlar yoki ikkinchi marotaba imtiyozli yer olgan shaxslar *tāza* shartli atamasi bilan ifodalangan va ulardan bir barobar ko‘proq to‘lov olingan. Shuningdek, viloyatlar o‘rtasidagi muvozanat ham noteng bo‘lib, Xazorasp va Urganch, Fitnak yerlaridan uning miqdori farqli bo‘lgan. Bu yerning unumdorligi, o‘zlashtirilganligi, suv bilan ta‘minlanganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Sanoq daftarlarida mulk yerlarining qanchasi inoyatnomali ekanligini aniqlash va soliq miqdorida xatoliklar kelib chiqmasligi uchun, mirzalar tomonidan ro‘yxatdagi mulkdor ism-sharifining yuqori qismiga

²⁸⁵ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 491-yig‘ma jild, 4-varaq.

²⁸⁶ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 491-yig‘ma jild, 135-varaq.

inoyatnomali, tamg'ali, yoki *toza* atamaları qo'llanilgan. Ba'zan kam yerli dehqon o'zining yeriga qo'shimcha tarzda yorliqli mulk yeridan ham olgan. Bunday hollarda, uning mulkidan qanchasi mulk va qanchasi inoyatnomali ekanligi qayd etilgan. Yuqorida aytilganidek, bevatan ikkinchi marotaba yorliqli yerni olgan taqdirda, yerning qanchasi inoyatnomali va qanchasi toza ekanligi aniq qayd etilgan²⁸⁷ (3-ilova).

Ba'zi hollarda yorliq hujjatini qayta yozdirish yoki xonadon vakillarining har biriga alohida yozdirish zarurati yuzaga kelgan. Bunday vaziyatlarda xonlik devonxonasi yorliqning asl nus'hasidan bir necha nus'halar ko'chirib berib, muhr bilan tasdiqlagan. Mazkur xizmat uchun xonlik devonxonasiga *muhrona* va *kotibona* to'lovlarini amalga oshirish talab etilgan. Arxiv hujjatlarida uning aniq miqdori keltirilmagan, xizmat narxi esa uning hajmidan kelib chiqib, o'zaro kelushuv asosida belgilangan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yorliqli mulk olgan dehqonlardan yorliqona 33 tangadan, kotibona 5 tangadan olingan. Xonlik vaziri akbari Islomho'jaga yuborilgan devonxona xatlarida Qo'hna Urganchda masjidi Otaniyoz oxunda yashovchi Otoulloh mahdum ibn Mullo Muhammad Sharif maxdum va Abdujalil mahdum ibn Mullo Muhammad Sharif maxdumlardan 3 tillo 2 tanga *muhrona* va *kotibona* olinganligi bayon etilgan²⁸⁸.

To'lovlar ma'lum xizmatlar yoki soliq amaliyotidagi ayrim harajatlar uchun ham yig'ilgan. Solg'ut solig'ini yig'ish jarayonida mehtar va qo'shbegi devonxonalarining barcha mirzalari faol qatnashganlar. Davlat xizmatchilariga oylik maosh va devonxonaning boshqa harajatlari uchun *chopar* to'lovi yig'ilgan. XIX asr oxirida uning miqdori 1,5 tangani tashkil etgan.

Xiva xonligida *zakoti bozorho* nomi bilan ataluvchi bir guruh yig'imlar mavjud bo'lib, *dallol haqi*, *tarozi puli* va *tagijoyi* to'lovlaridan iborat bo'lgan. *Tagijoy* – deb ataluvchi to'lov, xonlik bozorlarida savdo qilgan joyi uchun beriladigan haq hisoblangan. Uning miqdori kosib – hunarmandning kasbi, mashg'uloti va boshqa omillar bilan bog'liq ravishda turlicha bo'lgan. XX asr boshlari rus manbalarida tagijoy

²⁸⁷ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 404-405-409 -425-432-480-yig'ma jildlar

²⁸⁸ O'zR MA I – 125-fond, 2-ro'yxat, 441-yig'ma jild, 172-varaq.

miqdori bozordagi har bir rasta uchun 1 tillo²⁸⁹ni tashkil etgani to‘g‘risida ma‘lumotlar uchraydi. Shuningdek, rus shaqshunos olimlari bu turdagi soliq mahalliy oqsoqollar tomonidan yig‘ilganligi va devonxona tomonidan mas‘ul shaxs belgilanmaganligi qayd etadi.

Ma‘lumki, Xiva xonligida bozorlar davlatga va shaxsiy mulkdorlarga qarashli bo‘lgan. Podsholiq bozorlari nomi bilan yuritilgan 24 ta davlat bozorlaridan tagijoyi yig‘ini devonxona mas‘ul xodimi tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur ma‘lumot arxiv hujjatlarida o‘z tasdig‘ini topdi. Arxiv hujjatlariga asosan devonbegi tomonidan hududlar bo‘yicha zakot yig‘ish taqsimotida bozor tagijoyi zakoti amaliyoti Muhammad Murod devonga biriktirilgan. Shuningdek, 11 ga yaqin xususiy bozorlar ham bo‘lganki, u yerda tagijoy qasb birlashmalari oqsoqoli tomonidan yig‘ilgan va bojbonlarga topshirilgan. Bu bozorlarda tagijoyi bilan bir qatorda *dallol haqi* zakoti ham yig‘ilgan.

Quyidagi hujjat matnidan uning miqdori va shaharlar kesimida taqsimotini aniq ko‘rish mumkin. Unga ko‘ra, 1872-yilga oid *Daftari tagijāyī bāzārḥā* zakot hisobi daftarida “1290 (1872) yil tāvūshqān yilī māhī muḥarram tagijāyī va dallāl ḥaqqī zakātī daragī” ma‘lumoti keltiriladi:

Hudud	Tagijoyi	Dallol haqi zakoti
Xivaq bozori	500 tillo	500 tillo
Xonqa bozori	250 tillo	250 tillo
Urganch bozori	1900 tillo	500 tillo
Anbar Manoq	100 tillo	50 tillo
Mulali bozori	700 tillo	100 tillo
Qo‘ng‘irot bozori	150 tillo	150 tillo
Shohobod, Kat, Qo‘shko‘fir	500	150 tillo
Gurlon, Mang‘it, Qilichboy, Toshhovuz	3200 tillo	1000 tillo
25 bozor	Jami 12600 tillo ²⁹⁰	

№15-jadval. Tagijoyi va dallol haqi to‘lovlari va uning miqdori

Tadqiqotchi fikricha, daftar yakunlanmagan, chunki xonlikdagi 34 ta bozordan 25 tasi qayd etilgan. Hisobga ko‘ra, yuqoridagi bozorlardan

²⁸⁹ 1 puxta tillo – 2 kichik tillo – 18 tanga – 1 rubl 80 tiyinga teng.

²⁹⁰ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 428-yig‘ma jild, 4-varaq.

tagijoy va dallol haqi 12600 tillo *zakoti bozorho* olingan. Ammo bu hisob yakuniy emas, chunki boshqa bir hujjat²⁹¹da Xiva bozoridan 500 tillo emas, balki bu miqdordan ko‘proq tagijoy olinganligi aniqlandi.

“*Tagijāyī daftarī Khīvāq*” – deb nomlangan sanoq daftarida Xiva bozoridagi hunarmandlar, savdogarlarning nomma-nom to‘liq ro‘yxatlari va to‘laydigan tagijoy miqdori keltirilgan²⁹². Ushbu hujjatga ko‘ra, bozorlarda kosib-hunarmandlar bir jamoaga birlashib, ularga bir oqsoqol boshchilik qilgani holda savdo faoliyatini olib borgan. Hujjat matni kigizfurushlar birlashmasi bilan boshlanadi. Ularning soni 6 kishi bo‘lgan va jami 4 tillo yig‘im to‘langan. Undan so‘ng tabaqchilar 10 tillo, sartaroshlar 27 kishidan 32 tillo, 4 tillo kesir, unfurushlar 14 kishi 12 tillo, 2 tillo kesir, nonboylar, tamakifurushlar, baqqollar, misgarlar, kavushdo‘zlar va boshqalarning to‘lovlari qaydlar uchraydi. (4-Ilova).

Hujjat yakunida ushbu hunarmand-savdogarlar jami uch yuz sakson sakkiz tillo *tagijoy* to‘lagan. Shuningdek, Xivada bir turdagi mahsulotlar sotiladigan ixtisoslashgan bozorlar mavjud bo‘lgan. Ulardan quyidagi miqdorda yig‘im olingan:

G‘avocha bozori	150 tillo
kunjut bozori	160 tillo
g‘alla bozori	160 tillo
chinni bozori	32 tillo
birinj va tamoku bozori	15 tillo
baqqol bozori	20 tillo
pilla bozori	280 tilla
Jami:812 tillo ²⁹³	

№16-jadval. Tagijoyi

Daftar so‘ngida Xiva tagijoyi *majbu* 1200 tillo bo‘ldi²⁹⁴, deb qayd qilinadi.

Xonlikda istiqomat qiluvchi chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi fuqarolardan davlat yerlarida chorva boqqani uchun *cho‘p puli* to‘lovi undirilgan. Odatda bu to‘lov chorvador ko‘chmanchi aholidan olingan va

²⁹¹ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 422-yig‘ma jild, 2-varaq.

²⁹² O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 422-yig‘ma jild, 1-5-varaqlar.

²⁹³ Hujjatda fila bozori shaklida kelgan

²⁹⁴ O‘zR MA I – 125-fond, 2-ro‘yxat, 422-yig‘ma jild, 3-varaq.

Xiva xonligi davlat hujjatlarida *o't puli* shaklida uchraydi. O'z MA Xiva xonligi devonxona hujjatlaridan o'rin olgan "Podsholiq to'g'oylarida o'z mollarini boqub o'lturgon joyda fuqarolarning daftari" – deb nomlangan soliq hujjatida davlatga tegishli bo'lgan to'qayzorlarda, yaylovlarda chorvasini o'tlatganlik uchun ko'chmanchi chorvador urug'lardan o't puli undirilganligi aks etgan²⁹⁵. Manbadagi ma'lumotlarga qarab, uning aniq miqdorini aniqlash imkonsiz. Chunki uning miqdori bir necha omillarga bog'liq ravishda o'zgarib turgan. Masalan, hosil yaxshi bo'lgan yillari qozoqlar xonlik hududiga kamroq chorva bilan, aks hollarda ko'p sonli poda bilan kelgan va o'z navbatida bu to'lov miqdoriga ta'sir qilgan. Shuningdek, mazkur to'lov xonlik to'qaylarida daraxt kesilganlik uchun jarima sifatida ham olingan.

Sanoq daftarlaridan cho'p pulining aniq miqdorini aniqlashning imkoni mavjud emas. Xiva xonligi to'g'risida statistik to'plam ma'lumotlariga ko'ra, odatda har yili bu soliqdan xon g'aznasiga jami 10-15 ming rubl daromad tushganligini ko'rish mumkin²⁹⁶.

Xiva xonligida Buxoro amirligi va Qo'qon xonligida o'chramaydigan, savdo-tijorat bilan bog'liq soliq turi – *boy puli* yig'imi bo'lgan. Adabiyotlarda boy puli – xon hukumatining boylardan qarz olinib, hech qachon qaytarib bermaydigan soliq sifatida talqin qilingan²⁹⁷. Bugungi kunda Xiva xonligi tarixiga oid arxiv hujjatlarida quyidagi mazmunda hujjat uchraydi: "*Qīblagāhīmīz dām-a ūmrūhū. vizārat-panāh va sharī'at dastgāhning janāblārghā sūzīmīz ūlkīm qūy yilī Khwāja Niyāz Bāy vākālātīgha ūch yūz ṭillā bāy fūli ālmāqchi būlghān īrkānlar, Nūkarbāy bir yūz yītmīsh ṭillāsin bergān erkānlar, qālghān ṭillāsin biz hazratīmīzdīn iltīmās qīlghāy sāhīb ikhtiyār ūzlārī tūrūr mazkūr bāy tūramīzni hīzmatkārī amrlārī īla 'arznāma būldī. 1272 (1855)*"²⁹⁸. Xon devonxonasiga yuborilgan bu arznomada xonga berishi lozim bo'lgan boy pulining bir qismini berganligi va qolgan qismini o'tib berishni iltimos qilgani aks etgan.

²⁹⁵ O'zR MA I – 125-fond, 1-ro'yxat, 109-yig'ma jild, 289-varaq.

²⁹⁶ Гиришфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства... – Ч.2 – С. 34

²⁹⁷ Ёўлдошев М.Ў. Хива хонлигида феодал ер эгалиги... – Б. 146-147; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент, 2012. – Б. 401.

²⁹⁸ O'zR MA I – 125-fond, 2-ro'yxat, 434-yig'ma jild, 2-varaq.

Ushbu yig'im – sovet davri adabiyotlarida hukmdorning boylar tabaqasidan zo'ravonlik bilan, shaxsiy ehtiyoji uchun, undirilgan mablag' sifatida talqin qilingan. Arxiv hujjatlarida boy pulining aynan nima maqsadda olinganligi to'g'risida aniq izohlar mavjud bo'lmasa-da, mazkur to'lov chetga ayrim turdagi mahsulotni olib chiqish yoki xorijdan ma'lum mahsulotni xonlikka olib kirish huquqi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

XX asr boshlarida joriy etilgan boy savdogarlarning xorijga mahsulot olib chiqish va chet eldan mahsulot olib kirish uchun *fatak fūlī*²⁹⁹ – deb nomlanuvchi xizmat haqi olingan va ularning qo'llariga bu huquqni tasdiqlovchi hujjat patak berilgan. Boy puli aynan patak pulining avvalgi ko'rinishi bo'lgani ehtimoli mavjud. Tadqiqotchi mulohazasining dalili sifatida xonlikka nos mahsulotlarini olib kirish uchun patak hujjati Fathullaboy Avazboy o'g'liga berilgani³⁰⁰ misol bo'ladi. Shu kabi, choy, tamaki, kerosin, ko'mir olib kelish yoki xorijga quritilgan mevalar olib chiqish uchun ham alohida patak talab etilgan.

Yana bir to'lov bu *pasport puli*³⁰¹ bo'lib, Xiva xonligida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida joriy etilgan. Pasport ziyorat va tijorat ishlari bilan xonlik hududidan uzoq safarga chiqayotganlar, savdogarlar tomonidan olingan. Devonxonadan berilgan pasportlarning amal qilish muddati 6 oydan 1 yilgacha belgilangan³⁰².

Xonlikda pasport to'lovidan xonlik g'aznasida kelib tushadigan mablag' o'rtacha 7 ming rublni tashkil etgan³⁰³. Tadqiqot doirasida o'rganilgan hujjatlarda xorijga tijorat maqsadida chiquvchi fuqarolardan pasport to'lovi uchun 1 tillodan olingani aniqlandi.

Savdo-tijorat bilan bog'liq davlat foydasiga undiriladigan yana bir to'lov *tarozi puli* hisoblangan. Xiva xonligida podsholiq bozorlarida davlat tarozilari o'rnatilib, undan foydalanganlik uchun ma'lum haq to'langan. V.Girshfeld tarozu pulini asosiy soliqlar tarkibiga kiritadi. Xiva xonlari arxivida tarozi puli bilan bog'liq kam sonli hujjatlar mavjud. M.Yo'ldoshev buni odatda bu soliqni yig'ish bilan shug'ullangan

²⁹⁹ Savdogarlarning tijorat faoliyati bilan shug'ullanishi uchun haq

³⁰⁰ Ichan Qal'a muzey qo'riqxonasi arxivi, № 36/26 raqamli hujjat

³⁰¹ Hujjatlarda boshfurt fuli shaklida keladi

³⁰² Ichan Qal'a muzey qo'riqxonasi arxivi, № 39/91 raqamli hujjat

³⁰³ Гиришфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства... – Ч.2. – С. 34

bojmonlar daftar tutmaganligi va suis'temolliklarga yo'l qo'yilganligi bilan izohlaydi. Tadqiqot jarayonida tarozu puli bozor tarozilari jismoniy shaxslarga ma'lum muddatga ijaraga berilganda undirilgani aniqlandi. Masalan, 1289 (1872) yil Gurlan bozoridagi bug'doy, jo'xori tarozilarini 120 tilloga, kunjut tarozisi 90 tilloga, g'o'za tarozisi 80 tilloga, sholi tarozisi 50 tilloga berilgani³⁰⁴ qayd etilgan.

“1289 (1872) yil māhī muḥarramdā Gurlāndīn ṭanga ūndūrūb, Khūdāynazar maḥramgha bīrghānīmīz daragī” nomli hujjat Gurlon tagijoyisi, muanat puli va tarozi puli to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlari bilan ahamiyatlidir. Ushbu daftar tahlili Gurlonda tarozu puli mahsulot bilan olingani va bojmon tomonidan yig'ilgan mahsulotlar sotilib, puli devonxonaga jo'natilganini ko'rsatadi. Unga ko'ra, bug'doy bilan jo'xori tarozining 120 tilloga, sholi tarozisi 50 tilloga, kunjut tarozisi 90 tilloga, g'o'za tarozisi 80 tilloga sotilgan³⁰⁵. Keyingi sahifalarda Gurlondagi qassoblar, temirchilar, ipakchilar, xo'jalar do'konidan, Do'simbiy bozoridan³⁰⁶ jami tanga tarozi bilan 800 tillo undirilgani haqida ma'lumot beriladi.

Shuningdek, fuqarolar bozor tarozisi ijaraga olishi va u orqali daromad qilishi mumkin bo'lgan. Arzdosht mazmunidagi hujjatda fuqaro Avazbek ibn Yusuf Qo'ng'iro't bozori tarozisini 10 oy muddatga 665 tilloga olib, nishonasini olganligi, ammo 4 oy muddat o'tgandan so'ng bozor buzulib, tijoratchi zarar ko'rgani va davlatdan muammosiga yechim so'ragani³⁰⁷ aks etgan. Yuqorida qo'rib chiqilgan ikkita hujjat mazmunidan anglashiladiki, tarozu pulining miqdori aniq bo'lmaganligi, uning ro'yxatga olinmasligi bojmonlarning poraxo'rliги bilan emas, balki bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlashiga ishora qiladi. Manbalar asosida tarozu puli miqdori bozorning xususiy yoki davlatga qarashliligi, mahsulotning turi va sifatiga ko'ra farq qilganligini anglash mumkin bo'ladi.

³⁰⁴ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 431-yig'ma jild, 1-7 varaq

³⁰⁵ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 431-yig'ma jild

³⁰⁶ Biy bozorning xalq tilida nomlanishi

³⁰⁷ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 138-yig'ma jild

Majburiyatlar va u bilan bog'liq yig'imlar

Xiva xonligida asosiy soliqlar, to'lovlar va yig'imlardan tashqari mehnat majburiyati ham bo'lib, umumiy nom bilan *begar* – deb nomlangan. Muhammad Rahimxon I (1806-1825) hukmronlik davrida xonlik sug'orish tizimida suvdan foydalanuvchilar *jabdi* – deb ataluvchi kichik hududiy jamoalarga bo'lingan. 1 jabdining hajmi 10 tanob etib belgilanadi. Unga ko'ra, 10 tanob yerni sug'oruvchi uchun suv miqdori 1 suv yetarlicha, deb hisoblangan va har su dan bitta qazuchi olinishi tartibi joriy etiladi³⁰⁸.

Xiva xonligida yerga ishlov berish sun'iy sug'orishga asoslangan bo'lib, Amudaryodan boshlanuvchi yirik magistral kanallar *arna*, undan kichikrog'i *yof*, katta-kichik ariqlar *jo'y* yoki *jo'ycha* atamallari bilan nomlanib kelgan³⁰⁹.

Mehnat majburiyati *qāzū*, *qāchū*, *qāfrūkchī*, *ābkhurī qāzūdan* iborat bo'lgan. Yerning qaysi turiga kirishidan qat'iy nazar, 1 su miqdordagi yerlardan bir ishchi yuborish tartibi amal qilgan³¹⁰. Mazkur hujjatdan mulkdorning yeri atoyi, yorliqli bo'lishi, shuningdek mavqei va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, u mehnat majburiyatini bajarishi lozimligini anglash mumkin.

Biroq xonlikdan mehnat majburiyatidan ma'lum to'lov evaziga ozod bo'lish, bir yil muddatga *biqazu* maqomini olish amaliyoti ham mavjud bo'lgan va bu sanoq daftarlarida tez-tez uchrab turadi³¹¹. Uning miqdorini aniqlash maqsadida hududlar kesimida turli yillarga tegishli hujjatlarni tadqiq etish jarayonida aniq bo'ldiki, yer egasining mavqei, yer egaligi turiga ko'ra *biqazu* miqdori turlicha bo'lgan.

Davlat va vaqf yerlari ijarachilari solg'ut to'lashi bilan bir qatorda 12 kunlik qozu yoki qochu mehnat majburiyatini bajarishi talab etilgan. Obxo'rda ishtirok etishni xohlamagan mulkdorlar 1 puxta tillo evaziga inoyatnoma olgan va biqozu mulkdorga aylangan³¹².

XIX asr oxiriga oid solg'ut qaydlari hujjatida vaqf yerlarida ishlovchilar ham inoyatnomaga ega bo'lmasa, bir kishi 12 kun begar

³⁰⁸ Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи... – Б. 56

³⁰⁹ Абдурасулов У.А. Земельные отношения в Хивинском ханстве... – Б. 182

³¹⁰ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 458-yig'ma jild, 1-varaq

³¹¹ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 426-432-441-456-447-448-480-yig'ma jild

³¹² O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 442-yig'ma jild.

qozuvida qatnashishi talab etilgan³¹³. Xususan, “1337 (1918) yildin bāshlab Khīva tābīdīn ālīngan 20 manāt sū fūlīnīng daftari” nomli sanoq hujjatida masjid qavmlari necha su birligini tashkil etishi va olingan su puli miqdori rasmiylashtirilgan. Unga ko‘ra, masjidi Toshoyoq 34 suv ila 4,5 tanob, 1 suv 20 manotdin Muhammad Nazar oqsoqoldin olindi. Masjidi Oqyof vaqfchilari 62 suv ila 2 tanob, 1244 manot Otaniyoz oqsoqoldin olindi³¹⁴, deb qayd qilingan.

Xiva xonligida harbiy xizmatchilar – sipohi va navkar yer-mulklari soliqqa tortilmagan. Ammo bu soliq imtiyozi ularni podsholiq qozuvidan ozod qilmagan. Begarda qatnashmalik uchun xonlik fuqarolari singari inoyatnoma olishi kerak bo‘lgan, biroq sipohilar uchun bunday inoyatnoma miqdori 5 tilloni tashkil etgan. Otliq yer berilgan turkman harbiylari, solg‘utdan ozod qilingan sipohilar ham o‘zlari egalik qilayotgan yerdan (ishlov bergan bermaganidan qat’iy nazar) arna yofga qozuchi yuborish vazifasi yuklatilgan. Xiva xonligi devonxona hujjatlarida Tosh oyoqni sipohilari 15 nafar-chahor yek kam 8 suv 39 tillo olindi, har suv 5 tillodan. Beshg‘onak yofdan yer tutgan sipohilar chahor yek kam 43 suv 213 tillo 7 tanga olindi, mazkur yofning ma’oflari 5,5 yorim suv, Hosiyon yofning sipohilari 27,5 tillo, Oq yofni sipohilari 116 tillo olindi³¹⁵, deb yozilgan qaydlar buni misolidir. Hujjatdagi ma’lumotlarga qaraganda, jami 395 tillo 12 tanga yig‘ilib, xazinaga yuborilgan. Shuningdek, ular orasida 5,5 suv ya’ni, 55 tanob yerga egalik qiluvchilar ma’ofga egaligi ma’lum qilingan. Hujjatda shuningdek, xon, to‘ralar va saroy amaldorlariga tegishli mulklardan olingan pullar to‘g‘risida ham so‘z boradi: “*Hazratimīz dām-a davlāthū sū va Muḥammad Rahmān tūra 3 suv – ma‘āf ālinmaghān, Muḥammad jān maḥram 1 suv va bāshqa amaldārlar jami 64 suv fulī 320 ṭillā*” shaklida. Xonning va to‘ralarning yerlarida ijarada ishlovchilar ham qozuga jalb etilganligi va ularning hech biri xondan ma’of olmaganligini ushbu hujjat dalillaydi.

Begarning ommaviy ekanligini yana quyidagi hujjatda ham ko‘rish mumkin. Unga ko‘ra, 1333 (1914) yil mohi rabbi us soniyda yasovulboshi

³¹³ Ichon-Qal’a muzey qo‘riqxonasi axivi, № 36/91raqamli hujjat

³¹⁴ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 469-yig‘ma jild, 57-63-varaqlar

³¹⁵ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 477-yig‘ma jild, 7-8-varaq

tomonidan yasovullarga berilgan buyruq³¹⁶da obhurlarga taqsim hatida keltirilgan yasovullar mas'ulligi "...*khwāja, īshān va yārliqārlār qāldirmāy bütūn ālib qāzūgha sālūnlar āfānak har ādamgha 2.5 tangadin ālūnlar, āndīn ghāyri, qūnūq, talab etmāsīnlar. Yasāvullarga berilgan yuz kīshīdīn 1 tangadin qārāvulchilik ālsūn bāshqasīdīn ālmasūn*", degan qaydlar keltirilgan.

Xonlikda mehnat majburiyatining qozudan tashqari *qochu* va *ko'fruju* ko'rinishlari mavjud bo'lgan³¹⁷. Qochu – dambalarni tiqlash va yangilarini barpo etish, qo'fruju – ko'priklar qo'rish, nosozlarini ta'mirlash uchun aholi orasidan yilda bir marotaba 9 kunga mehnatga jalb qilish hisoblangan. Qozug'a yuborilganlar bu ikkisidan ozod etilgan.

Har yilgi majburiyatlarga aholini taqsimlash uchun maxsus daftarlar yuritilgan. Masjid qavmlari kesimida qozuga, qochuga va ko'frujuga qancha beldor ajratilishi belgilab olingan³¹⁸. Unga ko'ra:

Masjidi Said Muhammad xalifada	16 qochuchi
Masjidi Muhammad Solihboy	49 qochuchi
Masjidi Qozi Toji Qarohboy	19 ko'fruju
Masjidi Muhammad Amin	12 kozuchi
Masjidi Usto Xo'ja Niyoz	28 qozuchi
Jami 20 ta masjid qavmidan	300 ta qozuchi, 169 ko'fruju, 132 ta qochuchi

№17-jadval. Mehnat majburiyati bo'yicha taqsimot

Daftar shu tariqada davom ettirilib, Shohobod, Anbar Manoq, Toshovuz, Mo'lali hududlaridagi masjid qavmlari va ular taqdim etishi so'ralgan qozuchi, qochuchi, ko'frujilar aniq raqamlar bilan qayd etilgan.

Qozudan farqli ravishda qochu va ko'frujuga yuborilgan beldorlardan yasovullar foydasiga afanak puli va boshqa hech bir haq talab etilmagan. Belgilangan 9 kun muddat tugagandan so'ng, ularni qozuga jalb etish taqiqlangan³¹⁹.

Qishloq xo'jaligida solg'ut solig'ini yig'ish jarayoni mahalliy ma'muriyat kuzatuvida xonlik devonxonasidan maxsus tayinlangan

³¹⁶ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 456-yig'ma jild

³¹⁷ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 463-466-475-yig'ma jild

³¹⁸ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 475-yig'ma jild, 26-varaq

³¹⁹ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 456-yig'ma jild, 7-varaq

mirzalar boshchiligida olib borilgan. Ayrim hollarda ularga navkarlar hamrohlik qilgan. Soliq yig'ish jarayoni harajatlar bilan kechganligi tufayli soliq to'lovchi xo'jaliklardan davlat majburiy to'lovi bilan birga 1,5 tanga miqdorida undirilgan. Bu miqdor a'lo, avsot, adno ho'jaliklari uchun barobar bo'lgan. Yiliga choparlardan 7 ming kichik tillo atrofida yig'ilgan. Masalan, 1912-yil solg'ut puli 73173 tillo yig'ilgan bo'lsa, uning chiqori 7089 tilloga teng bo'lgan³²⁰.

Rus sharqshunos olimi A.Kun solg'ut yig'imi vaqtida mushriflar o'z foydasi uchun aholidan *imom puli* yig'ilishini ma'lum qiladi³²¹. O'rganilgan hujjatlar qiyosiy tahlili soliq yig'ish jarayonida solg'ut bilan birga imom puli va yig'implari amalga oshirilganini isbotladi. Soliqlarni boshlash uchun xon tomonidan e'lon qilingan muboraknomada "...sālgūt, chāpar fūlīnī har ādamghā 1,5 ʔangadīn va īmām fūlīnī 9 ʔangadin ālūnglar, āndīn ghāyrī harajāt dīb fūqarālārdīn mūanat ālmangīzlār"³²², degan mazmundagi e'lonni ko'rish mumkin.


Davlat yig'implari qaydlariga oid hujjatlardan farqli ravishda, imom pulining qancha yig'ilganligi to'g'risida ma'lumot uchramaydi. Yuqorida keltirilgan xon muboraknomasidan boshqa rasmiy hujjatlarda imom puli atamasiga duch kelinmadi. Mulk yerlari egalari atoyi mulkdorlar va yorliqli mulk yeri egalaridan har bir xo'jalik hisobiga olingan bo'lsa, imom puli yig'imiga doir ma'lumotlar yetishmovchiligi, uning mahalliy ma'muriyat uchun yig'ilganligi to'g'risidagi axborot bilan cheklanishga sabab bo'ladi. Quyida xonlikda soliqlardan tashqari yig'implar ulushi keltirilgan.

Xonlikdagi dehqonchilikda asosiy soliq – solg'ut xususiy yerlardan mulkdorning ijtimoiy toifasiga ko'ra tabaqalashtirilgan holda olingan. Xonlikda asosiy o'lchov birligi tanobni tashkil etgan. Podsholiq va vaqf yerlaridan ushr yoki dahiyak solig'i xiroj ko'rinishida olingan. Soliq to'lovchining ixtiyoriga ko'ra, ushr o'rniga ijarachi o'zini mulkdorlar ro'yxatiga kiritib, solg'ut to'lovchiga aylanishi mumkin bo'lgan.

³²⁰ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yhat, 452-yig'ma jild, 29- varaq

³²¹ Кун А. Заметки о податях в Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости– 1873. – №32 –С.125-127

³²² O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yhat, 448-yig'ma jild, 1-varaq



№18-jadval. Xonlik xazinasida to'lovlarning ulushi

Xiva xonligida yana bir asosiy davlat majburiy soliqlaridan biri – zakotning soliq olinadigan ob'ekt turiga ko'ra *zakoti savoim* va *zakoti tujjarchidan* iborat bo'lgan. Xonlikdagi chorvadorlardan olinadigan zakot turi *zakoti savoim* – deb atalib, uning kimlardan olinishiga ko'ra *zakoti so'landli*, *yurt chorvasi zakoti* singari ko'rinishlari mavjud bo'lgan.

Xiva xonligida tijoratchilardan *zakoti tujjarji* solig'i olinib, uning *zakoti buxarjiy*, *zakoti ung'urchiy*, *zakoti qal'achi* singari ko'rinishlari mavjud bo'lib, soliq miqdoriga va savdoning qanday mahsulot bilan amalga oshirilayotganligiga ko'ra farqlangan.

Xonlikda asosiy soliqlardan tashqari to'lov va turli yig'imlar joriy etilgan bo'lib, to'lovlar fuqaroning *faoliyat turi*, *daromad manbai*, *foydalanayotgan xizmat turidan* kelib chiqib belgilangan. Xususan, daryodan o'tkazilganlik uchun – *kashtibon* yoki *qayyuqchi puli*, xorijga chiquvchi shaxslarga devonxona shaxsni tasdiqlovchi hujjat tayyorlab berganligi uchun *pasport puli*, yorliq yozib berilganlik uchun – *yorliqona*, *kotibona*, *nikohona*, *tarkona* singari yig'imlar aslida xizmat evaziga to'lov sifatida talqin qilish mumkin.

III BOB. MANBALARDA XIVA XONLIGI SOLIQ TIZIMI O'ZGARISHLARI VA ISLOHOTLARI BAYONI

3.1. Xonlikda yangicha soliq munosabatlarining shakllanishi.

XIX asr so'nggi choragida Xiva xonligi soliq tizimida qator o'zgarishlar yuz berdi. Ularning ayrimlari islohotchilik harakatlari natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, ba'zilar 1873-yilgi Rossiya imperiya bilan imzolangan tinchlik shartnomasi bog'liq ravishda kechdi.

Rossiya imperiya tomonidan O'rta Osiyoni istilo qilinishining uchinchi bosqichi davomida Xiva xonligi bosib olingach, 1873-yil 12-avgustda Xiva shahri yaqinidagi Gandimiyon qishlog'ida fon Kaufman va Muhammad Rahimxon II o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi³²³.

1873-yilgi Gandimiyon shartnomasi Xiva xonligining siyosiy mustaqilligi bilan bir qatorda uning hududiy yaxlitligiga ham daxl qildi. Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarda Turkiston general gubernatorligiga qarashli Amudaryo bo'limi tashkil etilib, Xiva xonligining 75 900 kv. verst³²⁴ hududi Amudaryo bo'limi tarkibiga kiritildi. Xonlikning o'zida esa 54 690 kv. verst yer maydoni qoldirildi. Bu nafaqat mamlakatning 56,7 % hududi, balki xonlikning asosiy daromad manbai, ya'ni soliq to'lovchilarning ham teng yarmini yo'qotilganligini anglatardi.

Xiva xonligining urushdagi mag'lubiyati, siyosiy qaramlik va iqtisodiy inqirozga ham olib keldi. Rossiya imperiyasi g'olib davlat sifatida hududda o'z fuqarolari manfaatlarini himoya qilib, rus tijoratchilari uchun foydali yangi soliq tartiblarini joriy eta boshladi. (6-ilova)

Gandamiyon shartnomasida Rossiya imperiyasi savdogarlarlari xonlikda ulgurji va chakana savdo qilishidan qat'iy nazar, xonlik g'aznasiga hech qanday to'lov to'lamasligi, bozorlarda savdo qilganlik holatida ham bozor to'lovlarini to'lamasliklari belgilab berildi. Shartnomaning 9 – bobida: “Khīva mamlakatīda tūrīb savdā qīla tūrghān ūrīs savdāgarlarī zakāt bīrmakdīn va savdā tūghrīsīdagī har tūrliq ūzghā chīiqīmlārdin xalās būladūrlar. Chūnānchī, Khīva savdāgarlarī kūp zamāndīn būyān, Ārīnbūrg va ham Īshtarxān dīngizī tūxtay turghān jīrdā zakāt bīrmās īrdī”³²⁵, deb qayd

³²³ O'zR MA I – 1-fond, 27-ro'yxat, 7-yig'ma jild, 1-varaq

³²⁴ 1 verst – 1,066 km. ga teng.

³²⁵ Ichon-Qal'a davlat muzey qo'riqxonasi arxivi, № 32/43 raqamli hujjat, 1-varaq

etildi. Rus savdogarlaridan xonlik hududida savdo-tijorat faoliyatining soliqqa tortilmasligi, xivalik savdogarlar ham Rossiya hududida bojsiz savdo qilganligi bilan izohlaydi. Shuningdek, rus savdogarlari mahalliy ma'muriyatdan karvonboshi ta'yin etish, mol-mulkini saqlash uchun omborxonalar so'ragan taqdirda, to'liq ta'minlanish huquqiga ham ega bo'ldilar.

1873-yilga qadar rus savdogarlari xonlik hududiga chetdan olib kirilgan mahsulot uchun 5 % miqdorda boj to'loviga tortilgan. Yangi kelishuvga ko'ra, rus savdogarlarining chetdan olib kirgan har qanday mahsuloti boj to'loviga tortilmasligi, agar savdogar ixtiyor etsa, xonlik hududidan boshqa yurtlarga karvonini olib o'tishida ham hech qanday to'lov to'lamasliklari belgilandi. Bu shartnomada qo'yidagicha aks etgan: “*Ūrīs savdāgarlārī Khīva mamlakātī ārqalī barchā hamsāyā yīrlarghā māllarīnī bāj bermasdan ālib ūtmāqghā īxtīyār bülādūr*”³²⁶.

Rossiya fuqarolaridan xonlik bozorlarida yoki karvonsaroylarda joylashgan do'konlarda chakana savdo qilganda mahsulotning 1/40 miqdorda zakot va bozor to'lovlari olish ham man etilgan. Shunday qilib, Gandamiyon shartnomasiga asosan rus savdogarlarining boj, zakot, bozor to'lov va yig'imlaridan ozod etilishi, mahalliy tijoratchilardan yaqqol ustunligini qonuniy belgilab berdi.

1873-yilgi hududiy bo'linishdan keyin, Amudaryo bo'limida yashovchi tub millat vakillari ham o'zlarini rus fuqarolari sanab, Xivada soliqlarsiz savdo qilish huquqiga da'vo qilib, soliq to'lashni to'xtatadi³²⁷. Soliq imtiyozlarini qo'lga kiritish va xonlikda soliq to'lamasdan tijorat faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida hatto ayrim xivalik savdogarlar ham Amudaryo bo'limi hududiga o'tish holatlari kuzatilgan.

Xiva xonligi soliq tizimida Rossiya imperiyasi bosqinidan keyingi dastlabki yillar fuqarolarning davlat majburiy to'lovlaridan qochish, turli yo'llar bilan soliq imtiyozlarini qo'lga kiritish yoki umuman to'lamaslik singari salbiy holatlar avj olganligi bilan kechdi. Huquqiy hujjatlardagi noaniqliklar, ularni talqin qilishdagi xatoliklar, “imtiyozlilar” sonining oshib borishiga olib keldi.

³²⁶ Ichon-Qal'a davlat muzey qo'riqxonasi arxivi, № 32/43 raqamli hujjat, 1-varaq

³²⁷ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 14-yig'ma jild, 28-varaq

1894-yilda Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Rossiya imperiyasi yagona bojxona tizimiga kirishini nazarda tutuvchi shartnoma imzolaydi. Bu shartnoma ham, avvalgisi singari, xonlik ichki va tashki savdodagi ko'pgina soliq imtiyozlarga ega imperiya savdo-sanoat vakillari manfaatlarini himoya qilardi. Shu oyning o'zida xon Xiva xonligining Rossiya imperiyasi bojxona tizimiga kirganligi to'g'risida manifest e'lon qilib, xon hukumati xonlik hududi va uning tashqarisida ham bojxona xodimlariga do'stona ko'maklashish majburiyatini oldi. Shartnoma 1895 yilning 1 yanvaridan kuchga kirishi belgilanib, Xiva – Rossiya bojxona shartnomasida xonlikka chetdan mahsulot olib kirishini nazorat qiluvchi Ashhobod, Uzunadin hamda Amudaryo bojxona postlari tashkil etildi³²⁸. Xiva xonligining Rossiya imperiyasi bojxona tizimiga kiritilishi xonlik soliq tartiblariga daxl qildi.

1895-yildan chet el tovarlarni faqat bojxona postlari orqali, qadoqlangan mahsulotlarni ustiga "tamg'a" urilgan belgi bo'lgan holda, olib kirishga ruhsat etildi. Shu bilan birga, Amudaryo bo'ylab harakat qilgan kemalardan xon xazinasi foydasiga olingan boj solig'i bekor qilindi. Chunki har bir o'tish joyidan imperiya foydasiga haq olinganligi sababli ikki marta soliq olish qonunga zid, deb qaraldi.

Xonlikning Rossiya yagona bojxona chizig'iga kiritilishdan ko'zlangan asosiy maqsad rus sanoat mahsulotlariga raqobatchi ingliz tovarlarini chiqarib yuborish bo'lgan. Shu sababdan Hindiston tovarlariga, Eron va Afg'oniston orqali olib kelinayotgan Yevropa tovarlariga yuqori bojlar o'rnatilib, ayrim tur mahsulotlar umuman taqiqlanadi. Shariat tartiblari asosida musulmon davlatlari bo'lgan Turkiya, Eron va Afg'onistondan 2,5% miqdorda olingan boj to'lovi 5%ga ko'tariladi³²⁹. Bu esa chetdan keladigan birlamchi iste'mol mahsulotlari narxining keskin oshib ketishiga sabab bo'ladi. Masalan, O'rta Osiyo xalqlarining sevimli ichimligi – ko'k choyni har pudiga 14,4 rubl boj to'lovi o'rnatilganligi, 1895-yilda ko'k choyni narxi 60 rublga ko'tarilishiga olib keladi. Choy narxining ko'tarilishi, bozorlarda bu mahsulotga talabning oshishi, uning yetishmovchiligi sohadagi

³²⁸ Почекаев Р.В. Включение Бухарского эмирата и Хивинского ханства... – С. 172–184.

³²⁹ Почекаев Р.В. Включение Бухарского эмирата и Хивинского ханства... – С. 180.

suiste'molliklar, talonchiliklar bilan kechadi. Masalan, Ashxobod u'ezdi fuqarosi turkman Bobo Shonazar o'g'lining arzdoshtida shunday holat yuzasidan savdogarlar ko'p zarar ko'rayotgani va ma'muriyatdan adolat o'rnatish so'ralgan. Arizada Xiva bozorida Husayn Matmurodbek devonbegi tomonidan ushlangan rus fuqarosi Toshxovuz bozorida sotish uchun olib ketilayotgan choyidan 36 manot zakot olgani va qayta o'lchanganidan so'ng 4 pud choy kamayganligi ma'lum qilingan³³⁰. Bojbonlar bunday og'ir vaziyatda Hindiston va Xitoy ko'k choyini aksiz mahsuloti sifatida soliqqa tortishni to'g'ri, deb hisoblaydilar.

Bu singari mahsulotlar narxining keskin oshirilishi, ayrimlariga qo'yilgan cheklovlar, mamlakat hududida noqonuniy tovarlar aylanmasini keltirib chiqardi. Xonlik iqtisodiga jiddiy zarar beruvchi kontrabanda dolzarb muammoga aylanadi. XIX asr oxirida Ko'hna Urganchda o'z omborlarga ega bo'lgan kontrabanda tarmog'i yaratilib, u yerdan bu tovarlar butun O'rta Osiyo bo'ylab, hatto imperiya sarhadlarigacha tarqatilardi³³¹.

Rossiya bojxona chizig'i bo'ylab, birlamchi ehtiyoj tovarlari hisoblangan ayrim mahsulotlar boj to'lovidan ozod etilgan. Bug'doy, go'sht va sut mahsulotlari, o'tin va ko'mir daromad manbai emasligi, ular inson hayoti uchun zarur mahsulotlar bo'lganligi uchun to'lov olinmagan³³².

Xiva xonligining Rossiya bojxona chizig'iga kiritilishi uzoq yillar davomida Hindiston, Xitoy, Eron, Turkiya hududlaridan olib kelingan mahsulotlar taqchilligini keltirib chiqardi. Yuqori boj tariflariga javoban bu davlatlar ham xonlik mahsulotlariga boj to'lovini oshirishdi. Masalan, Afg'on amiri Abdurahmon Rossiya bojxona tizimiga kiruvchi davlatlardan Afg'on hududiga olib kiritilayotgan mahsulotlarga 10 % lik boj joriy qilgan³³³.

Natijada ichki bozorda narx – navoning oshishi natijasida mahsulotlar sun'iy taqchilligi yuzaga keldi. Bunday vaziyatda yana bir muammo, xonlik tanga pullarining qadrsizlanish jarayoni boshlanadi.

³³⁰ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 248-yig'ma jild, 3-varaq

³³¹ Ниязматов М. Поиск консенсуса. Российско-хивинские геополитические отношения в XVI – начале XX в. – СПб., 2010. –С. 165

³³² Почекаев Р.В. Включение Бухарского эмирата и Хивинского ханства... – С. 178

³³³ Почекаев Р.В. Включение Бухарского эмирата и Хивинского ханства... – С. 172–184.

Xonlik tanga pullarining bahosining pasayishiga nisbatan savdogarlar hukumatdan biror chora ko‘rishini so‘rab murojaat qiladi: “ ‘ālī janāb qiblāgāh ḥaẓratimīz dām-a davlātuḥuning janābī ‘ālīlārighā savdāgar fūqarālārīdīn arīzā bā tarīqā tūrūr yurtīmīzdā yūrīb tūrghān tanganing rāsiyā qāghāz manāti īl barābar yūrībdūr. Bizlār ham ūrūsiyādin māl keltirūb har manāti 5 tanga ḥisābīdīn 4 – 5 tūyīn fāydā bīlān khalqlārghā fāydālī sātīb ālishlārīmīznī shū ravish īlā yūrgūzūb tūrūrmīz... āgar būndīn past būyūrsālār fūqarālārghā, ghallā va bāshqā nimārsālār ālā tūrghān khalqlārghā bahāsi ūshbū ḥisābdīn zīyāda būlūb kūb zarār būlādūr”³³⁴. Ariza yakunida xondan marhamat kutishlarini va murojaatlarini javobsiz qolmasligini tilab, Xiva savdogarlari ro‘yxati va ularning karvonboshisi Vaisbobo Yoqub o‘g‘li muhri tushirilgan.

Bu kabi omillar nafaqat kichik savdogarlar, balki o‘rtahol tijoratchilar savdosiga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan. Shunday vaziyatda xonlikdagi savdo-sanoat vakillari hukumatdan chora ko‘rishini talab qila boshlaydi.

1873-yil xonlik rus savdogarlaridan zakot olishdan mahrum etilgan bo‘lsa, 1895-yildan boj va boshqa turli to‘lovlar talab qilish ham man etiladi. Shuningdek, rus korxonalari bilan bitim tuzgan tijoratchilar ularning sheriklari sifatida soliqdan ozod etilishi, xonlik daromadlarining keskin kamayishiga olib keldi. Amudaryo muzofotida istiqomat qiluvchi tub joy vakillari ham o‘zlarini imperiya fuqarolari sifatida turli soliqlarni to‘lashdan bosh tortishi va xonlikdan bo‘limga ko‘chib o‘tganlar ham shunday imtiyoziga egaligini da‘vo qilib, xonlikda savdo faoliyatini yuritganligi holda soliq to‘lamayotganlarning ko‘payib ketganligi soliq tizimini isloh etish davri kelganligini anglatardi.

Xonlik tijoratchilari ham Rossiyaning aybi bilan xonlikka olib kirilayotgan ko‘plab tovarlarning narxi oshganligi sababli, xonlik hududidagi rus savdogarlari va ishlab chiqaruvchilarining o‘zidan kompensatsiya, soliq va yig‘imlar olinishi kerakligini talab qilishadi. Xonlikda yuzaga kelgan bu vaziyat eskirgan shartnoma shartlari qayta ko‘rib chiqish vaqti kelganligi va dastlabki fiskal o‘zgarishlarni nazarda tutuvchi muzokalar boshlanishi uchun asos bo‘ladi.

³³⁴ O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 604-yig‘ma jild, 25-varaq

Imperiya fuqarolariga berilgan soliq imtiyozlari shakllanib borayotgan Xiva burjuaziyasi va yirik zamindorlar vakillarining qattiq qarshiligiga sabab bo'ldi. Shuningdek, Rossiya kapitali tomonidan barcha tashqi va ichki savdoning bir qismini monopollashtirish natijasida manfaatlari sezilarli darajada buzilgan o'rta va kichik tadbirkorlar 1895 yilda hukumatdan tashqi siyosat yo'nalishida soliqlar masalasini qayta ko'rib chiqishni va milliy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlashni qat'iy talab qildilar³³⁵.

Xiva hukumati avj olgan ijtimoiy keskinlik mamlakatdagi siyosiy vaziyatga salbiy ta'siridan qo'rqib, mahalliy ishbilarmon doiralarning bu tashabbusini qo'llab quvvatladi. Ichki savdo sohasidagi fiskal siyosatdagi taklif qilingan o'zgarishlarni qabul qilishga rozi bo'ldi. Ularning maqsadi Rossiya va Xiva korxonalarining turli xil savdo to'lovlarini to'lashni tartibga solish huquqlarini tenglashtirish edi.

1895-yilda Muhammad Rahimxon II Amudaryo bo'limi boshlig'iga yuborgan xatida Rossiya tobeligga o'tgan va rus fuqarosi sanalgan tadbirkorlarni xonlikda qabul qilingan barcha soliqlarni to'lash majburiyati yuklaganligini hukumatiga xabar berdi. Xon bu harakatlarini Gandamiyon tinchlik shartnomasining 9 – bandining noto'g'ri talqin qilinishi natijasida xonlik fuqarolari Amudaryo bo'limiga ko'chib o'tib, soliqlardan bosh tortish holatlari ko'payganligi bilan izohlaydi: “Bīznīng ba'zī fūqarālārīmīz ārqā tarafghā ūtib, daftarlārghā yāzūlūb, ūrūs fūqarāsī būldīlār. Māzkur ishlāri īlā bīznīng fūqarālīkdīn kītīb, khāzīnāmīzghā sālgūt va zakāt qāchūrūrlār”³³⁶.

Xon murojaatida Gandamiyon shartnomasi barcha Rossiya fuqarolari emas, balki rus savdogarlarini zakot va barcha turdagi to'lovlardan ozod qilinishi nazarda tutganligi, keyinchalik fuqarolikni olganlarga nisbatan bu tartibni qo'llash joiz emasligi ta'kidlanadi. Soliq imtiyozlari Rossiyaning protektoratlaridagi rus fuqaroligini olgan boshqa millat vakillariga nisbatan qo'llashni ko'zda tutmaganligi sababidan, ular xonlikdagi barcha soliq va to'lovlarni barcha qatori to'lash tartibi joriy qilinadi. Tadqiqot jarayonida o'rganilgan hujjatlarda xonlik bozorlarida

³³⁵ Ниязматов М. Поиск консенсуса. Российско-хивинские геополитические отношения в XVI – начале XX в. – СПб., 2010. – С. 324

³³⁶ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 14-yig'ma jild, 28-varaq

Amudaryo bo‘limida istiqomat qiluvchi fuqarolardan zakot olinganligi va bundan norozi fuqarolarning A.Galkin (1855-1920) nomiga arizalari dalillaydi.

Shuningdek, rus savdogarlarining soliq imtiyozini belgilovchi tinchlik shartnomasining 9 – bandidan boshqa huquqiy hujjatning mavjud emasligi, soliqlarsiz savdoning aynan kimlarga qo‘llanilishi, keyinchalik tobelikka o‘tgan va fuqarolikni qabul qilgan o‘zga millat vakillari masalasi noaniqligicha qolmoqda edi. Huquqiy hujjatdagi bunday bo‘shliqlardan ko‘plab “uddaburonlar”ning, savdo va xaridlar operatsiyalarini manipulyatsiya qilish davlat soliqlarini to‘lamaslik uchun foydalanib qolishiga imkon yaratayotganligi, muammoning huquqiy yechimini topish zaruratini keltirib chiqardi.

Shu masala yuzasidan 1896-yilning 4-noyabridan Amudaryo bo‘limi ma’muriy markazi Petro – Aleksandrovska muzokaralar boshlandi. Xiva xonligidan delegatsiyaga Polvon Niyoz Muhammad devonbegi boshchiligidagi Sa‘dullaboy Tillyaboev, karvonboshi Vaisbobo Yaqubboy o‘g‘li singari yirik savdo – sanoat vakillari kiritildi. Amudaryo bo‘limi tarafidan M. K. Manuilov, rus fuqaroligini olgan asli xivalik savdogarlar B. Aminov va T. Salimjonovlar ishtirok etdi. Amudaryo bo‘limi boshlig‘i A.Galkin boshchiligidagi muzokaralarning dastlabki kuni Xiva delegatsiyasi tomonidan ko‘tarilgan asosiy masala Gandamiyon shartnomasining 9 – bandiga doir bo‘lib, kimlarni rus fuqarosi sifatida tan olish va soliq imtiyozlarini taqdim etish muammosi bo‘ldi. Ushbu moddani sharhlashda turli tushunmovchiliklar yuzaga kelayotganligi, shartnomada soliq imtiyozlari faqat rus savdogarlariga berilganligi uchun Amudaryo bo‘limi fuqarolari yoki Turkiston general gubernatorligida yashovchi Rossiya fuqaroligi qabul qilgan turli millat vakillariga bu imtiyozni qo‘llamaslik, shartnoma bandlarini qayta ko‘rib chiqish tavsiya etiladi. Rossiya imperiyasi fuqarosi bo‘lgan boshqa millat vakillarini soliqqa tortish kun tartibiga qo‘yiladi. Shuningdek, Xiva savdogarlarining Rossiya savdo-sanoat vakillari bilan mavqeini tenglashtirish maqsadida rus savdogarlaridan quyidagi to‘lovlar undirilishi ma’lum qilinadi:

– Xonlikda savdo qilish huquqi uchun patak puli to‘lashni belgilash;

– Xonlik hududidan olib chiqilayotgan har qanday tovar mahalliy amaldorlar tomonidan nazorat qilinib, ro‘yxatga olinishi va bu jarayon uchun dallol haqi to‘lovini amalga oshirish;

– Rossiya olib ketilayotgan paxtani faqat maxsus paxta bozorlaridan sotib olish va o‘lchov uchun mahalliy tarozilardan foydalanish tartibiga amal qilish;

– Xonlik bozorlarida tarozu pulini to‘lash;

– Xonlik hududida qurilgan inshootlar, zavod va boshqa ob‘ektlar podsholik yerlarida joylashganligi uchun yer solig‘i to‘lash;

– Xonlik huddudiga olib kiritilayotgan mahsulotlar to‘g‘risida bojmonlarga ma‘lumot berish, tovarlarni ko‘zdan kechirishi va ularning xizmati uchun bojbon haqi berish;

– Xiva hududida yer turidan qat‘iy nazar dehqonlik maqsadida ijaraga yer olgan imperiya fuqarolari xonlik aholisi qatorida solg‘ut to‘lash va mehnat majburiyatini bajarish;

– Xonlik bozorlarida, karvonsaroy va do‘konlarda³³⁷ savdo qilgan taqdirda, har bir do‘kon hisobidan muanat puli to‘lash;

– Xonlikka olib kiritilayotgan xorij mahsulotlari narxlarining barqarorligi saqlab turish uchun rus savdogarlari zakot to‘lashi so‘raldi. Inkor etilgan holda bunday mahsulotlarni olib kirmaslik talab etildi³³⁸.

Amudaryo bo‘limi ma‘muriyati va vakolatli komissiya xon hukumatining xonlikdagi rus fuqarolari soliqlariga oid talablarini asosli, deb tan oldi. Biroq, Amudaryo bo‘limi boshlig‘i A.Galkin muzokaralarning dastlabki natijalarini sarhisobini yuqori vakolatli organlarga jo‘natishi, Turkiston general-gubernatori ko‘rsatmasi asosida qarorni qabul qilishini bildiradi. Hisobotda so‘nggi yillarda xonlikda savdo qiladigan rus savdogarlari boj va savdo to‘lovlarini ikki tomonga ham to‘lamayotganligi, kichik savdogarlar aziyat chekayotganligi, rus savdogarlaridan xonlik g‘aznasiga emas, Turkiston general-gubernatorligi xazinasiga soliq undirish taklif etildi³³⁹.

Turkiston general – gubernatori, baron Vrevskiy (1834—1910) xon hukumatining bu talablariga 1873 yildagi “tinchlik shartlari”ni buzishga

³³⁷ Do‘konning xususiy, vaqf yoki ijra bo‘lishidan qat‘iy nazar

³³⁸ Ниязматов М. Поиск консенсуса. Российско-хивинские геополитические отношения... – С. 323

³³⁹ Почекаев Р.В. Включение Бухарского эмирата и Хивинского ханства... – С. 179-180.

harakat sifatida qaraydi. Va delegatsiyaning barcha talablarini inkor etadi. Rus savdogarlaridan zakot olish qonunga zidligi, dallol haqi hech qanday vazifa bajarmaganda ham olinayotganligi, rus fuqarolarining zavodlari asosan, paxtani qayta ishlash uchun mo'ljallanganligi va ular xonlik uchun foydali ekanligi, poroxod va qayiqlarda olib kirilayotgan mahsulotlar chegara postlarida ro'yxatdan o'tganligi uchun bojbonlar tekshuruviga hojat yo'qligi, bahonasi bilan talablar inkor etiladi³⁴⁰.

Amudaryo bo'limi boshlig'i A.Galkin xonlik bilan yaxshi munosabatlarni buzilmaslikka harakat qilib, xon hukumatiga yon berishni ma'qul ko'radi. Uch kun davom etgan muzokaralar natijasida xon xukumatining ayrim talablari qondiriladi. Rus savdogarlari xonlik bilan savdo qilish huquqi uchun Amudaryo bo'limi devonxonasi xazinasiga *gildiya puli* to'lashi va xonlik hukumati talab qilganidek, olib kirilayogan tovarlarni bojbonlar ko'rigidan o'tkazishi belgilab beriladi. Rus fuqaroligini qabul qilgan boshqa millat vakillarini soliqqa tortish masalasi ko'rib chiqilib, huquqiy asoslari yaratilishi hamda xonlik va Amudaryo bo'limi o'rtasida pasportsiz kirib chiqishni ta'qiqlash bo'yicha talablari qabul qilinadi.

Delegatsiyaning diplomatik yutuqlariga qaramasdan, xon Amudaryo bo'limi fuqarolarini soliqqa tortish masalasida yagona yechimga kelinmaganligidan norozi edi. Xiva huqumati, Turkiston general gubernatorining ogohlantirishiga qaramasdan, Muhammad Rahimxon II maxsus farmoni bilan xonlikda tijoratchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi rus fuqaroligini qabul qilgan savdogarlarni mamlakatda mavjud soliqlarga tortishga buyuradi. Bojbonlarga xonlik turli shaharlarida joylashgan 25 ta poshdoliq bozorlarida rus savdogarlaridan *dallol haqi, tarozu puli, tagijoy yoki muanat puli* olishga buyuruq beriladi. Vaqf va shahsiy bozorlarda bu singari to'lovlarni joriy etish va miqdorini belgilash mulkdorlarning ixtiyorida qoldiriladi. Shuningdek, bozorlar va uning yaqinida joylashgan rus sanoatchilarining omborxonalari yer solig'iga tortiladi. Hukumat shu yo'l bilan ichki bozorda mahalliy tijoratchilarni rus savdo-sanoatiga qarshi raqobatbardoshligi oshirishga harakat qildi.

³⁴⁰O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 8-yig'ma jild, 21-varaq

Rossiya huqumati rus savdogarlarini talabnomadagi barcha soliq va to'lovlarga tortishni man qilgan bo'lsa-da, Xiva xonligi devonxona hujjatlari va Amudaryo bo'limi devonxona hujjatlarida buning aksini ko'rsatuvchi ma'lumotlar mavjud.

Xonlik bozorlarida sotuvchi va xaridor o'rtasidagi vositachilik qilganligi uchun *dallol haqi* to'lovi olingani ma'lum. Dallol haqi to'lovi zakoti bozor tarkibiga kiruvchi to'lov sifatida ulgurji savdo qilayotgan shaxslardan har 20 tildan 1 tanga miqdorida olingan³⁴¹. Odatda, ular Rossiya bilan savdodagi asosiy homashyo paxta oldi – sotdisida faol ishtirok etishgan.

Xon hukumati tomonidan 1873-yildagi “tinchlik shartnomasi”dagi imperiya tadbirkorlariga berilgan ba'zi imtiyozlarning bekor qilinishi, xonlikda amalda bo'lgan savdo to'lovlarining talab etilishi darhol ba'zi savdogarlar va sanoatchilarning noroziligiga sabab bo'ldi. Savdo - xarid operatsiyalarini amalga oshirgan savdo firmalari va sanoat idoralari vakillari Xivada joriy etilgan savdo faoliyatini soliqqa tortishning yangi tizimini bekor qilish talabi bilan Amudaryo ma'muriyatiga murojaat qila boshlaydi. Bunga tizimning noqulayligi, bojbonlarning faoliyati davomida korrupsiyaga yo'l qo'yilishi, ro'yxatga olish va mahsulot qiymatini aniqlashda xonlik foydasi ko'zlanayotganligi, asos qilib keltiriladi.

Masalan, Urganchda savdo qilayotgan rus fuqarolari Orenburgdan kelgan tovarlarni Xivaga kelib, xon hukumati mansabdorlari tekshiruvdan o'tkazishi va dallol haqi to'lashi kerak bo'lgan³⁴². Shu sababli, bu singari tartiblar tijoratchilar vaqtining behuda sarflanishi, ortiqcha harajatlar va noqulaylik keltirishidan norozi bo'lgan.

XIX asr so'nggi choragi va XX asr boshlari Rossiya – Xiva savdosida asosiy mahsulot bo'lgan paxta oldi – sotdisi ham xon hukumati talab qilganidek, asosiy paxta bozori Honqada amalga oshirilishi belgilandi³⁴³. Yuqoridagi vaziyat muzokaralar Xiva xonligi foydasiga hal bo'lganligidan guvohlik beradi. Imperiya savdogarlaridan savdo to'lovlarining undirilishi, boshqa millat vakillari bo'lgan Amudaryo

³⁴¹ Кун А. Заметки о податях в Хивинском ханстве... – С. 125

³⁴² O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 8-yig'ma jild, 52-varaq

³⁴³ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 8-yig'ma jild, 12-varaq

bo‘limi fuqarolarining soliqqa tortilishi xon hukumatining iqtisodiy g‘alabasi edi.

Savdogarlar orasida kelishuv asosida soliqdan qochish yo‘llari ham keng qo‘llangan. Masalan, ba‘zan imperiya savdogarlari ortiqcha to‘lovlar to‘lamaslik uchun Xiva tujjorlariga tovarlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lim hududidaperiya savdogarlari ortiqcha to‘lovlar to‘lamaslik uchun Xiva tujjorlariga tovarlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lim an savdo to‘lovlarining undirilishi, boshqa millat vakillari bo‘lgan Amudaryo bo‘limi fuqarolarining soliqqa tortilishi xon hukumatining iqtisodiy sligi, Xiva xonligiga moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelgan.

Amudaryo bo‘limi ma‘muriyati va xonlik hukumati o‘rtasida 1898-yil 17-mayda imzolangan memorandumiga muvofiq, Rossiya fuqarosi savdogarlari huquqlari, ularning xonlikdagi savdo faoliyati va soliq solish masalasi qayta ko‘rib chiqildi. Bo‘lim xonlik foydasiga rus savdogarlaridan ayrim to‘lovlar olinishiga rozilik berdi.

Xiva xonligi hukumati muzokaralar natijasida sezilarli yutuqlarga erishib, talablarning qisman qondirilishiga erishgan bo‘lsa-da, Amudaryo fuqarolaridan zakot olinishining noqonuniy deb, topilganidan norozi edi. Biroq, bu taqiq xonlik hududida bu shaxslardan zakot olinmasligini ta‘minlab berolmadi. O‘z MA 907 – fondida nodurust zakotga oid arznoma va boshqa turdagi hujjatlar, bojbonlarning rus fuqaroligini olgan o‘zga millat vakillari zakot solig‘iga tortilganini dalillaydi.

Amudaryo bo‘limi boshlig‘i A.Galkinning hisobotlarida “...xon yangi tartiblarni sovuqlik bilan qabul qilganligi, Rossiya fuqarolaridan soliq olishda Gandamiyon shartnomalarini buzmayotganlikda va ulardan soliq olishda davom etayotganligini ma‘lum qiladi”³⁴⁴.

1903-yil (1321) Xiva xonligida savdo-tijorat bilan shug‘ullanuvchi Amudaryo fuqarolaridan olinadigan soliq masalasiga doir qaror qabul qilinadi. Unga binoan “O‘rusiya fuqarolaridin Xiva tobedagi savdo xati bo‘lmoy yurgonlardin zakot olmoqni qog‘ozi” nomli hujjatda 1873-yil 12-avgustdan boshlab rus savdogarlari xonlikda tijorat faoliyatidan qa‘iy nazar soliq va boshqa to‘lovlardan ozod qilingani ma‘lum qilingan. Bu imtiyoz faqat Amudaryo bo‘limidan tegishli hujjatga ega rus savdogarlari

³⁴⁴ Ниязатов М. Поиск консенсуса. Российско-хивинские геополитические отношения... – С. 369

foydalanadi. Xonlik amaldorlariga savdo hujjatlarni taqdim etmagan savdogarlar zakot va boshqa savdo to'lovlarini to'lashi shart bo'lgan. Shuningdek, xonlikda yashash huquqini beruvchi hujjat soliq imtiyozlaridan foydalanishga asos bo'lmasligi ma'lum qilinadi"³⁴⁵. Shu shartlar Amudaryo bo'limi boshlig'i general A.Galkin tomonidan qabul qilinib, 1903-yil 1-sentabrdan boshlab, hukumatga savdo hujjatlari ko'rsatilmasa, ulardan zakot va savdo to'lovlarini olishga ruhsat beriladi.

Rossiya – Xiva o'rtasida tuzilgan hech bir shartnomada xonlikda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi va yer olib, dehqonchilik qiluvchilarning soliq masalasiga doir kelishuvlar mavjud emas edi. Azaldan xonlikning shimolida istiqomat qilgan chorvadorlar zakot – kesma solig'i to'lab, janubga qishlov uchun chorvasini haydab o'tgan. Yangi tartibga ko'ra, Amudaryo muzofoti fuqarolari sanalgan qozoq, qirg'iz va qoraqalpoqlar janubga chorva haydab o'tganda cho'p puli to'lashi belgilanadi. Muzofot devonxonasiga o't puli hamda xonlik g'aznasiga cho'p puli solig'ini to'lashi kerak bo'lgan aholi, hukumatdan ikki tarafga soliq to'lash og'irligi, birini bekor qilishini so'rab murojaat qiladi.

Amudaryo bo'limi chorva haydab o'tayotgan fuqarolaridan janubga, Xiva hududiga o'tganda xonlik xazinasiga har turli soliq olishni man qildi. Biroq, xon hukumati bu hech bir shartnomada nazarda tutilmaganligi bois, xon yerlarida chorvasini o'tlatganligi uchun cho'p puli va chorvasini bozorlarda sotgan taqdirda *zakoti so'landli* solig'ini to'lashni talab etadi.

Bir necha muzokaralardan so'ng, xonlik hududiga chorvasini olib kirgan muzofot fuqarolari har bir chorva uchun 1 tangadan cho'p puli olinishi kelishiladi.

1900-yilda Amudaryo bo'limi boshlig'ining rus fuqarolarining o'z tomorqasida yetishtirgan ekinlari va uylarida ishlab chiqargan mahsulotlarini Xiva bozorlariga olib kelib sotganda hech bir soliq talab qilinmasligi to'g'risida buyuruq beradi. Savdo do'konlarida, karvonsaroylarda va omborlarga tushirilgan yuklar bundan mustasno edi. 1903 yilgi devonxonaga yuborilgan arznomada Krasnovodsk uezdida istiqomat qiluvchi turkman Mullo Yuzliqul Muhammad o'g'lidan Xiva

³⁴⁵ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 159-yig'ma jild, 8-varaq

bozorida tuyalarda kigiz olib kelganligi va bozor bojbonlari zakot to‘lanmaganligi uchun sotuvga ruhsat bermaganligidan shikoyat qiladi³⁴⁶. Shuningdek, Amudaryo bo‘limidan xonlik o‘tkan tuyalar uchun 10 tiyindan cho‘p puli talab qilinadi. Javob xatida cho‘p puli olish bo‘yicha yakdil xulosaga kelinganligi va davlat majburiy to‘lovi bo‘lganligi sabab to‘g‘ri olinganligini ma’lum qiladi.

1898-yilda Rossiya imperatori Nikolay II (1868-1918) ning farmoniga ko‘ra, yagona bojxona chizig‘idagi davlatlar shaharlarida sotish uchun olib chiqilgan chorva mollaridan zakot olish tartibi bekor qilinadi³⁴⁷. Bu sotuvga olib chiqilgan chorva daromad manbai emas, balki shaxsiy ehtiyoj ekanligi vaji bilan joriy qilinadi. Bu qaror Xiva bozorlarida chorva narx-navosining ko‘tarilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Farmonga qadar xonlik soliq tizimida mavjud taomilga ko‘ra, sotuvga olib chiqilgan tuya va otdan 3 tanga, yirik moldan 1 tanga, qo‘ydan yarim tanga soliq olingan.

Xon hukumati bozorlardagi narxlarga ta’sir etuvchi mazkur farmon uzoq vaqt ijrosi ta’minlashga shoshilmadi. Devonxonaga bozorlarda nodurust zakot olinayotganligiga doir arzdoshtlar kelganligiga qaramasdan, zakoti so‘landli³⁴⁸ olishda davom etilgan. Farmon e’lon qilinganidan 2 yil o‘tsa-da, bojbonlar soliq olganligini quyidagi hujjat matni ham dalillaydi: “Āshxābād ūyīzdi fūqarāsi Āydāqfilbīy Khīva bāzārīga ālīb chīqqān 264 ta qūyīdīn 26 manāt 40 tiyīn zakāt va 1 qūy chūp fulī ūchūn ālinmāqdir. Tāzā tartībghā kūra bāzārlarghā sātmaq ūchūn sālīnghān hayvānlardīn hīch manāt ālinmāydūr. Khīva bājbāni Hakimbiy bājbān Āydāqfilbīydan ālghān 24 manāt, 40 tiyīn nādūrūst zakāt ālgān. Chūp fūlī ūchūn 2 tiyīndīn 5 manāt 28 tiyīn ālmāghī lāzūmdūr”³⁴⁹. Murojaatda imperator farmoniga ko‘ra soliqqa tortilmaydigan mulkdan, Amudaryo bo‘limi fuqarosining xonlikga sotish uchun olib kelgan chorvasidan zakot va cho‘p puli olinganligidan shikoyat xati bayon etilgan. Bu holat rus hukumati tomonidan chiqarilgan

³⁴⁶ O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 104-yig‘ma jild, 14-varaq

³⁴⁷ O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 199-yig‘ma jild, 4-varaq

³⁴⁸ Xonlik bozorlariga sotish uchun olib chiqiladigan chorvadan zakot

³⁴⁹ O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 199-yig‘ma jild, 5-varaq

qarorlar mahalliy darajada deyarli ishlamagani, hududlarda soliq yig'ish amaliyoti yashirin tarzda bo'lsa-da, davom etganidan dalolat beradi.

Amudaryo bo'limi boshlig'ining devonxonaga bozor bojmonlarin tartibga olish va rus fuqarolaridan bozorlarda sotilgan chorvasidan zakot olmaslikni ta'minlashga qaratilgan ogohlantirishlardan so'ng, xon hukumati, cho'p pulini saqlab qolgan holda bu talablarga rozi bo'ladi. Biroq, xon yangicha bozor tartiblari joriy etadi. Unga ko'ra, rus fuqarolari xonlikning barcha shahar bozorlarida o'z chorvasini sotishi va buning uchun hech bir soliq to'lamasligi ta'minlanadi. Amudaryo bo'limidan chorva soning ko'plab kirib kelishini oldini olish, bozordagi narx – navoning keskin o'zgarishiga olib kelmasligi uchun soliq, chorva sotib olgan xaridor tomonidan to'lanishi belgilanadi. Agar rus fuqarolari bozorlarda tuya, ot, qoramol, echku va qo'y keltirib sotsalar mazkur molni olgan odamdan ot va qoramolga 1 tangadan, tivaga 3 tangadan, qo'yga yarim tangadan zakot olinish tartibi joriy etiladi³⁵⁰. Shu tariqa Xiva hukumati zakoti so'landlining xaridordan olinishini maqbul yechim sifatida qabul qiladi.

Xiva xonligida savdo – tijorat vakillaridan tashqari dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi rus fuqarolari ham bo'lgan. Ular xonlikda yer olib ishlagani uchun, soliq imtiyozlariga ega bo'lmagan. Shu bilan birga, ulardan ortiqcha to'lov ham talab etilmagan. Amudaryo bo'limining xon hukumatiga yuborgan murojaatida mehtar devonxonasidan rus fuqarolari yurt odamlari singari solg'ut to'lashi, uning qanday yerdan yer tutishiga qarab, soliq belgilanishi ma'lum qilingan. Hujjatda: "Tozadin yer emdi yer tutg'on kishi otliq hisobida har 30 tanobg'a 10,5 tillo solg'ut beradur", deyiladi ³⁵¹. Amudaryo bo'limida yashab, ro'yxatda turuvchi va xonlikda yer ijaraga olib, ishlamochi bo'lganlar podsholiq yerlaridan o'zi xohlab olishi va davlat xazinasida 1/5 miqdorda soliq to'lashi, davlat mehnat majburiyatlarini el qatorida ado qilishi lozim bo'lgan.

Xonlikning janubiy qismida sug'oriladigan, ahyo yerlarining ko'pligi, irrigatsiya tarmoqlarining holati bo'yicha shimoliy qismga qaraganda ancha rivojlangan. Shu sababdan, Amudaryo bo'limida

³⁵⁰ Ичан Қалъа давлат музей кўрикхонаси архиви, №32/74 раамли хужжат, 12 а-варақ

³⁵¹ О'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 269-yig'ma jild, 31-varaq

yashagan tub millat vakillari xonlikdan yer olib, ishlov berishni ma'qul ko'rgan. Yuqorida aytilganidek, ular xonlik fuqarolari qatorida solg'ut va qozu majburiyatini olgan. Fuqaroning xonlikda dehqonchilik bilan shug'ullanishi Amudaryo bo'limidagi davlat majburiy soliqlaridan ozod qilmagan. Bu vaziyatda dehqon ikki tomonga soliq to'lagan. 1905-yilga tegishli hujjatlar majmuida Xiva xonligi Qiyot Mergan mavzeidan dehqonchilik qilayotgan Amudaryo bo'limi fuqarosi, qozoq Is'hoq Jo'lamon o'g'li, xonlikka muntazam solg'ut to'lab kelgan, muzofot devonxonasi mehtar devonxonasidan 1904-1905-yillar uchun imperiya g'aznasiga 16 rubl, 14 kop. soliq undirib berishini talab qiladi³⁵².

Shunday qilib, 1873-yildagi Gandamiyon shartnomasi nafaqat xalqaro maqomdagi soliq tartiblariga daxl qildi, balki Xiva xonligi ichki siyosati soliq tizimiga ham ta'sir qo'rsatdi. Xonlikda istiqomat qiluvchi, harbiy xizmatlari evaziga soliqqa tortilmaydigan yer bilan taqdirlangan turkmanlarning otliq yer egaligi tugatildi. Shartnomada chegaralarning aniq belgilanganligi, shimol dashtlaridan hujum xavfining yo'qligi, qo'shinda ko'plab turkman yovmutlari xizmatiga zarurat qoldirmadi. Harbiy xizmati evaziga berilgan va xonlik yer egaligida xususiy mulkchilikning o'ziga xos shakli bo'lgan *otliq yerlar* berish to'xtatildi, ularga berilgan soliq imtiyozi bekor qilindi. Otliq soliqqa tortiladigan 30 tanobga teng bo'lgan yer o'lchovi miqdori sifatida saqlab qolindi.

Xonlik sanoq daftarlarida ham turkmanlar istiqomat qiluvchi hududlarda ro'yxatga olish yer tanobi bilan emas, mulkdorning otliq soni bilan rasmiylashtirilgan. Otliq yer egalari xonlikda mehnat majburiyatlarini bajarishmagan. Buning o'rniga devonxonaga 2 puxta tillo biqazu, 10 tillo miqdorida solg'ut to'lagan³⁵³. Xon o'z navbatida turkman urug'lari yerlarini suv bilan ta'minlab turishni o'z zimmasiga oladi.

Amudaryo bo'limi xonlik tashqi soliq siyosati masalasida imperiya fuqarolarining huquqlarni himoya qilish vaji bilan, xonlik devonxonasi ishlariga doimiy aralashib turgan. Xonlik fuqarolari uchun joriy etilgan to'lovlar, ularning miqdori, yig'ish tartiblariga dahl qilmagan. Amudaryo

³⁵² O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 205-yig'ma jild, 6-varaq

³⁵³ Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар... – Б. 172

bo'limi va xonlik devonxonasi daryoning boshqa tarafiga soliq to'lamaslik uchun qochib o'tuvchilar masalasida doimiy hamkorlik qilgan. O'rganilgan hujjatlarda, ko'chmanchi hayot tarzini olib boruvchi fuqarolar bo'lim g'aznasiga soliq to'lamay, janubga xonlik hududlariga o'tib ketgani qayd etilgan. Amudaryo bo'limidan xonlik devonxonasiga ularni topib, tegishli soliqlar ustamasi bilan undirilib berishini so'rab ko'p murojaatlar kelib tushgan. Bunday holat xonlik devonxonasining bo'lim ma'muriyatidan davlat majburiy soliqlarini to'lamasdan, Amudaryo muzofotida yashirilib yurgan shaxslarni topib, soliqqa tortish uchun orqaga qaytarib yuborish so'ralgan.

Xiva xonligi devonxona hujjatlarida "O'rus fuqarolaridan oqcha undirmak daragi" sarlavhali ish qog'ozlarining ko'pligi va ular asosan, 1900-1905 yillarga taalluqli ekanligi, bu davr mobaynida soliq tizimidagi ziddiyatlardan aholi foydalangan holda ikki tomonga ham soliq to'lashni xohlamay qochib yurganligini ko'rish mumkin³⁵⁴.

Yuqorida o'rganilgan hujjatlar tahlili natijasida xulosa qilish mumkinki, 1873-yil xonlikning imperiyaga mag'lubiyati iqtisodiy hayotni, xususan, soliq tizimini sezilarli o'zgartirib yubordi. Bu o'zgarishlar nafaqat shartnoma bandlarida ko'zda tutilgan imtiyozlar, balki davlat ichki soliq tizimidagi o'zgarishlarda ham namoyon bo'ldi. Masalan, qullarning ommaviy ozod etilishi natijasida yangi soliq turi – *dug'ma solg'uti* vujudga keldi. Aksariyat ko'chmanchi chorvador aholining bo'lim fuqarosiga aylanganligi bois kesma tizimida soliq to'lashning qolgan aholiga og'irligi *changarak puli* solig'i joriy etilishiga olib keldi.

Xiva xonligining Rossiya imperiyasi yagona bojxona chizig'iga kiritilishi, xalqaro munosabatlar tizimida soliq stavkalarini o'zi belgilash va import mahsulotlaridan boj olish imkonidan mahrum etdi.

Xonlik ichki soliq siyosatida yer egaligining imtiyozli ko'rinishi – otliq yer batamom tugatildi. Xonlikning o'z oltin tangalarining zarb etilishining to'xtatilishi, puxta tilloning rublga nisbatan qiymatining tushib ketishiga olib keldi. Gandamiyon shartnomasidagi imtiyozlar, yagona bojxona tizimidagi import bojlaridan ayrilganligi, Amudaryo

³⁵⁴ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 103-104-191-192-205- yig'ma jild

bo'limi fuqarolarining rus fuqarosi sifatida soliq to'lashdan bosh tortishi, ichki bozordagi yuqori narx-navo, rus savdogarlarining soliq statusi tufayli mahalliy tijoratchilarning honavayron bo'lish holatlari ortishi, sohani isloh qilish zarurligini anglatardi.

Shu bilan birga, 1873-1910 yillar mobaynida xonlik soliq tizimida qator yangi ijobiy o'zgarishlar ham amalga oshirilgan. Jumladan, muzokaralar natijasida rus savdogarlari ham davlat joriy etgan bozor yig'implari va xizmat evaziga to'lovlariga tortildi. Qoraqalpoqlar va qirg'izlarning dahyak solig'ini changarak solig'iga, ulardan olinadigan zakot – kesma solig'i cho'p puli solig'iga o'zgartirildi. Bu o'zgarishlar faqat soliq nomining almashtirilishi bo'lmay, balki uning miqdori pasaytirilishi ham bo'ldi. Shuningdek, bu davrda xonlikdan xorijga mahsulot olib ketadigan savdogarlardan *zakoti tujjorchi* solig'i olingan. Uning miqdori mahsulot sifati va narxiga bog'liq o'zgarib turgan. Savdogarlarning bu solig'i *kesim* – deb nomlanuvchi soliqa o'zgartirildi. O'z hususiyatiga ko'ra, bir martalik bu to'lov, bugungi kunda o'z itisodiy faoliyatini boshlayotgan tadbirkorlardan olinadigan guvohnoma uchun to'lovning aynan o'zidir.

Xonlik iqtisodining asosiy manbai bo'lgan soliq tizimidagi imtiyozlarning ortib borishi, soliq to'lovchilar sinfining esa kamayib ketishi, tilloning qadrsizligi, davlatni iqtisodiy-ijtimoiy muammolar girdobida qoldirdi. Buning yagona yechimi soliq tizimini qayta isloh etish bo'ldi.

3.2. XX asr boshlari Xiva xonligi soliq tizimi islohotlari, tamoyillari va sarf etilishi

Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ijtimoiy muammolarni hal qilishning muhim usuli to'g'ri tashkil etilgan soliq siyosati hisoblanadi. Siyosiy jarayonlar ta'sirida mamlakat iqtisodiy holatini yaxshilash uchun soliq tizimini islohotlari zarur hisoblanadi. Bu yangi soliqlarni joriy etish yoki ayrimlarini bekor qilish, soliq stavkalari, soliq yuki va soliq ma'muriyati tizimidagi o'zgarishlar orqali amalga oshiriladi.

XX asr boshlarida iqtisodiy tanazzul yoqasiga kelib qolgan Xiva xonligi soliq tizimi chuqur islohotlarga muhtoj edi. Mamlakatdagi yirik

yer egalariga berilgan imtiyozlar, vaqf yerlariga taqdim etilgan inoyatnomalar, bir yillik nishonalar natijasida xazinaga to'lanadigan solg'ut miqdorining kamayishi kuzatildi, biqazu maqomi uchun maoflarning ko'plab berilishi esa, irrigatsiya tarmog'ida ishchi kuchi yetishmasligi muammosini keltirib chiqardi. Xalqaro soliq tizimi masalasida yagona bojxona chizig'ida bo'lgan Xiva, qo'shni davlatlardan olib kelinadigan tovarlardan olinadigan boj to'lovidan ham ayrilgan edi. Shuningdek, mamlakatdagi yechimini topmayotgan ijtimoiy muammolar ko'pligi, ayrim tabiiy ofatlar natijasida hosilsizlik davridagi soliq yig'ishlar va xalqning qashshoqligidan tovarlardan olinadigan boj to'lovidan ham deyarli ayrilgan edi. Bu muammolarni yagona yechimi sifatida soliq tizimini isloh etish hisoblandi.

Islohotlarning huquqiy negizi Asfandiyorxonning 1910 yili e'lon qilgan farmoni bilan mustahkamlandi. Unga ko'ra, "Bāzārlārdāgī sāliqlār tartibga sālinsīn, kūpriklār qūrilsīn, yūllar ābād būlsīn, vāqf yīrlārī qaytā hīsābga ālinsīn, fūqarālārni āsāyishīga, farāvān hayāt kechirīshī bilān bāghliq masalālār ūrganilib, tez fursātdā hāl qīlinsin. Biz tāmānimizdān amalgā āshiriālādīgān ūshbū īshlārgā hīch kīm tūsqīnlīk qīlmāsīn. ūshbū īshlārni amalgā āshīrishnī Īslām Khwāja Ībrāhim Khwāja ūghlīgā tāpshīrdīk"³⁵⁵. Xonning topshirigiga muvofiq islohot dasturini ishlab chiqish vazifasi bosh vazir Islomxo'jaga yuklatiladi. Dastur tuzishda bosh vazirga Xasanxon bek ko'maklashadi.

Islomxo'ja (1872-1913) soliq islohotining asosiy tamoyillari, ya'ni soliq shartlarini tenglashtirish, umumiy soliq miqdorini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirishni maqsad qilgan edi. Xiva xoniga bosh vazir Islomxo'ja tomonidan taqdim etilgan islohot dasturi to'g'risida A.Boltayev va Hasanxon Madaminov xotiralarida ma'lumotlar keltiriladi. Xonlik devonxonasida faoliyat yuritgan Hasanxon Madaminov ma'lumotiga ko'ra, "Īslām Khwāja mamlākāt taraqqīyātīgā qadīm būlīb, Khwārazm ahālīsī tūrmūshīnī ūzgartīrmāk maqsadī ilā Ḥasan Muḥammad bīy bilān birlīkdā tāzā qānūn tūzīb, 10 māddādān ībārat dasturāmāl īshlāb chīqārdī"³⁵⁶.

³⁵⁵ Ichon Qal'a muzey qo'riqxonasi arxivi, № 32/48 raqamli hujjat, 1-varaq.

³⁵⁶ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yhat, 609-yig'ma jild

Islomxo‘ja tomonidan islohot dasturi 1911 yilda xonga taqdim qilinadi va muhokama uchun Devonlar Kengashiga kiritiladi. Islohot dasturi xonlik uchun hayotiy zarur bulgan moddalarni o‘z ichiga olardi. Islohotlar asosan soliq tizimida ijtimoiy tenglik va adolatlilik tamoyillariga zid soliq imtiyozlarini tamomila tugatish, katta amaldorlarga berilgan imtiyozlarni bekor qilishni nazarda tutardi.

Islomho‘ja tomonidan ishlab chiqilgan dasturda Xiva xonligida asrlar davomida shakllangan soliq tizimini o‘zgartirish, soliqqa tortishda adolat prinsipini tiklash maqsad qilib qo‘yilgandi. Shu bilan birga, islohot natijasida soliq ma‘muriyatchiligida yo‘l qo‘yiladigan su‘istemolliklarni oldini olish va mansabdorlarga maosh tayinlash orqali soliqlarning davlat g‘aznasiga to‘lib tushishini ta‘minlash, maqsadli yo‘naltirish rejalashtirilgandi.

Dasturga ko‘ra, avvalo, xonlik davlat xizmatchilarining barchasiga (lavozimiga asosan) ish haqi belgilandi (1-modda). Ma‘lumki, Xiva xonligi soliq tizimida alohida soliq mansabdorlari lavozimi tashkil etilmasdan, o‘zlarining asosiy xizmat vazifalarini bajarish barobarida soliq jarayonlarini ham boshqargan. Masalan, devonbegi va uning devonxonasi zakot va bozorlardagi to‘lovlarni yig‘ish bilan shug‘ullangan. O‘z navbatida bu xizmatlari uchun “devonxona harajatlari” vaji bilan yig‘ilgan pulning 9 %i va ba‘zan 10%ini o‘zlarida qoldirgan. Islohot natijasida har qanday soliqdan daromadning bir qismini ish haqi tariqasida o‘zlashtirish qat’iyan taqiqlandi (8-ilova).

Islohot yer egaligi va yerdan olinadigan soliqlarni ham o‘zgartirishni nazarda tutardi. Muhammad Rahimhon I tomonidan joriy qilingan va taomili odat tusiga aylangan solg‘ut 3 toifaga qarab ajratilishi vaqt o‘tib, yirik mulkdorlar foydasiga va aksincha adro xo‘jaliklar zarariga ishlovchi mexanizmga aylanib, ijtimoiy tengsizlikka sabab bo‘ldi. Ma‘lumki, solg‘ut xonlikda atoyi yer egalaridan mulkdorning toifasiga ko‘ra olingan. Yangi o‘zlashtirilgan yerlarning ortishi va yorliqli mulklarning ko‘payishi, solg‘ut belgilashda tanobiga ko‘ra to‘lashning ustuvorligi soliq to‘lovchi atoyi mulkdorlarning ham yorliqli mulk olib ishlov berishiga qiziqish ortib bordi. XX asr Xiva xonligi soliq tizimi yer egaligi bog‘liq hususiyat, ya‘ni atoyi mulkdorlarning o‘z mulklarini

podsholiq yerlariga topshirib, yorliqli mulk yerlaridan olishlari yoki podsholiqning merosiy ijarachilariga aylanish holati kuzatildi³⁵⁷.

Islomxo‘ja tomonidan taqdim etilgan islohotlar dasturida atoyi va yorliqli mulklardan teng miqdorda solg‘ut olish, soliqqa tortishda turli omillar, suv bilan ta‘minlanganlik, yerning holati kabilar inobatga olish ko‘zda tutilgan edi. Tabaqalashtirilgan yer solig‘ini qo‘llash o‘zaro bog‘liq ikkita maqsadga ega: birinchidan, yangi tamoyillar asosida shakllangan davlat byudjeti uchun ishonchli moddiy bazani yaratish; ikkinchidan, soliqni teng taqsimlash orqali ham kichik, ham yirik yer egalarining huquqlarini tenglashtirish maqsad qilingan edi.

Islohot dasturi qishloq ho‘jaligi sohasida dehqonlarning eng og‘riqli nuqtasi mehnat majburiyatlari sohasida ham o‘zgarishlarni nazarda tutuvchi moddalarni o‘z ichiga olgandi. Bu vaqtda begar tizimida soliq imtiyozlari maofning qo‘llanilishi ishchi kuchining kamayib ketishi, irrigatsiya ob‘ektlarining o‘z vaqtida ta‘mirlanmasligi va ba‘zilarining umuman yaroqsiz holga kelib qolishiga olib kelgan. XX asr birinchi choragiga oid arxiv hujjatida, “1910-1917 yilghā qadārli Khivāda būlghān khānlār zamānida qāzū” sarlavhali daftarda Xiva xonligida katta, arna, yof qozularga bo‘lingani, ushbu qozu avval zamonida yof ma‘muriyat ruxsati bilan qozilgani hamda ma‘mur bo‘lgan amaldorlar dehqon qozuchilarni nazorat qilgani har bir yof, oriqlardan suv ichadigan sipohi, to‘ra, xonzodlar, qozi va eshonlar, shayxlar, oxund, mulla, oqsoqollar va dehqonlar qozudan ma‘of bo‘lgani, 1 obxur qozuga 500 nafar bo‘lsa, 250 nafari ma‘of ila kelgani va ularga 1 yasovul qo‘yilgani”³⁵⁸, ma‘lum qilinadi.

Sanoq daftarlaridagi qaydlarga ko‘ra, biqozu inoyatnomasi 1 puxta tilloni evaziga bir yil muddatga mehnat majburiyatlaridan ozod bo‘lishni ta‘minlangan. Devonxona biqozulardan olingan pullarga ishchi kuchi yollamagan va ularning vazifalarini qolgan qozuchilar bajargan. Yuqorida keltirilgan devonxona xodimi ma‘lumotlaridan ayon bo‘ladiki, ishchilarning yarmi inoyatnomaga ega bo‘lgan va mehnat majburiyatidan ozod qilingan. Ammo ish qolgan hajmi qisqarmagan, qozu oddiy

³⁵⁷ O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yhat, 437-yig‘ma jild, 15-varaq

³⁵⁸ O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 609-yig‘ma jild

mehnatkashlar zimmasida qolib ketgan. Natijada ish samaradorligi yildan-yilga tushib ketgan.

Ushbu holatni hisobga olib, yangi dasturda qishloq xo‘jaligidagi irrigatsiya tarmoqlarini nazoratga olish, suvdan foydalanishni tartibga solish, xonlik aholisi uchun mashaqqatli bo‘lgan begar qozuvi majburiyatini yengillashtirish, ularni rag‘batlantirish uchun 12 kunlik qozu, qochu uchun 2 tanga miqdorda haq to‘lashni joriy etish reja qilingan edi.

Islohot dasturining 3 – 4 boblari zakot va u bilan bog‘liq to‘lovlar to‘g‘risida bo‘lib, zakot va boj olmoq hamda bozor ahli kimsalaridan muanat olmoqni tuzatish to‘g‘risida edi. Dasturning keyingi moddalari soliq sarfi bilan bog‘liq bo‘lib, kasalxona qurish, yo‘llarni ta‘minlash, irrigatsiya inshootlarini barpo etish, maorif tizimini yaxshilash kabilarni hal etishga qaratilgan edi. O‘z navbatida bu muammolarning barchasi yig‘iladigan soliqlarni to‘g‘ri yo‘naltirish hisobidan amal oshirish rejalashtirilgandi.

1911 yilda Xivada majlisda ko‘rilgan Islomxo‘ja islohotlar dasturi ba‘zi o‘zgartirishlar bilan qabul qilinadi va xon tomonidan muhrlanadi.

Unga ko‘ra, soliq imtiyozlari butunlay tugatilmasdan ayrim davlat xizmatchilari uchun qisman saqlanib qoladi. Bunday xizmatchilar sirasiga asosan, harbiylar kiritilgan. Masalan, navkarlar har oyda 5 tillo maosh va 20 tanob yerining solg‘utidan ozod etilgan, otliq mirshab bir yilda 112 manot maosh va bir ot olishi bilan birga, 10 tanob yerining solg‘utidan ozod etilgan, ammo hujjatda “ālār yūrt ādamlārī qatārīda ābkhūr xizmatīnī ūz būynīghā qūyūb, sālgūtī tāzā tartīb ḥizmatdāghī vaqtidā amāl būlsūnnī ma‘qul kūrduq”³⁵⁹, deb belgilab qo‘yilgan. Demak, harbiy xizmatchilar yer solig‘idan to‘liq emas, balki belgilangan tanobi uchun soliqdan ozod qilingan. Mazkur ma‘lumot devonxona sanoq daftarlari ma‘lumotlari bilan taqqoslaganda, ayrim navkarlar izohida 10 tanobi inoyatnomali, 20 tanobi inoyatnomali, 10 tanobi tamg‘ali kabi izohlar, ularning ma‘lum solg‘ut imtiyoziga egalik qilganligidan darak beradi.

Harbiylar solg‘utdan ozod qilinsa-da, mehnat majburiyati – qozudan ozod etilmagan va undagi barcha imtiyozlar faqat xizmatlari davomida

³⁵⁹ Ichon Qal‘a muzey qo‘riqxonasi arxivi, № 36/87 raqamli hujjat, 1 a varaq

amal qilib, bo'shab ketgandan keyin imtiyozlari saqlanmagan. Yangi dasturga asosan harbiy xizmatchilar egalik qilayotgan soliqdan ozod qilingan yerining har 10 tanobidan bir qozuvchi podsholiq obxo'riga yuborilishi majburiyatini olgan. Mehnat majburiyati o'rniga biqozu inoyatnomasi olish istagini bildirgan sipohiga bir qochuvchi uchun maof 5 puxta tilloni tashkil etgan³⁶⁰.

Yuqorida aytilganidek, dasturning ikkinchi bobi xonlik soliq tizimining yer-solig'i solg'ut bilan bog'liq edi. Dasturda bu o'zgarishlarga zarurat quyidagicha izohlanadi: "yir va yir mu'anāti tartibī ūshbū vaqtdā yirdan ālīnib tūrghān mu'anātlārnī nādūrūst ālīnib tūrghān va yirdan ālīnhān fāydānī nāmūvāfiq kūrūb, Khīva khānligī ābd yirlārīdin ālīnib tūrghān mu'anātlārnī bāshqā tartib īlā ālmāqnī kūp zarūr kūrđīk"³⁶¹. Islomho'ja tomonidan taqlif etilmagan mazkur bob to'raligicha ma'qul qilinmaydi. Bosh vazir xonlikda yer imtiyozlarini butunlay tugatish kerakligi tarafdori bo'lgan. Ammo xonlikda katta yerlarga egalik qilayotgan amaldorlarning aksariyati, mazkur tadbirga qarshi chiqib, yer solig'i olish tartibini ayrim o'zgartirishlar bilan qabul qiladi.

Yangi tartibga ko'ra, xonlikdagi yerlarning hosildorligi, suv bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra ikki turga ajratish belgilanadi. Bu tartibda solg'ut olish shariat tartiblariga va Turkiston general gubernatorligi yer to'g'risidagi qonunga zid emasligi bilan asoslanadi.

Dasturda: "Khīva khānligīdā ābād būlghān yirlārni ikki ravishdā būlmāqni ma'qūl kūrīb, har īkinlar tūrghāndān va bāshqā īkilā tūrghān fāydālī nimārsālār ziyādā būlūb kūkārsā ālī, deb āytulsā va yānā dīhqān ādamlārghā fāydāsī kamrāq būlā tūrghān har tūrlūq īkinlār zirāatlārni yirning va sūvnīng būghdāyīgā qarāb īkin bīra tūrghān yirlārni ādnā dīb āytūlsā, āl yirlārghā bitgan zirāatlārni ūrtāchā bahāsvnī har yil tanābī 9 tanga sālgūt mu'anātī, va adnā yerlārning har tanābīghā 7 tanga sālgūt mu'anāt ta'yin etilūbdūr"³⁶², deb belgilab qo'yiladi.

Yangi tartibdagi yer solig'ini tadbiq etish uchun, avvalo, yerlarni qayta o'lchash va o'zlashtirilgan yerlarni toifalarga ajratish, qaysi yerlar a'lo va qaysilari adno ekanligini aniqlash lozim edi. Bu jarayonda turli

³⁶⁰ O'z MA I –125-fond, 1-ro'yxat, 477-yig'ma jild, 8-varaq


³⁶¹ Ichon Qal'a muzey qo'riqxonasi arxivi, № 36/87 raqamli hujjat, 2-varaq

³⁶² Ichon Qal'a muzey qo'riqxonasi arxivi, № 36/87 raqamli hujjat

suiste'molliklarni oldini olish maqsadda Amudaryo bo'limidan bir necha mutahassilar taklif etilib, xonlikda qayta yer o'lchovi amalga oshirilish e'lon qilingan.

Soliq tizimining eski tartibida xon avlodlari va to'ralar, ulamolarning soliqqa tortilmagan yerlari yangi qonunga ko'ra, o'z ixtiyorlari bilan soliq to'lashi, amaldorlar va davlat xizmatchilariga taqdim etilgan yerlarilari esa, birinchi bobdagi tartibga ko'ra, zaifasi hisobidan muanat ushlanish tarzida yer imtiyozlarini saqlab qoladi. Yangi dastur hayotga tatbiq etilishi natijasida quyidagi natijalarga erishiladi:

Islohotdan avvalgi va keyingi yillarda solg'ut miqdori



№19-jadval. Solg'ut miqdori

Xiva xonligida istiqomat qiluvchi ko'chmanchi hayot tarziga ega fuqarolar - turkmanlar, qozoqlar va qoraqalpoqlarning to'laydigan yer solig'iga ham ayrim o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra, yerlari obod bo'lgan sug'oriladigan ahyo yerlar – Taxtabozor, qoraxilg'un va qoradoshli, Xilali, Mang'it va Jovdur tobeda bo'lgan turkmanlar yerlari xonlikning boshqa viloyatlari bilan tenglashtirildi. Ular ham a'lo yerlar botmonidan 9 tanga, adno yerlaridan 7 tangadan solg'ut to'lashi qat'iy belgilandi. Lauzon, Xitoy, Ko'hna Urganch tobedagi shohili, o'nquloch turkmanlar yerlari kamroq rivojli va suv ta'minotida muammolar

bo'lganligi sababli *chanqaroq fuli* to'lash belgilangan³⁶³. Biroq, bu hududlarda ham obodonlashtirish ishlari olib borilayotganligi sabab vaqti kelib, bu yerlar qolgan viloyatlar qatorida solg'ut to'lashi nazarda tutildi. Kengashda turkmanlarning shu tartibda soliq to'lashga roziligini olish maqsadida xon, Mang'itda turkmanlar bilan uchrashganligi va ularni mazkur farmon qoniqtirishini bildirgan. Qoraqalpoqlar va qo'ng'irotlıklardan ham solg'ut kesma o'rniga chanqaroq puli solig'i olish tartibi joriy qilingan.

Kengash yakunida ulamolar yerning o'lchovi asosida tanob muanati yer solig'i solg'ut yig'ish shariatga nomuvofiq emasligiga fatvo berilgan. Shuningdek, dasturda dastlabki hisoblarga ko'ra, yer solig'i solg'utdan tushadigan daromad 3 barobar ortishi taxmin qilingandi.

Dasturdan o'rin olgan yana bir bob, xonlikning asosiy soliqlaridan biri zakot bilan bog'liq edi. Xonning viloyat savdogarlari bilan uchrashuvida zakotning fuqarolarga ma'qulligi va olinish tartibi osonligi sababli zakot undirish tartibiga o'zgartirish kiritilmasligini so'rashadi. Hujjatda yozilishicha, “Zakāt tartibī avvalghī ravīshdā shari'atghā muvāfiq būlūb, bīzlārgḥā ham āghir būlmāghānī sabablī zakāt ālinmāqī va ham ānīng ūlchākī va ālīb tūrghān tartiblārī avvalghī tariqādā qālmāqīn khān ḥazratidan iltīmās ītibdūrlār”³⁶⁴. Yuqorida aytilganidek, xonlikda savdogarlardan, qaysi davlatdan, qanday mahsulot olib kelayotganligiga ko'ra, zakoti buxarjiy, zakoti qal'achi olingan. Savdogarlar mamlakatdan milliy mahsulotlarni olib xorijda sotib, ortga qaytishda karvonga xonlikda talab yuqori bo'lgan mahsulotlardan ortib kelgan. Shu tariqa tujjorlar 2 marta soliqqa tortilgan.

XIX asr oxirida xon xalqaro savdoni “jonlantirish”, paxta, ipak, teri singari xomashyolarni xonlik tashqarisiga olib chiqib sotish uchun savdogarlar uchun *patak puli* solig'ini joriy etadi. Savdogarlar patak puli to'laganliklari uchun mamlakatdan chiqishda, olib chiqilayotgan mahsulotlar uchun zakot to'lamaslikni so'rab murojaat qilishadi: “...īmdī siz janābī 'ālī lārīdin hamā savdāgarlārñīng iltimāslārī būlkīm, yūrtđin chiqqān har hil māllārdin hīch bir zakāt ālmāsāngīz. Bizlārñī ghāyri

³⁶³ Ichan Qal'a muzey qo'riqxonasi arxivi, № 36/87 raqamli hujjat, 3-varaq

³⁶⁴ Ichan Qal'a muzey qo'riqxonasi arxivi, № 36/87 raqamli hujjat 3 a-varaq

yūrtidin kīltūrghān māllārīmīznī shariāt hūkmīghā mūvāfiq zakātlārīmīznī ālsāngīz”³⁶⁵. Hujjatda shu tabdir natijasida Rossiya ko‘plab mahsulotlar olib chiqilib, davlat xazinasini va savdogarlar uchun foyda bo‘lishi, savdo rivoj topishi ta’kidlanadi.

XIX asr oxirlarida Xiva bozorlarida bozor zakoti nomi bilan *tag‘i joyi, tarozu haqi, dallol haqi* to‘lovlari olingan. Shuningdek, bozorga sotuv uchun olib kelingan chorvadan *so‘landli* zakoti olingan. 1910-yilgi islohot dasturida 4-bob. *Bozor muaynati to‘g‘risida* deb atalib, Xiva bozorlarida 2 turda soliq olininishi: mol sotganligi uchun va ustachilik qilgani uchun muaynat olish tartibi belgilandi. Bozorlarda sotish uchun olib chiqilgan hayvonlardan yarim tangadan 3 tangagacha, ya’ni 10 tiyindan 60 tiyigacha soliq to‘lash lozim bo‘lgan. Har bir tuyadan 3 tanga, ot va qoramolning har biridan 2 tangadan, qo‘y va echkilardan yarim tangadan olingan³⁶⁶. Chorva mollari uchun zakot berilib, egalari qo‘llarida fatak bo‘lgan va fatakga ega chorvadorlar bozorga olib chiqib chorva sotsa, bojbonlar bozor fuli uchun har tuyaga 1 tanga, har qo‘yga 1 shohidan olgan. Mol va qo‘ylari sotib bo‘lgandan so‘ng, mol egasidan fatakni bojbonlar olib qolishlari lozim bo‘lgan. Bu qoida fatakni olgan kundan 6 oy muddatgacha xonlikning barcha bozorlarida yoki sahrolarda sotilgan mahsulotlar uchun amal qilgan. 6 oy muddatidan o‘tkan taqdirda, chorva mollaridan avvalgi tartibda soliq undirilgan.

Zakoti bozorhoda chorva bilan bog‘liq yana bir holat Rossiya fuqarolarining Amudaryo muzofotidan olib kelib, xonlik bozorlarida o‘z chorvasini sotganligi uchun bozor bojbonlari molni olgan odamdan ot va qoramolga 2 tangadan, tuyadan 3 tanga, qo‘yiga yarim tangadan zakot olinsin, deb belgilangan. Agar qassoblar rus fuqarolaridan mol olib so‘yib sotsalar, mol egasini ko‘rsatmasa, yoki mol zakotlangan bo‘lmasa, zakot puli qassobdan undirilgan. Bozor muaynatida yana bir yangi tartib, bojbonlar mol egasidan ortiqcha pul talab qilmaslik joriy qilingan. Qo‘y uchun semiz yoki boqma yoki jonli qo‘zi deb 1 tanga so‘ramasinlar, har xil mol olib, o‘sha bozor kuni sotsalar zakot to‘lamasinlar. Bozorda

³⁶⁵ O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 384-yig‘ma jild, 35-varaq

³⁶⁶ Ichon Qal‘a muzey qo‘riqxonasi arxivi, № 32/74 raqamli hujjat

qassob molni suyib berib, o'sha molning go'shtini o'z do'konida sotmasa, ulardan hech muamat olinmaydir ³⁶⁷.

Xiva bozorlarida hayvon terisi sotuvchi rastalar mavjud bo'lib, olib sotarlar bozorlarga sotuvga olib chiqilgan terining har o'n donasidan 1 tanga 1 shohi olingan. Katta do'konlardan bir yilga 3 tillo, ya'ni 5 manot 40 tiyin, kichik do'konlar va ustaxonalardan 2 tillo, ya'ni 3 manot 60 tiyin olingan³⁶⁸. Ammo bu miqdor o'zgaruvchan bo'lib, hunarmandning daromadi (xizmatining talabgirliigi) do'konning ixtisosligiga ko'ra, uning miqdori belgilangan.

Xiva shahri bozorida 22 xil kosib do'konlari mavjud bo'lib, hunarmandalar saroylarda, bozorda, chorsuda yoki uylaridan ochilgan do'kon uchun bir yilga har bir do'konidan belgilangan soliq to'lashgan. Shuningdek, do'konda necha kishi faoliyat yuritishidan qat'iy nazar, miqdor o'zgarmagan.

Ma'lumki, Xiva xonligi shaharlarida bozorlar haftasiga bir yoki ikki kun o'tkazilgan. Savdogarlar shu kunlarda bozorga chiqib, tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Qolgan kunlari doimiy faoliyat yuritadigan karvonsaroylarda va uylarida ochilgan do'konlarda savdo qilgan. Shu bilan birga, ko'chmanchi chorvadorlar yashash manzillari yaqinlarida haftada bir-ikki marotaba bozor tashkil etilgan. Savdogardan xonlikning istalgan kunida xoh asosiy bozorlarda, xoh shaxsiy do'konida, xoh sahro yoki yof bo'ylarida buyumlarini sotishidan qa'iy nazar, bir marotaba soliq undirilgan.

Xiva xonligiga quruqlik yo'llari orqali tuyalarda olib keltiriladigan mahsulotlardan tashqari, Amudaryo orqali kemalarda turli mollar olib kirilgan. Xonlikning mag'lubiyati, hududi katta qismining Rossiya imperiyasiga berilishi va Amudaryo bo'limining tuzilishi, bu yo'nalishdagi soliq tartiblarini ham o'zgartirib yubordi. 1873 yilga qadar daryo orqali olib o'tilgan mahsulotlardan *kashtibon* to'lovi olingan. Amudaryoda suzayotgan kema va kayiqlar xonga tegishli bo'lganli sababli kashtibon to'lovi davlat xazinasiga tushgan. Amudaryo bo'limi tashkil etilishi bilan daryoning narigi tarafiga savdo-tijorat maqsadida

³⁶⁷ Ichon Qal'a muzey qo'riqxonasi arxivi, № 32/74 raqamli hujjat

³⁶⁸ Ichon Qal'a muzey qo'riqxonasi arxivi, № 32/74 raqamli hujjat

borguvchilar soni oshib ketdi. Yangi tartibga ko‘ra, Amudaryo orqali tijorat qiluvchilar devonxonadan fatak – deb nomlanuvchi hujjat olishlari kerak bo‘lgan: “ūshāq tarafgā kemā īlā yūk kītsā va ūshāq tarafdān yūk sālib kīlmāq uchun mūddat bir yilghā fatak fūlīghā 10 ṭillā ālsūn, kichik kīmālārdin 5 ṭillā”³⁶⁹.

Yangi dasturda kemada kelgan yukdan zakot olish man etilgan. Soliqlar xonlik shaharlarida bozor bojboni tomonidan olingan. Agar Amudaryo bo‘limida yashovchi rus fuqarolari kema orqali o‘z mahsulotlarini Xivaga olib kelib sotmoqchi bo‘lsalar, o‘z bojbonlaridan ruhsat olib kelishlari, ruhsatnoma va pasportlarini xonlik bojbonlariga ko‘rsatishlari kerak bo‘lgan. Tegishli hujjatga ega bo‘lmagan taqdirda, davlat to‘lovi undirilgan. Xiva fuqarolari qozoqli va Chimboyga kema bilan turli mollari olib sotsalar, har botmonidan 1 ful berishlari talab etilgan: “...qūmūr keltūrīb sātsālār qāfīdin yārim shāhī, rūyān sātsālār, 100 kūltasīdin bir shāhī, tūz sātsālār 200 bātmānīdin bir fūl ālūnsūn”³⁷⁰. Shuningdek, bu yerlardan keltirilgan tegirmon tosh, xirmon tosh va o‘ra toshlarning har bir donasidan bir shohidan olingan.

Biroq, qonunda ayrim hududlardan kelgan va olib ketilgan kemalardan, tegishli hujjatlar taqdim etilgan xolda, soliq talab etilmagan. Masalan, Chorjo‘yga yuk olib boruvchi kemachilardan pasportlarini bojbonlarga taqdim etgan taqdirda, hech qanday soliq yoki to‘lov talab etilmagan.

Islohotlar dasturida Xiva xonligida bozorlarda ustachilik qilganligi uchun zakot va tagijoyi olish tartibi saqlab qolingan. Ustalardan olinadigan soliq hunarmandchilik turining mashaqqati, xaridorligi, talabchanligi kabi omillar asosida belgilangan. Misol uchun, zargarlik do‘konlaridan yiliga 3 tillo, temirchi, pichoqchi, egarchi, tunukachi ustalar do‘konidan 2 tillo, kulfgar, sandiq yasovchi ustalar 1 tillodan soliq olingan.

Islohot natijasida xonlikda soliqlarning ayrim turlarini isloh qilindi. Xususiy mulkchilikning ikki ko‘rinishi atoyi va yorliqli mulk yerlari soliq jihatdan tenglashtirilib, mulkdorning iqtisodiy xolatiga emas, tanobiga

³⁶⁹ Ichon Qal’a muzey qo‘riqxonasi arxivi, № 32/74 raqamli hujjat

³⁷⁰ Ichon Qal’a muzey qo‘riqxonasi arxivi, № 36/88 raqamli hujjat

ko‘ra solg‘ut olish joriy qilindi. Bu bilan soliq tizimidagi naflilik tamoyili qayta tiklanadi.

Xonlik uchun samarasiz bo‘lgan ayrim soliqlar almashtirildi. Sohada mansab suiste‘molliklarini kamaytirish maqsadida oylik maosh tizimi joriy qilindi. Ular ustidan nazorat – taftish ishlari amalga oshirildi. Xonlik soliq yig‘ish mexanizmida o‘zgartirishlar amalga oshirilib, soliq yig‘uvchi amaldorlar faoliyatiga doir ko‘rsatma hujjatlar qabul qilindi. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va rag‘batlantirish maqsadida begar tizimiga tub o‘zgartirishlar kiritildi.

XX asr boshida amalga oshirilgan soliq islohotlari tizimda majburiylik, tabaqalashtirilganlik, adolat, ijtimoiylik tamoyillari amal qilishini ta‘minladi. Qo‘ng‘irotlar sulolasi tomonidan yuritilgan soliq siyosati yuqoridagi tamoyillar asosida amalga oshirilib, xonning maxsus inoyatnomalari bilan mustahkamlandi. Amaldorlardan soliq yig‘ish jarayonida shu tamoyillarning ta‘minlanishi talab etilgan. Xususan, majburiylik tamoyili, fuqarolar aniq belgilangan vaqt va miqdorda soliq to‘lashi talab etilgan. Ularning to‘lovlardan bosh tortishi, qarshilik ko‘rsatgan taqdirda davlatning kuch ishlatish yo‘li bilan bo‘lsa-da, undirilishi nazarda tutilgan.

Soliq siyosatining tabaqalashtirilganlik tamoyili fuqarolarning atoyi mulklari – a‘lo, avsot va adno xo‘jaliklaridan solg‘ut olinishida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, xonlik soliq tizimidagi nazorat taftish tamoyili mas‘ul amaldorlarning xizmat vazifasini suiste‘mol qilmayotganligi va soliq mablag‘larini to‘liq topshirilishi ustidan tekshuruv vazifasini o‘tagan. Soliq yig‘ish jarayoni yakunlanib, muanatlar g‘aznaga topshirilgandan so‘ng, devonxona sanoq daftarlarni mehtarga bergan. Mehtar o‘z navbatida soliq daftarlardagi raqamlarni g‘aznadagi mavjud pul miqdori bilan taqqoslagan va ishning yakunida xonga yillik hisobot taqdim etgan. Mehtar tomonidan devonxona mirzalari xatoliklari natijasida kam yoki ko‘p olingan soliqlari alohida qayd etilgan va kerakli chora ko‘rilgan. Masalan, “Sālgūt ḥisābīdin bīūrūn kam būlghānlār” nomli hujjatda 1330 (1911) yilda devonxona xodimlarining sanoq daftarlari va xazinaga topshirilgan mablag‘lari tekshirilib, “...Khīva tābīda jami sālgūtdin shahvā

būlghānlār 26 ṭillā kam, Tābī Shāhābāddā 28 pūkhtā ṭillā kam Gūrlānnīng Māsīdī Rahmatbīrdīdā 3 pūkhtā ṭillā kam”³⁷¹ ekanligi aniqlangan. Taftish jarayonida hududlarda soliqlarning to‘g‘ri va adolatli yig‘ilishini ta‘minlash talab etilgan.

Xiva xonligi Qo‘ng‘irotlar davrida davlat xazinasining asosiy manbasi bo‘lsa-da, shar‘iy tartiblarga asoslangan davlat soliq tizimida ijtimoiy tamoyillar ustuvor bo‘lgan. Mamlakatda yuz bergan turli ofatlar, qurg‘oqchilik, hosilni suv olib ketishi va boshqa vaziyatlarda yeri va hosilidan ajralgan aholi ijtimoiy ta‘minotga muhtoj sifatida soliqlardan ozod etilgan³⁷². Zero, shariatda ham yerdan suv uzilib qolsa, sel ketib suv bosib qolsa yoki ekinga biror ofat yetsa, unda xaroj olinmaydi, deb belgilangan.

1335 (1916) yil uchun soliq hisobotida Toshxovuz va Mo‘lali suvsiz bo‘lib, ko‘chib ketgan mulkdorlardan soliq olinmagan. Shuningdek, Taxtadagi ayrim yerlarda suv yetib bormaganligi uchun hosilidan ayrilgan dehqonlardan ham solg‘ut o‘tilganligi ma‘lum bo‘ladi³⁷³. Ayrim hollarda to‘g‘onlar suv bosimiga dosh bermasdan buzilib, dehqonlarning hosilini yuvib ketgan. Bu vaziyatda ham fuqarodan soliq talab etilmasligi uchun nishona hat berilgan.

Xiva xonligi soliq tizimi tarixiga oid arxiv manbalarida xonlikda amal qilgan soliq siyosatining ijtimoiy jihatlari ham bo‘lganligini ko‘rish mumkin. O‘zMA fondi hujjatlarida iqtisodiy mushkul vaziyatga tushib qolgan fuqarolar tomonidan xonga soliqlardan ozod qilishi hamda moddiy yordam berishini so‘rab jo‘natilgan iltimosnomalar tadqiqotchi fikrini dalillaydi. Soliqdan ozod etilishi so‘ralgan hujjatlarda asosan, tabiiy ofat natijasida ushr va solg‘utdan ozod etish so‘ralgan. Bunday holda yer egasi solg‘ut to‘lashga va mehnat majburiyatini (qozu) bajarishga imkoni yo‘qligi sababli, bir yil muddatga soliqdan ozod etib, devonlarning daxl qilmasligi uchun nishona hujjati berilgan³⁷⁴.

Iltimoslar orasida solg‘ut va kozudan ozod qilishga doir arizalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Biroq, xonga savdogarlardan ham murojaatlar

³⁷¹ O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 420-yig‘ma jild, 14-varaq

³⁷² O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 103-yig‘ma jild

³⁷³ O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 589-yig‘ma jild

³⁷⁴ O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 437-yig‘ma jild, 2-varaq

kelib turgan. Ulardan biri Husayn Muhammadboy ismli savdogarning shakar yuklangan qayig'ining cho'kib ketganligi bois, zakotdan ozod etishga doir murojaatidir³⁷⁵. Bunday murojaatlar xon tomonidan befarq qoldirilmasdan, masalani o'rganib chiqish uchun biror mas'ul shaxsni tayinlab, murojaat asosli bo'lsa, u shaxs soliqlardan ozod etilganini aniqlash mumkin. Bu esa soliq siyosatida adolat tamoyillariga ham rioya etishga harakat qilinganidan dalolat beradi.

Xonlik aholisi og'ir vaziyatda, qiynalib qolgan yillarida xon ularni soliqdan ozod qilgan yoki uning miqdorini kamaytirganligi to'g'risidagi ma'lumotlar boshqa manbalarda ham uchraydi. V.A.Girshfeld va A.S.Galkin yozishicha, aholining soliq yukini kamaytirish to'g'risidagi iltimosnomalari odatda, ijobiy hal qilingan va xon soliqni yarim barobarida kamaytirgan³⁷⁶.

Xonlik soliq siyosatining insonparvarlik jihatlari, oilaning boquvchisini yo'qotgan holda farzandi voyaga yetgunga qadar soliq va majburiyatlaridan ozod etilganida ko'rinadi: "...ʻarz-ixlāsīmīz bŭlkīm, Khanqahli qŭlīngīz ʻAbdullāh tŭmānnīng ūghlī turārman. ātam Chārjŭyda ūlŭb īrdī, yītīm bŭlīb, ghārīb bŭlŭbman. Sālgŭt bīrmākkā qudrātīm yŭq tŭrŭr, marhāmatī shāhānā ītib, sālgŭtīn ūtsāngīz dāīm haqlārīghā qirāat hīiz qīlŭrman. ʻataqshīr ʻataqshīr³⁷⁷. Hujjatda davlat harbiy xizmatchisining oila a'zolari boquvchisini yo'qotganligi sababli, soliq to'lashdan ozod qilishni so'rab murojaat qilgan. Bunday vaziyatda o'g'il mulk egaligi saqlangan, sanoq daftarida *sag'ir* izohi qoldirilib, soliq olinmagan. Xonlikda yetim qolgan va vaqtincha mehnatga layoqatsiz meros egasidan 15 yoshga to'lguniga qadar soliq olinmagan. Bu esa soliq solishda insoniylik tamoyiliga ham e'tibor qilinganidan dalolat beradi.

Soliqlar davlat xazinasining asosiy daromad manbai bo'lganligi bois, hukumat xazinaga ko'proq soliq kelishini ta'minlash maqsadida *zamini maita* – bo'z yerlarni o'zlashtirib, dehqonchilik bilan shug'ullangan fuqarolarni rag'batlantirish tizimi ishlagan. Yangi o'zlashtirilgan yerlardan 3 yildan 10 yilgacha solg'ut olish man etilgan³⁷⁸.

³⁷⁵ Ichon Qal'a muzey qo'riqxonasi arxivi, № 39/79 raqamli hujjat

³⁷⁶ Гиршфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства... – Ч. 2. – С 35.

³⁷⁷ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yhat, 437-yig'ma jild, 3-varaq

³⁷⁸ O'zR MA I –125-fond, 1-ro'yhat, 148-yig'ma jild, 38-varaq

Bu muddat vaqtida mulkdor mehnat majburiyatiga jalb etilmagan. Davlatning o'zi ham soliq to'lovchilar toifasining ko'payishidan manfaatdor bo'lganligi bois, irrigatsiya tarmoqlarini rivojlantirish orqali yangi sug'oriladigan yerlarni kengaytirishga e'tibor qaratgan. Xuddi shunday yerlardan xonning maxsus inoyatnomasi olish orqali yorlikli mulk egalari shakllanib borgan.

Xiva xonligi tobeligiga kirgan ko'chmanchi chorvador aholini davlat e'tiboridan chetda qoldirmay, itoatda ushlab turish va qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq yengilliklari berilgan. Jumladan, Muhammad Rahimxon davrida ko'chmanchi qoraqalpoqlar uchun yer solig'ining imtiyozli shakli solg'ut – kesma joriy qilingan bo'lsa, 1895 yilda qoraqalpoq urug' biylarining iltimoslariga ko'ra, bu soliq chanqoraq puliga almashtiriladi.

Ko'chmanchi aholining o'z vaqtida soliq to'lab borishini ta'minlash hamda ularni rag'batlantirib turish uchun qimmatbaho to'nlar bilan mukofotlab turgan³⁷⁹. Xiva xonlari arxivi fondida qabila oqsoqolining xonga itoatkorligi, in'om etilgan qimmatbaho had'ya *hilat* uchun minnatdorchilik bildirgan nomasi saqlanmoqda.

Bundan tashqari, manbalarda soliq yig'ish jarayonidagi kelishmovchiliklar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Bunday holat ba'zan soliq to'lovchilar aybi bilan, ba'zan esa o'lpon yig'uvchilarning suiste'molliklari tufayli yuzaga kelgan. Xiva xonligida soliq to'lovchilar soliqlar, turli to'lovlar hamda soliq yig'uvchilar bilan kelib chiqqan muammoli hollarda o'z noroziliklarini xonga yozma murojaat orqali bildirganlar³⁸⁰. Bunday vaziyatlar kelib chiqishini oldini olish va soliq yig'uvchilarning suiste'molliklari bartaraf etish uchun soliq amaliyotida *masjid oqsoqoli* hamda *miroblar* hamrohlik qilishlari yo'lga qo'yildi.

Xiva xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng ham hukmron sulola aholi manfaatlarini himoya qilishda davom etadi. Bu borada bir necha marotaba Amudaryo bo'limi boshlig'i bilan yozishmalar olib boradi. Jumladan, 1897 yil Amudaryo bo'limi boshlig'iga xonlikda shakar, kerosin, gugurt, chit kabi mahsulotlar bilan tijorat qilayotgan rus

³⁷⁹ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 106-yig'ma jild, 1-varaq

³⁸⁰ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 433-yig'ma jild, 1-8– varaqlar

fuqarolaridan aksiz solig'i olinib, mahalliy savdogarlar bu masalada imtiyozga egaligi va ulardan aksiz solig'i olinmayotganligidan shikoyat qilishadi³⁸¹. Xonning javob hatida xivalik savdogarlar Rossiyaga bormayotganligi, ular bunday mahsulotlarni Xivada sotib olayotganligi, ulardan ikki marotaba soliq undirish tijoratchilarni xonavayron qilishi mumkinligini yozadi. Shuningdek, rus savdogarlari so'nggi vaqtlarda kelishuv shartlariga zid ravishda savdo daftarlarini ko'rsatmay, xon g'aznasiga savdo to'lovlari to'lamay qo'yganligi katta zarar keltirayotganligini ma'lum qiladi.

XIX asr Xiva xonligi tarixiga oid manbalar tahlili asosida xonlik soliq tizimining ijtimoiy tamoyillari, adolat prinsiplari Qo'ng'irotlar sulolasi davrida amalga oshirilgan soliq islohoti natijasida davlat boshqaruv apparatida soliq ishlari bo'yicha aniq mansabdorlarning belgilanganligi, beklarning soliq joriy etish va yig'ish huquqidan mahrum etilishi, o'lpon yig'uvchilarga mahalliy ma'murlar hamrohlik qilish tartibining joriy qilinishi soliq yig'ish jarayonidagi turli sue'stemolchilik va nizolar yuzaga kelishini oldini oldi.

Hukmron sulola yangi yerlar o'zlashtirilishining tashabbuskoriga aylanib ekin maydonlarining kengaytirishi, ushbu jarayonda ishtirok etgan, yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta'minlash, bu orqali soliq to'lovchilar safining oshishi va davlat xazinasiga tushumning ko'payishiga erishdi. Bunday yer egalariga soliq imtiyozlarining berilishi aholining ushbu qismini markaziy hokimiyat tomonidan ijtimoiy qo'llab quvvatlanganligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida, xonlik iqtisodiy rivojlanishini ham ta'minlagan.

Qurg'oqchilik, hosilsizlik, sel ketishi va boshqa turli tabiiy ofatlar vaqtida yoki aholining soliqlarni to'lashga qurbi yetmagan hollarda xonga iltimosnomalar yo'llashi va aksariyat holatlarda ushbu masalaning ijobiy hal etilishi markaziy hokimiyatning aholini ijtimoiy qo'llab kelganligini ko'rsatadi.

Xonlik fuqaroligiga o'tgan ko'chmanchi chorvador aholi ham markaziy hukumat e'tiboridan chetda bo'lmay, ular uchun maxsus imtiyozli kesma tizimining joriy etilishi hamda soliqlarni o'z vaqtida

³⁸¹ O'zR MA I –125-fond, 2-ro'yxat, 8-yig'ma jild, 17-varaq

to‘lagan urug‘larni doimiy rag‘batlantirib turish ishlari ularning davlat homiyligida bo‘lganligidan dalolat beradi.

Soliqlar davlat iqtisodiyotini tartibga solish funksiyasini bajarar ekan, ulardan kelgan mablag‘larni qanday sohalarga sarf etilayotganligini o‘rganish muhim sanaladi. Qo‘ng‘irotlar davri Xiva xonligi davlat daromadining asosini soliqlar tashkil etgan bo‘lib, xon davlat rahbari sifatida xazinadan foydalanish vakolatiga ega bo‘lgan. Xonlik g‘aznasiga kelib tushgan, soliqlar hisobidan yig‘ilgan mablag‘larning qanday maqsadlarda sarf etilganligi to‘g‘risidagi fikrlar va mulohazalarda uzoq vaqt davomida “xazina faqat xonning shaxsiy ehtiyojlari uchun xizmat qilgan”, degan aniq isbotlanmagan qarash ustuvor bo‘lgan.

Sobiq sovet davri adabiyotlarida soliq amaliyoti shavqatsizlik bilan amalga oshirilgan, mehnatkash aholi, dehqonlarning kambag‘allashuviga sabab bo‘layotgan soliqlar saroy maishati uchun ishlatilgan, deb bo‘rttirilgan holda sharhlanib kelingan. Mazkur tadqiqot ishida bu xulosaning tarixiy haqiqatga mos emasligi, aholidan yig‘ib olingan soliq tushumlaridan ijtimoiy ta‘minot, davlat rivoji uchun ham sarf etilgani, xon barcha murojaatnoma yoki iltimosnomalarda arzchi tarafini olishga hakarat qilgani, soliq tizimini xalqchil qilish uchun islohotga rozi bo‘lgani yuqoridagi ma‘lumotlar asosida ochib berildi.

Bugungi kunda O‘z MAda saqlanayotgan Xiva xonlari devonxona hujjatlari fondidan o‘rin olgan 24 ta yig‘ma jildda, XIX asr ikkinchi yarmi XX boshlariga oid hujjatlarda Xiva xonlari devonxonasida yuritilgan sarf harajatlar qaydnomalari mavjud. O‘rganilgan mazkur turdagi arxiv hujjatlari soliqlar hisobidan yig‘ilgan mablag‘ning asosan, xon saroyi harajatlari, davlat amaldorlari va harbiylar maoshlari, davlat muhofazasi, elchilik masalasi, tabiiy ofatlarni bartaraf etish, diniy-madaniy sohalarga ajratilganini ko‘rsatadi.

Xiva xonligi davlat tuzilishiga ko‘ra mutlaq monarxiya hisoblangan, xon boshqa jabhalar kabi, davlat moliyasini ham mustaqil boshqargan va saroy harajatlari ham o‘z navbatida soliqlardan tushgan pullar hisobidan qoplanagan. Xususan, “Mīng dāghī ūch yūz ūttūz ūchlānjī yil Māhī Sha‘bāndan bāshlab har tūrlūq ūrūnlārgḥā bīrīlgān harājātnīng daftarī” ark uchun zarur mahsulotlar: oziq-ovqatdan tortib, kiyim-kechak, o‘tin,

ko‘mir, sham va boshqalar ham soliq qaydnomalarida yillar kesimida, oyma-oy yozib borilgan. Misol uchun, “Māhī Shavvāldā maḥrāmḡānā ḡarajātālārī” Pahlavon mahramga sham bilan ko‘miri uchun 7 tillo, Muhammad nazar oshpazga o‘tin uchun 5 tillo, Suvchiga bir tillo, yana bir qand bila, bir qog‘oz choy berildi- 2 tillo”. Keyingi sahifalarda saroy ahli kiyim-kechaklari hisobi yuritiladi: “Tūqqūz ārchīn shāhī atlas 25 tanga, o‘n qo‘shā īpāklī rūmāl 2 ṡillā, bir būlak āq tūrmā tūrt yārīm ṡanga, īkkī būhār shāhī tūqqūz yārīm ṡanga, ūch hūqānd shāhī 7 ṡillā 6 ṡanga, bir qamarlī chakmān pūlī 14 ṡillā ³⁸². Yuqoridagi qaydlardan ko‘rinib turibdiki, soliq hisobidan sarf etiladigan har bir tanga aniq hisobli bo‘lgan va qayd etib borilgan.

Bu kabi ma‘lumotlar Xiva xonligi yer egaligi va davlat boshqaruvi masalasini tadqiq etgan akademik M.Y Yo‘ldoshev tomonidan ham e‘tirof etiladi. Muallif fikricha, XIX asr Xiva davlat hujjatlari, soliq daftarlari orasida saroy harajatlarini ko‘rsatuvchi daftarlari talaygina bo‘lib, kundalik ro‘zg‘or harajatlaridan tortib, turli shaxslarga berilgan in‘omlar, saroy uchun sarflangan mablag‘larni aks ettiradi. Ushbu daftarda mehtar tomonidan islom dinining muqaddas bayrami – Qurbon hayiti munosabati bilan qilingan saroy harajatlari aks etgan. Unga ko‘ra, xonga bir asl chakmon, narxi yetmish yetti tillo bo‘lgan bir buxor shohi to‘n tiktilib berildi. Shuningdek, Otajon to‘ra va boshqa saroy ahliga ham asl chakmon, buxori to‘n puli berilib, oltmish yetti tillo harajat etilgan³⁸³. Ro‘yxat shu tarzda davom ettirilib, xon va uning oila a‘zolari uchun sarflardan iborat.

XX asr boshiga qadar xonlik amaldorlari davlatdan aniq belgilangan maoshga ega bo‘lmagan. Ular har yili yig‘iladigan soliqning ma‘lum qismini o‘zlariga olib qolish bilan cheklangan. Shuningdek, xon tomonidan yirik yer-mulklar taqdim etilib, soliqlardan ozod etilgan. Islomxo‘ja islohotlar dasturining 1 – bandi aynan soliq ijrosida amaldorlar suistemolliklarini yo‘q qilish uchun aniq bedgilangan maosh tayinlash va ularning fiskal maqomini bekor qilishga qaratilgandi: “...shul tartibg‘a muvofiq katta amaldor odamlar zaifasi bir yilda 5 ming tillodin 10 ming

³⁸² O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 598-yig‘ma jild, 1-varaq

³⁸³ XIX asr Xiva davlat hujjatlari. – II tom. M.Й Ёўлдошев тахрири остида. – Тошкент, 1960. – Б. 392

tillig‘acha, ya‘ni 9 ming manotdan 19 ming manotgacha, katta qal‘a hokimlari va shularning barobaridagi amaldorlar 1 ming tillodin 2 ming tilligacha, kichik amaldorlar, ya‘ni xonning yonida bo‘lib turg‘on mahramlar, kichik qal‘a amaldorlari va ularning barobaridagi amaldorlar ming tillodin, ya‘ni 1800 manotdin berilmakni ma‘qul ko‘ruldi”³⁸⁴.

Ko‘rinib turibdiki, xonlikda soliqlar hisobidan davlat xizmatchilari, saroy amaldorlari, devonxona mirzalariga maosh, shuningdek, viloyat hokimlari, oqsoqol va biylarga rag‘bat puli to‘langan. Mazkur ma‘lumotni tasdiqlovchi manba - Xiva xonlari arxividagi hujjatda devonxonada faoliyat yurituvchi mirza (devon)larga berilgan oylik maosh to‘g‘risida batafsil ma‘lumotga uchraydi. Unga ko‘ra, Mulla olti devonni oyligi 45 manot, Mulla Ibrohim devonga 45 manot, Karimbergon devon 30 manot, Nazar Yusuf devon, Durdi devon, Xoja Ahmad devon va yana 4 devonga 45 manotdan, yana ikki mirzaga 18,5 va 10,5 manotdan haq to‘langan. Jami devonxona harajatlari 1402 manot yoki 1334 kichik tilloni tashkil etgan³⁸⁵. Shuningdek, xon tomonidan saroy amaldorlari yoki hokimlar, biy va oqsoqollarga to‘y qilganlarida turli sovg‘alar: to‘n, qilich, pichoqlar xad‘ya etilgan bo‘lsa, soliq yig‘ishda faolliklari uchun pul mablag‘lari bilan mukofotlangan³⁸⁶. Bularning barchasi manbalarda aniq miqdorlari bilan qayd etilgan. Bu esa ta‘magirlikni oldini olishga xizmat qilgan.

Davlat amaldorlari uchun sanoq daftarlarining 1272-yil mohi ramazon, baliq yiliga muvofiq *nisf puli*³⁸⁷ berilgan *yoddosht* – nomli hujjatda, turli lavozim egalari: Xakim otaliq, Iskandar inoq, Shohmurod inoq, Biy oqo, Rahmatullo yasovulboshi, Abdurahim mahramg‘a ellik tillodan nisf puli berilganligi³⁸⁸ qayd etilgan.

Xiva xonligi davlatning ichki va tashqi xavfsizligini ta‘minlash asosiy vazifa sanalib, bu soha uchun xazinadan katta miqdorda mablag‘ ajratilgan. O‘rganilgan hujjatlar g‘aznasidan eng ko‘p mablag‘ davlat muhofazasi uchun navkarlarga oylik maosh sifatida sarflanganligini ko‘rsatadi. Yangi qonunga ko‘ra, *navkarlarga* har oyda 5 tillo zaifa va 20

³⁸⁴ Ichon-Qal‘a muzey qo‘riqxonasi arxivi, №36/87 raqamli hujjat

³⁸⁵ O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 585-yig‘ma jild, 1-varaq

³⁸⁶ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 103-yig‘ma jild, 6-varaq

³⁸⁷ Xiva xonligida xon tomonidan berilgan bir yo‘la maosh.

³⁸⁸ O‘zR MA I –125-fond, 1-ro‘yxat, 602-yig‘ma jild, 1-3-varaqlar

tanob yerining solgʻutidan oʻtilgan; *otliq mirshablarga* bir yilda 216 manot va bir ot berilgan, 10 tanob yeri solgʻutdan ozod etilgan; *podshoh mirshablariga* yiliga 44 tillo yaʼni 80 manot berilgan. Tavhija daftarlarida navkarlarga berilgan maosh va qoʻnuq pullari, urushda halok boʻlgan otlari uchun tovon pullari berib borilgani qayd etilgan:

Bobo yuzboshi	18 tillo
Taka Nasafbek	54 tillo
Murod Bahodir	22 tillo
Sihhat Bahodir	36 tillo 6 tanga
Bobo xalifa mingboshi	40 tillo
taka Davlat Nazarbek	10 tillo ³⁸⁹

№20-jadval. Navkarlarga berilgan maosh

Qaydlardan koʻrinib turibdiki, xazinadan harbiylarning kunlik harajatlari uchun katta mablagʻ sarflangan.

Maoshdan tashqari, navkar va sipohilarga katta miqdordagi yerlar inʼom etilgan, yerlarining maʼlum qismi soliqlardan ozod qilingan. Xiva xonligidagi oʻziga xos *otliq* yer egaligi va shu nom bilan ataluvchi oʻlchov birligining vujudga kelishi ham navkarlarga maosh tariqasida berilgan yer miqdori nomidan kelib chiqqan. Odatda ish yuritish hujjatlarida oylik maosh yoki boshqa hollarda berilgan pullarning manbai ham koʻrsatilgan. Jumladan, “Sūmbūlānīng ūn ūchlānjīsī pānjshanbā kūnīdān bāshlab, Tāshhovūzghā ābā yūzbāshī bīlā 799 ṭillā takālārnīng qūnūqī ūchūn bīrīb yūborīldi. 400 ṭillāsīn qūshbīgī āqādīn āldūq, 100 ṭillāsīn Gurlān sālgūti darākīdīn Mihtar oqodīn āldūq 100 tillosīn sākxānāning fāydāsīdīn āldūq. Mazkūr ṭillādīn ikki yuz dāghī bir ṭillāsīni chavdurlārnīng qūnūqī ūchūn Ātaniyāzbāyghā bīrduq”³⁹⁰.

Soliq hisobiga yigʻilgan mablagʻlar asosiy qismini saroy amaldorlari va harbiy xizmatchilar uchun maosh sifatida taqsimlanishi davlat xavfsizligi va boshqaruvni mustahkamlar zarurati bilan bogʻliq edi. Zero, islom soliqlarini yorituvchi “Kitob al xaroj” asarida ham soliqlarni sarflanishida bir ulush davlat havfsizligi yoʻlida sarflanishi

³⁸⁹ OʻzR MA I –125-fond, 1-roʻyxat, 554-yigʻma jild, 51-varaq

³⁹⁰ Ёлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент, 1959. – Б. 364

lozim, deb ta'kidlangan³⁹¹. Shunday ekan, tashqi hujumlardan himoyalaniib turish, davlat harbiy qudratini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash uchun harbiylarga yaxshi maosh va qo'nuq puli, aslahalar uchun mablag'lar ajratilib turilgan.

Qo'shni davlatlar bilan diplomatik aloqalarni mustahkamlashda elchilik munosabatlari muhim o'rin tutgan. Davlatning tashqi aloqalarini olib boruvchi elchilar ta'minoti ham, o'z navbatida, soliqlardan tushgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan. Misol uchun, Buxoroga elchilikka yuborilgan Otaniyoz bekka yo'l harajatlari va sovg'a salomlar uchun oltmish tillo ajratilgan³⁹². Buxoro elchisig'a yo'l ozuqasi uchun yigirma besh tillo berilgan.

Xiva xonligi Qo'kon xonligi bilan do'stona munosabatlar o'rnatgan va muntazam elchilik aloqalari olib borgan. "Firdavs ul-iqbol" asarida Qo'qon xoni Sheralixon Qorabosh dodxoh ismli kishini Xiva xonligiga elchi qilib jo'natganligi, Qorabosh dodxoh elchining Qo'qonga qaytishida Xiva xoni o'z elchisi Bobobekni u bilan jo'natgani, undan keyin Eshmurodbekni ham Qo'qonga elchi qilib jo'natilgani³⁹³ to'g'risida ma'lumot mavjud.

Xiva xonligi Qo'ng'irotlar davri soliqlarda yig'ilgan mablag'larni madaniy-diniy sohalari rivoji uchun ham sarf etilgan. Misol uchun, 1872-yilda Xivada Said Muhammad Rahimxonning buyrug'i bilan qurib bitkazilgan madrasaga katta miqdorda yer vaqf qilib berilgan. Shu bilan birga madrasa qurilish ishlari bitgandan so'ng, xonlik xaznasidan ilm ahliga e'tibor tariqasida sovg'alar beriladi³⁹⁴. Albatta, bu ham soliqlardan tushgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan.

Arxiv ma'lumotlariga asosan, hijriy 1331 (1912) yilga doir harajatlar daftarida Xivada qurilishi boshlangan Oliya madrasasi uchun barcha sarf harajatlar soliqlar hisobidan amalga oshirilganligi qayd etiladi: Xususan, hom karfij³⁹⁵ uchun 381 tillo, 2 tanga, yana hom karfij uchun 22 tillo, yana 105 tillo, har turli narsalar uchun 71 tillo, ustolarga

³⁹¹ Абу Юсуф Яъқуб ибн Иброҳим Куфий. Китоб ал хароҷ. Таржимон А.Маннапова. – Тошкент, 2021. – Б.140

³⁹² XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. – II том. М.Й Йўлдошев таҳрири остида. – Тошкент, 1960. – Б. 13

³⁹³ Хатамова З. Қўқон хонлигида солиқ тизими... – Б. 134

³⁹⁴ XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. II том. М.Й Йўлдошев таҳрири остида. –Тошкент, 1960. –Б.16

³⁹⁵ Rus tilidagi kirpich –g'isht so'zining buzilgan talaffuzi

10 tillodan 12 tillo”³⁹⁶. Ko‘rinib turibdiki, madrasa qurilishi uchun zarur hom ashyo va ustalarga berilgan haq ham soliq mablag‘laridan amalga oshirilgan. Qiziqarli jihati, mablag‘lar mehtar oqodan olingan, u esa o‘z navbatida sarflanayotgan pullarning qaysi hudud solg‘utidan yig‘ilganligi va kunlik xarajatlarni qayd etib borgan.

Davlat xazinasidan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xususan, tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish, irrigatsiya inshootlari ta‘mirlash, begarda qatnashgan qozuchilarga haq berish maqsadlarini moliyalashtirishda ham foydalanilgan. Bu o‘rinda xonlikning 1910 yilda qilingan xarajatlari orasida Ko‘hna Urganchda qilingan harajatlar 506 tillo, Ko‘hna Urganchdagi kanalni qazuvchilarga qilingan harajatlar 1000 tillo, suv toshqini munosabati bilan qilingan harajatlar 1284 tilloni tashkil etganligi hamda yillik begar jarayonida ishtirok etuvchilar uchun haq berilganligini ahamiyatlidir³⁹⁷.

Yuqorida o‘rganilgan tarixiy hujjatlar, soliqlarning sarf etilishiga oid ma‘lumotlar qayd etilgan manbalar asosida xulosa qilib aytish mumkinki, g‘aznadagi soliqlardan kelib tushgan daromadlar harbiy harakatlar, navkarlar ta‘minoti, oylik maoshlari va qo‘niqi uchun sarflangan. Shuningdek, jangda halok bo‘lgan navkarning oila a‘zosiga moddiy yordam, yoki jangda o‘z otini yo‘qotgan navkar uchun tovon puli to‘lab berilgan. Solg‘ut hisobidan shuningdek, saroy amaldorlari uchun maosh berishda foydalanilgan. Saroy xizmatchilariga oylik maoshdan tashqari rag‘batlantirish maqsadida to‘n va boshqa sovg‘alar berilgan. Xonlikda qurg‘oqchilik, hosilsizlik, sel ketishi va boshqa turli tabiiy ofatlar davrida davlat tomonidan soliq olinmagan. Bunday tabiiy ofatlar natijasida loy to‘lgan ariqlarni tozalash, qazuvchi va qochuga chiqqan ishchilarga xaq to‘lash, suv toshqini bilan bog‘liq harajatlarga ham xazinadan mablag‘ sarflangan. Qo‘shni davlatlar bilan elchilik aloqalari bilan bog‘liq harajatlar ham soliqlardan tushgan daromad hisobidan qoplangan. Islom ustuni bo‘lgan masjid va madrasalar ta‘miri va yangilarini barpo etish faqat vaqf daromadlari bilan cheklanib qolmasdan, soliqlar hisobidan ham madrasa bunyod etilgan. Madrasalarda ushr

³⁹⁶ O‘zR MA I –125-fond, 2-ro‘yxat, 546-yig‘ma jild, 12-varaq

³⁹⁷ Болтаев А. Хива эсдаликлари. ЎзР ФА ШИ № 11645 рақамли қўлёзма 75- варақ

hisobidan tolibi ilmlarga oylik maoshlar berib borilgan. Yuqorida qayd etilgan sohalar bilan bir qatorda saroy harajatlari ham mavjud bo‘lib, oziq-ovqat, kiyim-kechak, fahrli mehmonlar uchun hadyalar, ko‘mir, sham va boshqalar uchun ham soliq mablag‘laridan sarflangan. Ularning barchasiga mehtar tomonidan mablag‘ ajratilgan va tavxija daftarida qayd etib borilgan.

Bu holatlarning barchasi, xonlikda soliq tizimi tartibli yo‘lga qo‘yilgani, hududning egallanishi natijasida keyinchalik uni isloh qilishga talab shakllangani, bu tizimni yangilashda Islomxo‘janing o‘rni muhim bo‘lgani, soliq tizimi sovet davrida ta’kidlanganidek, aholini qiynoqqa solish uchun emas, balki mamlakatni har sohasini imkon boricha rivojlantirishga qaratilganini isbotlaydi.

1873-yilgi Rossiya imperiya bilan imzolangan Gandamiyon tinchlik shartnomasi xonlik soliq tizimidagi ayrim o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, Rossiya imperiyasi savdogarlarlari xonlikda ulgurji va chakana savdo qilishidan qat’iy nazar xonlik g‘aznasiga hech qanday to‘lov to‘lamasligi, bozorlarda savdo qilganlik holatida ham bozor to‘lovlarini to‘lamasliklari belgilab berildi.

Xonlikning Rossiya yagona bojxona chizig‘iga kiritilish azaliy savdo hamkorlari Hindiston, Turkiya, Eron va Afg‘oniston singari davlatlarga o‘rnatilgan yuqori boj tariflari sabab, savdo-iqtisodiy aloqalar yomonlashdi. Bu esa chetdan keladigan birlamchi iste’mol mahsulotlari taqchilligini, narxining keskin oshishi, shuningdek mamlakatga kontrabanda avj olishiga olib keldi.

XX asr boshlaridagi soliq tizimida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish, soliq tushumini kamaytirmagan holda optimallashtirish, iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash maqsadida Islomxo‘ja tomonidan islohotlar dasturi ishlab chiqilgan. Dastur tizimdagi tabaqalashtirilganlik tamoyiliga barham berishni ko‘zda tutilib, islohot natijasida bozor to‘lovlari tartibga solingan.

XULOSA

Xiva xonligi soliq tizimi tarixi va tarixshunosligi mavzusini tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Rossiya imperiyasi davrida nashr qilingan asarlar, sovet davri adabiyotlari, mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar hamda Xiva xonligi tarixining ayrim masalalarini o'zida aks ettirgan xorijlik mualliflarning ilmiy ishlari bo'yicha amalga oshirilgan tarixshunoslik tahlili Xiva xonligining soliq tizimi masalasi alohida, yahlit tadqiqot sifatida o'rganilmaganligini ko'rsatadi;

2. Xonlikda qishloq ho'jaligida solg'ut va ushr asosiy soliqlar bo'lgan. Solg'ut solig'i yer bilan bog'liq bo'lsa-da, ko'proq daromad solig'i xususiyatini kasb etib, ma'lum yerga ega bo'lmagan *bevatanlar* yoki qullikdan ozod qilinganlardan ham aynan solg'ut olinganligi tadqiqotchi mulohazalarini tasdiqlaydi. Ushr esa – davlat yerlari ijarachilaridan mahsulot ko'rinishida olinib, biror ho'jalik undan ozod etilmagan;

3. O'zMAda saqlanayotgan rasmiy hujjatlardagi *zakoti tujjarji*, *zakoti buxarjiy*, *zakoti qal'achi*, *zakoti ung'utchi* tushunchalari zakotining turlarini emas, balki savdogarning qaysi hudud mol olib kelganligi yoki qanday mahsulotdan soliq olinganligini anglatadi. Xonlikda doimiy istiqomat qiluvchi ko'chmanchi hayot tarzidagi qoraqalpoqlar, qo'ng'iroqliklar va ayrim turkman urug'laridan *zakot-kesma solig'i* olingan.

4. Xiva xonligida notarial xizmatlari (yorliqona, nikoxona, tarkona, pasport puli), jamoat joylarida ma'lum xizmatlardan foydalanganlik uchun (tarozi puli, tagijoy puli, qayuq puli), shuningdek, man etilgan xarakatlarni sodir etganda (yasovul puli, cho'p puli) jarima, to'lov va yig'imlar joriy etilgan.

5. Xiva xonligi Qo'ng'irotlar davri soliq tizimini markazlashtirish va turli suiste'molliklarni oldini olish maqsadida soliq amaliyoti rasmiylashtirib borilgan. Xiva xonligi soliq tizimi adolat, majburiylik, aniqlik, nazorat-taftish va ijtimoiy tamoyillarga asoslangan. Shuningdek, soliq imtiyozlari joriy etilgan bo'lib, soliqdan qisman ozod qilish orqali aholini ijtimoiy muhofaza qilish, iqtisodiy va madaniy sohalarni

rivojlantirish hamda siyosiy jihatdan mutahkam o‘rnashib olishni nazarda tutgan.

6. Aholini soliq to‘lash qobiliyatini rag‘batlantirish maqsadida fuqarolarga xon tomonidan *to‘n*, *pichoq* ko‘rinishidagi turli in‘omlar taqdim etilgan. Soliq to‘lovchilar sinfini kengaytirish maqsadida bo‘z yerlardan o‘z mehnati bilan yerni o‘zlashtirib, ahyoga aylantirgan dexqonchilik bilan shug‘ullangan kimsalarni 3 yildan 10 yilgacha solg‘utdan ozod qilingan. Qurg‘oqchilik, suv bosishi, xosilsizlik singari tabiiy ofatlar davrida yoki iqtisodiy qiyin vaziyatlarda fuqarolarning soliqlardan ozod etish murojaatlari ijobiy hal etilgan.

7. Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi davlat soliq tizimiga qattiq ta’sir o‘tkazib, tashqi soliq foizlarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Buning natijasida kelib chiqqan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tufayli, XIX asr oxiri XX asr boshlari mamlakat soliq tizimida ayrim islohotlar yuz berdi. Islomxo‘ja soliq islohotlari natijasida qisqa muddatga yer solig‘ining to‘lovga layoqaytlilik qobiliyati asosida emas, egallagan yer miqdori tanobiga ko‘ra soliq olish tartibi yo‘lga qo‘yildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2995-sonli qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" PF-5468 sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyuldagi "Davlat soliq xizmat organlari tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ 3802 sonli Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi "Soliq va bojxona imtiyozlari berishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5755-sonli Farmoni // www.lex.uz.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4389 sonli Qarori.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: "Ўзбекистон", 1998. – 31 б.

2. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: Ўзбекистон. 2011. – 440 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: "Ўзбекистон", 2016. – 29 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: "Ўзбекистон", 2017. – 107 б.

III. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi fondlari

1. O'z MA. I-1. Turkiston general-gubarnatorligi mahkamasi hujjatlari

2. O'z MA. I-125, 1-ro'yxat. Xiva xonligi devonxona hujjatlari

3. O'z MA. I-125, 2 - ro'yxat. Xiva xonligi devonxona hujjatlari

4. O‘z MA. I-907, 1 – ro‘yxat. Amudaryo bo‘limi boshligi devonxona hujjatlari

5. Ichan-Qal’a davlat muzey qoriqxonasi arxivi hujjatlari

IV. Manbalar va ularning tarjimalari

1. Абу Юсуф Яъқуб ибн Иброҳим Куфий. Китоб ал харож. Таржимон А.Маннапова. – Тошкент, 2021. – 240 б.

2. Баёний Ю. “Шажараи Хоразмшоҳий” . Қўлёзма манбалар асосида нашрга тайёрловчи Иқболой Адизова. – Тошкент, 1991, – 65 б.

3. Болтаев А. Хива эсдаликлари. ЎзР ФА ШИ, № 11645 рақамли қўлёзма.

4. Бурхон ад дин Маргинани. Аль Хидаёа “ Бидаёа аль Мубтади”. - – Алматы, .2013. – С. 233

5. Мадаминов Ҳ. Хоразм тарихига оид материаллар Ўз МА И. 125-фонд, 1-рўйхат, 609- йиғма жилд.

6. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 289 б.

7. Муравьев. Н. Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. – Москва, 1822. – Ч. II. – 350 с.

8. Муҳаммад Риза Агахи. “Зубдат ал-таварих”. Научно-критический текст. Составитель Хилола Назирова. – Ташкент – – Самарканд:.. МИЦАИ, 2016. – 304 с.

9. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1994. – 104 б.

10. Сайид Ҳамиджон тўра Комёб. Таворихи ул-хавонин. – Тошкент: Академия, 2002. – 116 б.

11. Сафаров Б. Хоразм хонлигига тегишли тарихий материаллар. ЎзР ФА ШИ, № 11645 рақамли қўлёзма

12. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Кифоя. – II жуз. – Тошкент: Шарқ, 2020., – 584 б.

V. Ilmiy adabiyotlar

V.1. O‘zbek tilidagi adabiyotlar

1. Абдурасулов А. Хива (тарихий этнографик очерклар). – Тошкент, 1997. – 143 б.

2. Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда Чор мустамлака тизими. – Тошкент, 2002. – 240 б.
3. Аҳмаджонов А. Россия империяси Марказий Осиёда (Чоризмнинг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсий тарихи ва тарихнавислиги). – Тошкент, 2003. – 270 б.
4. Боймирзаева Р. Ислом ҳуқуқи. – Наманган, 2010. – 61 б.
5. Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент, 1959. – 324 б.
6. Зиёев Х. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: Шарқ, 2006. – 352 б.
7. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 480 б.
8. Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент, 1959. – 364 б.
9. Қурбонов Ч. Туркистонда божхона фаолияти // Мозийдан садо, 2010. – Тошкент. – №2. – Б. 12-19
10. Матниёзов М., Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи. – Урганч, 2008. – 252 с.
11. Маҳмудов М. Хоразм тарихидан лавҳалар. – Урганч, 1998. – 70 б.
12. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). – Тошкент, 2002. – 118 б.
13. Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. – Тошкент, 2009. – 179 б.
14. Султонов Ў. Мусулмон мамлакатлари дипломатикаси. – Тошкент, 2019. – 82 б.
15. Хоразм тарихи.1-жилд. Муаллифлар жамоаси. Масъул муҳаррир М.Матниёзов. – Урганч, 1997. – 143 б.
16. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент, 2012. – 550 б.

V.2. Rus tilidagi adabiyotlar

1. Агзамова Г. О караванных путях из Хивы в Оренбург // Общественные науки в Узбекистане, 1991. – № 12. – Б. 43–48.

2. Арслонзода Р. Источниковедение. – Ташкент: Навруз, 2019. – 353 с.
3. Брегель Ю. Земельные отношения в Хивинском ханстве. Письменные памятники востока. Историко-филологическое исследование. – Москва, 1972. – 52 с.
4. Брегель Ю. Хорезмские туркмены в XIX веке. – Москва, 1961. – 442 с.
5. Военно-статическое описание Туркестанского военного круга. Хивинский район. Сос. Ген.штаба полковник В.Лобачевский. – Ташкент, 1912. – 117 с.
6. Гиршфельд В.А., Галкин А.С. Военно-статистическое описание Хивинского ханства. – Ч.2. – 189 с.
6. Иванов П.П. Хивинские хроники XIX в. Муниса-Агехи как источник по истории туркмен // МИТТ. – М.-Л., 1938. – Т.2. – 244 с.
7. Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. исследование и описание документов с историческим введением. – Ленинград, 1940. – 290 с.
8. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. XVI – сер. XIX в. – Москва, 1958. – 248 с.
9. Иванов П.П. Удельные земли Сейид-Мухаммед-хана хивинского (1856-1865). В порядке постановки вопроса о так называемых ханских землях в Средней Азии. Записки Института востоковедения Академии Наук СССР. – VI. – Москва, 1937. – С.27-59.
10. Костенко Л.Ф. Город Хива в 1873 г. – Санкт-Петербург, 1873.
11. Лобысевич Ф.И. Описание Хивинского похода 1873 года. – Санкт Петербург, 1898.
12. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. – Ташкент, 1988. – 180 с.
13. Ниязатов М. Поиск консенсуса. Российско-хивинские геополитические отношения в XVI – начале XX в. – СПб., 2010. – 496 с.

14.Правилова Е. Финансы империи. Деньги и власть в политике России на национальных окраинах. 1801-1917. – М.: Новое издательство, 2006. – 456 с.

15.Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской Республики Узбекистан. История // Составители: Д. Ю. Юсупова, Р. П. Жалилова. – Ташкент: Фан, 1998.

16.Уринбаев А., Хорикава Т., Файзиев Т., Джураева Г., Исогай К. Каталог хивинских казийских документов XIX – начала XX вв. – Ташкент-Киото, 2001. – 729 с.

17.Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент, 2013. – 336 с.

18.Шкапский О. Аму-Дарьинские очерки. К аграрному вопросу на Нижней Аму-Дарье. Земледелие и землевладение в Шураханском участке Аму-Дарьинского. – Ташкент, 1900. – 283 с.

19.Шкапский О. Как хивинцы ведут полевое хозяйство на своих безводных землях. – Москва, 1900. – 69 с.

V.3. Ingliz tilidagi adabiyotlar

1. Abdurasulov U. Ata I Mulk and Yarliqli- Mulk: Features of Land Tenure in Khiva // Der Islam Bd, №88:2, 2011. – 323 p.

2. Bregel Y. Bibliography of Islamic Central Asia. Part I–III // Indiana University Research Institute for inner Asian Studies. – Bloomington, Indiana, 1995.

3. Bregel Yu. Documents from the Khanate Khiva (17th-19th centuries). – Bloomington, IN, 2007. Pappers on Inner Asia. – No.40. – 73 p.

4. Holdwort M. Turkestan in the nineteenth century. A Brief History of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – Oxford, 1959. – 360 p.

5. Macgahan J.A. Campaigning on the Oxus and the Fall of Khiva. – London, 1874. – 249 p.

6. Morrison A. The Russian conquest of Central Asia. – Cambridge University Press, 2020. – 82 p. Part I. – Pp. 1 – 712; Part III. – Pp. 1892–2049.

7. Sartori P. Visions of Justice: Shari‘a and Cultural Change in Russian Central Asia. – Leiden, 2016. – 70 p.

8. Sartori P. Khiva 1873: the «archive» that never was quaderni storici 167 / a. LVI, n. 2, agosto 2021. – 65 p.

9. Seitz John Britton. Irrigation and agriculture in the khanate of Khiva 1768-1914. – Indiana, 2013. – P. 77

10. Shioya Akifumi. “Irrigation Policy of the Khanate of Khiva Regarding the Lawzan Canal (1), 1830–1873 // Area Studies Tsukuba, №32, 2011.

11. Wood W. A Collection of tarkhan yarliqs from the khanate of Khiva. –Bloomington, Indiana, 2005. – 70 p.

VI. Dissertatsiya va avtoreferatlar

1. Абдурасулов У.А. Земельные отношения в Хивинском ханстве во второй половине XVIII – первой четверти XIX вв. Тарих фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2008. – 182 с.

2. Агзамова Г.А. Ўрта Осиё хонликларида хунармандчилик ва савдо. Тарих фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 348 б.

3. Аминов А. Экономическое развитие Средней Азии (со второй половины XIX столетия до первой мировой войны). – Тошкент, 1959. – 298 с.

4. Жумаев У.Х. Россия империясининг Туркистондаги солик сиёсатининг шаклланиши: асосий бошқичлари ва тараққиёти. Тарих фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 2012. – 30 б.

5. Кочнев А.В. Политика России в отношении Хивинского ханства в начале XVIII – второй половине XIX в. Дисс. на соис. уч. степ. кан. наук. – Екатеринбург, 2018. – 215 с.

6. Мамажонов М. Материалы по истории Хивинского ханства. Дисс. канд. истор. наук. – Ташкент: ТошДУ, 1999. – 195 с.

7. Масалиева О.М. XX аср инглиз-америка тарихшунослигида Бухоро, Хива ва Қўқон хонликлари тарихи. Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999. – 172 б.

8. Маткаримова С.М. Хива хонлигининг Қўнғиротлар сулоласи даври тарихшунослиги. Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 170 б.

9. Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. Тарих фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзФАШИ, 2003. – 150 с.

10. Наврузов С. Социально-экономическая и культурная жизнь в Хивинском ханстве в исторической, историко-географической литературе XIX-XX вв. Дисс. канд. ист. наук. – Ташкент: ЎзФАШИ, 1991. – 196 с.

11. Полвонов Н.Т. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи. (1900-1924). Тарих фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 32 б.

13. Сабурова С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2002. – 180 б.

12. Содиков А.С. Экономические последствия установление протектората царской России над Хивинским ханством. Дисс. канд. истор. наук. – Москва, 1954. – 329 с.

13. Тўраева С. XVIII аср иккинчи ярми ва XIX аср 70-йилларида Хива хонлиги ҳунармандчилиги тарихи. Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 146 с.

14. Кушчанов Д. Из истории аграрных отношений в Хивинском ханстве в конце XIX – начала XX вв. Дисс. канд. истор. наук. – Ташкент: ИИ АН Уз, 1966. – 259 с.

15. Хатамова З. Қўқон хонлигида солиқ тизими. Тарих фан. б. фалсафа док. (PhD) ... дис. – Фарғона, 2022. – 198 с.

16. Шайхова А. Юридические документы как источник по истории социально-экономических (преимущественно аграрных) отношений в Хивинском ханстве в XIX – нач. XX вв. Дисс. канд. ист. наук. – Ташкент: ИВ АН РУз, 1989. – 170 с.

17. Эрназаров Ф.Н. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигидаги маданий ҳаёт. Тарих фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2005. – 26 б.

18. Якубов Қ. XIX асрнинг II ярми ва XX аср бошида Хива хонлигида вақф институти (тарихий манбашунослик таҳлили). Тарих фан. б. фалсафа доктори ... дис. – Тошкент, 2018. – 124 б.

VII. Davriy matbuot va nashrlar

1. Кун А. Порядок взимания податей в Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости, 1873. – №33. – С. 130-131.
2. Кун А. Заметки о подятях в Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости, 1873. – №32. – С. 125-127.
3. Туркестанские ведомости, 1872. – № 32, 33, 35; 1876. – № 12, 13, 16, 17, 26, 28, 30, 37, 80; 1892. – № 26, 29; 1900. – № 103, 104; 1916. – №11.
4. Туркестанский сборник сборник. – Т.75, Т. 82; Т. 417 , Т. 327, Т. 417.

ILOVALAR

1-ILOVA

1331 (1912) yil yil uchun solgʻut hisobi, I.125, 1-roʻyxat, 412-yigʻma
jild

№	Hudud	Solgʻut	Chiqori
1.	Fitnak	7012 tillo 13 tanga	576 tillo
2.	Beshoriq	671 tillo 4 tanga	526 tillo
3.	Xiva (mehtar sanogʻi)	6798 tillo 8 tanga	736 tillo
4.	Xiva (qoʻshbegi sanogʻi)	10914 tillo 9 tanga	290 tillo
5.	Zoh	837 tillo 8 tanga	108 tillo
6.	Oqmasjid	534 tillo 13 tanga	68 tillo
7.	Xonqa	4475 tillo 4 tanga	404 tillo
8.	Gʻoziobod	1069 tillo 8 tanga	120 tillo
9.	Urganch	7072 tillo 8 tanga	661 tillo
10.	Kot, Qiyot, Qoʻngʻirot	3869 tillo 17 tanga	297 tillo
11.	Shohobod	2151 tillo 5 tanga	200 tillo
12.	Manoq	2498 tillo 5 tanga	283 tillo
13.	Toshhovuz	5651 tillo 3 tanga	670 tillo
14.	Moʻlali	1548 tillo 1 tanga	180 tillo
15.	Qilichboy	1753 tillo 15 tanga	225 tillo
16.	Gurlon	7501 tillo 3 tanga	800 tillo
17.	Oqqim-Xitoy	603 tillo 8 tanga	59 tillo
18.	Mangʻit-Xitoy	3571 tillo 7 tanga	285 tillo
19.	Qangʻli Qipchoq	1542 tillo 7 tanga	164 tillo
20.	Xoʻjaeli	2388 tillo 16 tanga	211 tillo
21.	Qoʻhna Urganch	274 tillo 11 tanga	274 tillo
22.	Orol-Qoʻngʻirot	2032 tillo	-

Jami 73173 puxta tillo, kichik tilloga 153436 tillo 5 tangaga teng. Chiqori 7089 kichik tillo. Hujjatda Xazorasb va Xilali tobelar keltirilmagan. Soliq imtiyozi oʻsha yil uchun berilgandir.

2- ILOVA

Xiva xonligida to'lovlar va majburiyatlar			
1	Tarkona	Mulkni meros qilish masalalari bilan bog'liq notarial xizmat uchun to'lov	Aniq miqdori belgilanmagan, merosning 1/40 kismidan oshmagan.
2	Nikoxona	Nikohdan o'tmoqchi bo'lganlar ruhsatnoma olish uchun to'lov	miqdori 2 tanga
3	Yorliqona	Yorliqli mulk egalari yerga egalik xuquqini bildiruvchi hujjat olish uchun to'lov	33 tangadan – 66 tangagacha bo'lgan
4	Kotibona	Yorliq yoki boshqa rasmiy hujjatni kuchirib bergan mirza xizmati uchun xaq	2 tangadan – 5 tangagacha
5	muxrona	Hujjatni rasmiylashtirgan va muxrlagan amaldor uchun yig'im	2 tangadan – 5 tillogacha
6		Solg'ut solig'ini yig'ish jarayonida mirzalar va devonxonaning boshqa harajatlari uchun to'lov	1.5 tangani tashkil etgan
7	dallol haqi	Bozorlarda sotuvchi va xaridor o'rtasida vositachilik uchun xaq	Aniq miqdori belgilanmagan
8	tarozi puli	Xonlik bozorlaridagi tarozilardan foydalanganlik uchun xaq	Uning miqdori omillarga ko'ra o'zgarib turgan.
9	tagijoyi	Bozordagi savdo joyi uchun to'lov	1-5-tillo
10	cho'p puli	1.davlatga tegishli bo'lgan to'qayzorlarda, yaylovlarda chorvasini o'tlatganlik uchun to'lov; 2.Belgilanmagan yerlarda daraxt kesganligi uchun jarima	Aniq miqdori belgilanmagan
11	boy puli	Tijoratchilardan olingan savdo ruxsatnomasi uchun to'lov	Uning miqdori xon tomonidan shaxsan taqsimlagan
12	patak fuli	XX asr boshlarida joriy etilgan boy savdogarlarning ayrim turdagi xorijga mahsulot olib chiqish va chet eldan mahsulot olib kirish uchun to'lov	2000 lo

13	Pasport puli	ziyosat va tijorat ishlari bilan xonlik hududidan uzoq safarga chiqayotganlar, savdogarlar	1 tillo
14	Biqazu	bir yil muddatga mehnat majburiyatidan ma'lum to'lov evaziga ozod bo'lish	1-2 tillo
15	Afanak puli	Begar jarayonida yasovullar foydasida qozuchilardan olinadigan yig'im	2.5tanga
16	Yasovul puli, mirshab puli	Qarzdor yoki qoidabuzarni xon yoki qozi oldiga olib kelgan davlat xizmatchisiga xaq	1-2 tanga
17	Kashtibon to'lovi	Xiva xonligida hududida oqib o'tgan Amudaryodan qayiqlarda aholini daryoning narigi tomonida o'tkazib qo'yganligi uchun olinadigan xizmat haqi hisoblangan	2 tangadan 1 tillogacha

3-ILOVA


I 125-fond, 2- ro‘yxat, 422-yig‘ma jild, 1-4-varaqlar

Xiva bozorida faoliyat yuritgan savdogar va hunarmandlardan olingan tagijoy solig‘i³⁹⁸.


№	Hunarmand va savdogarlarning nomi	Sotuvchilarning soni	Tagjoy haqi (tillo)
1.	Kigizfurushlar	6	4
2.	Unfurushlar	14	12
3.	Tabaqchilar	20	12
4.	Sartaroshlar	27	32
5.	Nonboylar	14	12
6.	Baqqollar	44	21
7.	Qo‘mirchilar	6	6
8.	Misgarlar	35	8
9.	Kavushdo‘zlar	13	8
10.	Agachfurushlar	3	5
11.	Chaparfurushlar	15	24
12.	Ipakchilar	31	6
13.	Sabunchilar	27	15
14.	Qinchi, pchakchi	6	1
15.	Qo‘nchilar	18	12
16.	Tuzchilar	11	6
17.	Qassoblar	80	41
18.	Zargarlar	12	6
19.	Sarroflar	11	6
20.	Etukchilar	40	30
	Jami:		388 tillo

³⁹⁸ Tagijoy-“yerning osti” ma’nosini bildiruvchi, bozorrastalarida savdo qilganlik uchun olingan to’lov

4- ILOVA



5-ILOVA



6-ILOVA

Xiva xonligidagi soliqlarning Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi soliqlari bilan qiyosiy jadvali

№	Soliq olingan ob’ekt	Xiva xonligi	Buxoro amirligi	Qo‘qon xonligi
1.	Yer solig‘i	Solg‘ut	Xaroj	Xaroj
2.	Qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritgan shaxslardan olingan daromad solig‘i	Ushr	Ushr	Ushr
3.	Dehqonchilikda poliz ekinlaridan olingan soliq	–	Tanobona	Tanobona
4.	Bog‘dorchilikda olingan	Ushr	Chorbog‘ moli	Moli bog‘ot
5.	Poliz ekinlaridan olingan	Ushr	Polizot	Falijot
6.	Tamaki mahsulotlari	Olacha tamoku zakoti	–	Ko‘knor puli
7.	Beda va somondan olingan	Ushr	Koh puli	Kax puli
8.	Paxta ekinidan olingan	Zakot	Xaroj	Go‘za puli
9.	O‘tin teruvchilar yoki daraxt kesuvchilardan	Cho‘p puli	Cho‘p puli	Panj yak
10.	Daromad solig‘i	Zakot	Zakot	Zakot
11.	Bozorlarda savdo joyi uchun yig‘im	Tagijoyi	Tagijoyi	Tagijoyi
12.	Bozorlarda oldi-sotdi jarayonida vositachilik qilgan shaxs uchunxaq	Dallol xaqi	Dallol puli	Dallol puli
13.	Xonlik bozorlarida davlat tarozilaridan foydalanganlik uchun to‘lov	Tarozu puli	Tarozu puli	Tarozu puli
14.	Nikohni qayd etish bilan bog‘liq to‘lov	Nikoxona	Nikoxona	Nikoxona
15.	Davlat amaldorining muhr bitilgan yuridik hujjati uchun to‘lov	Muxrona	Muxrona	Muxrona
16.	Meros taqsimoti bilan bog‘liq to‘lov	Tariqona	Tarqona	Tariqona

17.	Daryoni kechib o'tganlik uchun to'lov	Kashtibon		Ko'prik ijarasi
18.	Tegirmondan foydalanilganlik uchun to'lov	Osiyo puli	Osiyobona	Objuvoz puli
19.	Tuproqdan tillo yuvganlik uchun	Ushr	Zarsho'yi	Tillochini
20.	Suv taqsimotchisi mirob xizmati uchun xaq	Mirobona	Mirobona	Mirobona

ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI

№	Nomlanishi	Izohi
1.	Atoyi mulk	“Ota” so‘zidan kelib chiqqan. Xiva xonligida merosiy xususiy mulk ko‘rinishi.
2.	Solg‘ut	Xiva xonligida yerdan olinadigan daromad solig‘i
3.	A‘lo	15 tanob va undan ko‘proq yer egasi
4.	Avsot	5-10 tanobga egalik qiluvchi
5.	Adno	1-5 tanobli dexqon
6.	Ah‘yo yerlari	sug‘oriladigan hosildor yerlar
7.	Adro	sug‘orilmaydigan cho‘l, dasht hududlaridagi yerlar
8.	Yorliqli mulk	Xiva xonligida imtiyozli xususiy yer egaligi ko‘rinishi
9.	Mamlakai podshohi	davlatga tegishli bo‘lgan sug‘oriladigan ekinbop yerlar, shuningdek, tashlandiq yerlar, qumlik, cho‘l, adirlar va yaylovlar, to‘qayzorlar ham kirgan.
10.	Vaqf yerlari	diniy muassasalar, masjid, madrasalarga qarashli yer-mulk
11.	Ma‘of	“avf etish”, Xiva xonligida soliq imtiyozining bir ko‘rinishi, soliq to‘lovchi ma‘lum sabablarga bir yillik soliqlardan va majburiyatlardan ozod etilishi
12.	Inoyatnoma	Rasmiy hujjat turi, soliqdan ozod qilinganlik to‘g‘risida ma‘lumotnoma
13.	Yorliqona /yorliq puli	xonlikda imtiyozli yorliqli mulkerlari olganligini tasdiqlovchi hujjat uchun to‘lov bo‘lib, uning miqdori birinchi marotaba uchun 33 tanga, ikkinchi bor olganda 66 tangani tashkil etgan.
14.	Kotibona	Yorliq yoki boshqahujjatni rasmiylashtirgan mirza uchun haq.Odatda uning miqdori 5 tangani tashkil etgan.
15.	Toza	“Yangi”, Xiva xonligida soliq imtiyozini anglatuvchi atama, ikki ma‘noda qo‘llangan. 1.Mulkdor bo‘z yerlar o‘zlashtirib, 3 yillik solg‘utdan ozod qilingani anglatgan.2.Dehqon imtiyozli yorliqli mulklaridan 2-bor foydalangan
16.	Majbu	jami yig‘ilgan soliq miqdor
17.	Nishona	Rasmiy hujjat turi, farmon. Xonlikning yuqori amaldorlari tomonidan bir yillik soliqdan ozod qilinishini anglatgan
18.	Su puli	davlat mehnat majburiyatlarida qatnashmaslik huquqi uchun to‘lov, biqozu nomi bilan ham yuritilgan.

19.	Dug'ma solg'uti	1873 yilgai xonning qullikni tugatish to'g'risidagi farmoni natijasida ozod etilgan qullardan olinadigan daromad solig'i. Uning miqdori 18 tangani tashkil etgan.
20.	Bevatan solg'uti	Xiva xonligida shaxsiy yeriga ega bo'lmagan ijarachilardan olinadigan daromad soli-i. Sanoq daftarlarida uning miqdori 18 tangani tashkil etgan.
21.	Puxta tillo	Xiva xonligida pul birligi. 1 puxta tillo 2 kichik tilloga yoki 18 tangaga teng bo'lgan.
22.	Zakot	Xiva xonligida chorva va tijorat bilan shugullanuvchilardan olingan daromad soligi
23.	Zakot – kesma	Turkmanlarning ayrim urug'lari qoraqalpoqlar va qo'ng'irotliliklardan chorva soni hisobga olinmagan va oldindan kelishilgan pul to'langan zakot ko'rinishi
24.	Buxarchi	Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi, Afg'onistondan keltiriladigan mahsulotlar va undan to'lanadigan zakot shunday nomlangan
25.	Qal'achi	Xonlikka olib kirilgan rus tovarlari hamda undan olinadigan soliq ham shu nom bilan yuritilgan.
26.	oq yuk	Bir tuyaga yuklangan qiymati past mahsulot, 1 ½ tillo, savdo karvoni qaytgach, yana 3 tillo to'lashi shart bo'lgan
27.	matta	Bir tuyaga yuklangan qiymati baland mahsulot 3 tillo, kayta kelishda yana 6 tillo olingan.
28.	Olache tamoku zakoti	Xonlikda yetishtirilgan tamaki mahsulotlari zakoti
29.	Tivah	O'lchov birligi bir tuyaga ortilgan yuk. 1 tivah Paxtadan 4 tillo, 1 tivah ruyondan 1 tillo boj olingan
30.	Langancha	Xiva xonligida mahsulot solingan qop, halta
31.	zakoti savoim	Xiva xonligida shariat asosida nisobga to'lgan chorvadan olinadigan zakot
32.	yurt chorvasi	xonlikda muqim yashovchi o'troq aholi chorvasidan olingan zakotning nomlanishi, har bir qoramol uchun 1 tanga, zotli qo'ylarning har biri uchun ½ tangaga teng bo'lgan.
33.	sulandli	bozorga sotish uchun olib chiqilgan chorvadan olingan zakoti savoimning kurinishi

34.	boy puli	chetga ayrim turdagi mahsulotni olib chiqish yoki xorijdan ma'lum mahsulotni honlikka olib kirish huquqi uchun to'lov
35.	Patta	Soliq to'langanligini anglatuvchi ma'lumotnoma
36.	Yasovul puli	Xonlikda qarzdorlik, jinoyat, qoidabuzarlik sodir etganlarni qozixonaga olib kelganligi uchun to'lov
37.	patak fuli	XX asr boshlarida joriy etilgan boy savdogarlarning xorijga mahsulot olib chiqish va chet eldan mahsulot olib kirish huquqi uchun to'lov
38.	Tarkona	Merosni taqsimlagan qozilik foydasigi to'lov, 1/40 miqdoridan oshmagan.
39.	Nikohona	nikohdan o'tmoqchi bo'lganlar ruhsatnoma olish uchun to'laganlar. Uning miqdori 2 tangani tashkil etgan.
40.	Zakoti bozorno	Xiva xonligi bozorlarida ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlar maxmuining nomlanishi.
41.	Tagijoy	Xiva bozorlarida savdo joyi uchun to'lov, 1 tildan 5 tillogacha olingan.
42.	Dallol haqi	Bozorlarda sotuvchi va xaridor o'rtasida vositachilik uchun xaq
43.	Tarozu puli	podsholiq bozorlarida davlat tarozilari o'rnatilib, undan foydalanganlik uchun ma'lum haq
44.	Cho'p puli	davlatga tegishli bo'lgan to'qayzorlarda, yaylovlarda chorvasini o'tlatganlik uchun ko'chmanchi chorvador urug'lardan olingan soliq
45.	Chanqaroq puli	1899 yilda qirg'iz va qoraqalpoqlarga amal qilgan kesma tizimi o'rniga joriy etilgan soliq
46.	Kashtibon	Xiva xonligida hududida oqib o'tgan Amudaryodan qayiqlarda aholini daryoning narigi tomonida o'tkazib qo'yganligi uchun olinadigan xizmat haqi hisoblangan
47.	Ipaklaridin mol	Xonlikda ipakchilik bilan shug'ullanuvchilardan 1/40 miqdorda olingan
48.	Ushr	1/10 miqdorda olingan yer solig'i
49.	Begar	Xonlikda davlat majburiy mexnat shakli
50.	Qozu	12 kun davom etgan yof va arnalarni loyqalardan to'qalash ishlarida qatnashish
51.	Qochu	daryodagi to'g'onlarni tiklash yoki yangilarini barpo etish ishlariga jalb etish

52.	Ko'frukji	Xonlikdagi ko'priklarni ta'mirlash yoki yangilarini qurish ishlariga qatnashish
53.	Yorliq	soliqdan ozod qilinganlikni anglatuvchi rasmiy hujjat turi
54.	Arzdosht	Ish yuritish hujjati
55.	Daftar	Soliq qaydnomalari hujjati
56.	Avorija	mavzelar kesimida soliq to'lovchi ob'ektlar va ulardan keluvchi pul va mahsulot ko'rinishidagi tushumlar daftari
57.	Tavhija	davlat g'aznasidan sarflangan mablag'lar, oshlik maoshlar va boshqa sarf harajatlar, don mahsulotlari tushumi daftari
58.	Muboraknoma	Xonning maxsus farmoni. Soliq tizimida soliq amaliyotini boshlash ruxsatnomasi.
59.	Kesim	tijorat faoliyatini olib borish uchun olinadigan guvohnoma uchun to'lov. 1897 yilda joriy etilgan.
60.	Pasport puli	ziyorat va tijorat ishlari bilan xonlik hududidan uzoq safarga chiqayotganlarga pasport berish uchun to'lov, 1 tillodan olingan
61.	Masjid qavmi	Xiva xonligida ma'muriy birlik
62.	Otliq	Xiva xonligida xarbiy xizmatchilarga berilgan soliqdan ozod qilingan yer mulklar
63.	Biqozu	xonlikda bir yil muddatga mehnat majburiyatidan ma'lum to'lov evaziga ozod bo'lish
64.	Arna	Amudaryodan boshlanuvchi yirik magistral kanallar
65.	Yof	Arnadan suv oluvchi kanal
66.	Xom	Qo'y terisi
67.	Afanak puli	Qozu mexnat majburiyati jarayonida yasovullar foydasiga olingan to'lov
68.	Jabdi	xonlik sug'orish tizimida suvdan foydalanuvchilarning kichik hududiy jamoasi
69.	Uchan	Xiva xonligida katta qayiqlar
70.	Uzarcha	Amudaryodan odamlarni olib o'tishga mo'ljallangan kichikroq qayiqlar

Abduxalilova Aziza Erkinovna

XIVA XONLIGIDA SOLIQ TIZIMI TARIXI VA TARIXSHUNOSLIGI

Monografiya

Muharrir: M.Talipova

Musahhih: N.Niyazova

Kompyuterda tayyorlovchi: B.Haydarov

Bosishga ruxsat etildi: 03.04.2025-yil

Bichimi 60x84 ^{1/16}. «Times New Roman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.

Shartli bosma tabog'i 9,25. Nashr h.t. 7.84

Adadi 100. Buyurtma № 03-04/325

«IMPRESS MEDIA» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.